



O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

**YANGI
O'ZBEKİSTONNING
TARAQQIYOT
SATRATEGIYASI
VA JAMIYATNING
MA'NAVIY
ASOSLARI**

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA**

2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT SATRATEGIYASI
VA JAMIYATNING MA'NAVIY ASOSLARI” moduli bo'yicha
(Barcha yo'nalishlar uchun)**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **s.f.d, professor Sh.I.Paxruttinov** - O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi.

Taqrizchi: **s.f.d, dotsent U.I.Islomekov-** O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi.
s.f.d, dotsent H.Rajabov

*O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsija qilingan
(2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnomma)*

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	5
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O'QITISH METODLARI.....	15
III.	NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....	30
IV.	AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....	80
V.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	171
VI.	NAZORAT SAVOLLARI.....	173



I. ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldaggi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minlash, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan

islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini o‘zlashtirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyatga tadbiq etish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish, undagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil etish va baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarni Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish;
- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyatini yoritib berish;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy maqsad va yo‘nalishlar to‘g‘risida chuqur bilim olishni ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmunini o‘rganish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish;
- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mazmun-mohiyatini o‘rganish;
- xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va
kompetensiyaligiga qo‘yiladigan talablar**

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy shakllanishi va rivojlanishini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni *bilishi* lozim.

Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;

- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;
- yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog‘liq tegishli amaliyot materiallarini o‘rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o‘qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo‘llash;
- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni amalgalash;
- yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” moduli ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modul doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar nazarda tutilib, bu borada davlat va jamiyat hayotida katta amaliy ish tajribasiga, obro‘-e’tibor va nufuzga, yuksak lavozim va martabaga, ilmiy yutuq va unvonlarga ega bo‘lgan shaxslar, ilmiy jamoatchilik va akademik soha vakillari, davlat boshqaruvi organlari xodimlari va boshqa mashhur shaxslar bilan adabiy va ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” moduli o‘quv rejadagi “Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” va “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” modullari bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik va ularga daxldorlik tuyg‘ularini oshirishga, shuningdek, jamiyatning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, “O‘zbekiston-2030” strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyati, mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari, yo‘nalish va maqsadlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi hamda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi” ga doir kasbiy bilim va malakalarga ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot
1.	“Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati.	2	2	
2.	Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy shakllanishi va rivojlanishi.	2	2	
3.	Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi.	2		2
4.	2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi.	2		2
5.	Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash.	2		2
6.	Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish (sayyor).	2		2
Jami:		12	4	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. **(2 soat).**

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

2-mavzu. Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy shakllanishi va rivojlanishi. **(2 soat).**

Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O‘zbekistonning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro maydonidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

AMALIY NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar. **(2 soat).**

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiatning iqtisodiy

negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2-mavzu: 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. **(2 soat).**

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyatga tadbiq etish istiqbollari.

3-mavzu: Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. **(2 soat).**

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari.

4-mavzu: Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish. **(2 soat).**

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari moduli xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil etiladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- On-line ma’ruza;
- trening, videotrening;

- kichik ma'ruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);
- klaster, sinkveyn (axborot yoki biron-bir tushunchani qisqa bayonini tuzish ko'nikmani shakllantiradi);
- kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);
- blits o'yin, qora cuti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo'l-yo'lakay aniqlashga yo'naltiriladi).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiyligini qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda -yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalari, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mayjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbati” metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z

javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbati” metodining tuzilmasi

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zлari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Rolli o‘yin” metodi-ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalg etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan bирgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:


- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;

- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko‘p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi-bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Professor-o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.
2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar professor-o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Professor-o‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.
4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.
6. Professor-o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me’yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Professor-o‘qituvchi “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning

imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MA'RUZA. "YANGI O'ZBEKISTON" KONSEPSIYASINING MAZMUN MOHIYATI. "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINING AHAMIYATI.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo'ldi. Endi O'zbekiston oldida boshqa davlatning qosh-qovog'iga qaramasdan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot masalalarini milliy manfaatlarga mos ravishda mustaqil hal qilish, jamiyatni yangilash, demokratik davlat qurish yo'llarini ishlab chiqish kabi dolzarb va mas'uliyatli vazifalar turardi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston qanday taraqqiyot yo'lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov eski tuzum o'z o'rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o'z iskanjasidan chiqarmasligini ta'kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma'lum vaqt, jamiyatni isloq qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash, tarbiyalash kerak edi. "Farovon turmushga erishishning ham albatta o'z tosh-tarozisi bor. Boshqacha aytganda, odamzod bir narsaga erishmoq uchun ma'lum vaqt huzur-halovatdan voz kechishiga ham to'g'ri keladi".

Jahon tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andazasini ishlab chiqishga intiladi. O'zbekiston oldida ham nazariy-ilmiy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'ziga xos yo'lni ishlab chiqish zarur edi.

Yuksak kelajakni ko'zlagan O'zbekiston davlatining siyosati inson va jamiyatning erkinligini, fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan

edi. O'sha paytda jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o'zi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdan yangilash vazifalari belgilab olingan edi.

1993 yilda nashr etilgan "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab bergen edi.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.

2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgartirishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo'y sunishi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birontasini takrorlamagan holda o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "**o'zbek modeli**" deb qabul qilingan edi.

Yangi O'zbekiston konsepsiysi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan bo'lib, mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishni maqsad qilgan strategik hujjatlar tizimidir. Ushbu konsepsiya yangi davrga qadam qo'ygan O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish va keljakni aniq rejalashtirishga qaratilgan.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasining asosiy mazmuni. Inson qadri ustuvorligi: Yangi O'zbekistonning asosiy tamoyillaridan biri – inson manfaatlarini birinchi

o‘ringa qo‘yish. Bunda har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Konstitutsiyaviy islohotlar: 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu Konstitutsiyada xalq hokimiyatining ustuvorligi, inson huquqlarining himoyasi va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish bo‘yicha qoidalar mustahkamlangan.

Adolat tamoyillari: Yangi O‘zbekistonni barpo etishda adolat bosh g‘oya sifatida qabul qilingan. “Adolat – jamiyatning asosiy mezoni” tamoyili barcha sohalarda, jumladan, sud-huquq tizimida va iqtisodiy siyosatda o‘z aksini topmoqda.

Demokratik qadriyatlar: Yangi O‘zbekistonning siyosiy tizimi ochiqlik, oshkoraliq va demokratik tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Xususan, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy islohotlar va rivojlanish: Bozor iqtisodiyotiga to‘liq o‘tish, davlatning iqtisodiy faoliyatdagi ulushini qisqartirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kambag‘allikni qisqartirish, qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Mintaqaviy hamkorlik: Yangi O‘zbekiston konsepsiyasini qo‘shti davlatlar bilan tinchlik, barqarorlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashni nazarda tutadi. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining mohiyati. Rivojlanishning yangi bosqichi: Yangi O‘zbekiston konsepsiyasini mustaqillik yillarida to‘plangan tajribaga asoslangan holda mamlakatni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Unda xalqaro tajriba va milliy manfaatlar uyg‘unlashgan.

Milliy yuksalish: Ushbu konsepsiya milliy g‘oya sifatida nafaqat iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni, balki madaniy-ma’naviy tiklanishni ham o‘z ichiga oladi.

Fuqarolarning faol ishtiroki: Davlat va jamiyat rivojida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash konsepsiyaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Har bir fuqaro o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qilishi uchun sharoit yaratish maqsad qilingan.

Kelajakka ishonch: Yangi O'zbekiston konsepsiyasi mamlakat fuqarolarining o'z davlatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va keljak haqida aniq tasavvur hosil qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasi O'zbekistonni global miqyosda taraqqiy etgan, adolatli va farovon davlat sifatida namoyon etishga qaratilgan izchil islohotlarning tizimli dasturi bo'lib, bu xalq manfaatlariga xizmat qiladigan barcha jabhalardagi tub o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (ПФ-4947-сон) farmoni xalqimiz tomonidan iliq kutib olingan edi. Unda besh yillikda mamlakatda zabit etishi nazarda tutilgan ulkan dovonlar, xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning mexanizmlari aniq belgilab berilgan edi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilangan bo'lib, bular **davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish** hisoblanardi.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining maqsadi mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishdan iborat edi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi.

Xo‘sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta’minlaydi? Tanlagan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Strategiya — bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. **Strategiya deb**, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategianing mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika — rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning mayog‘iga aylanadi. Taktika esa vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik rejalarini va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. **Siyosat** — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko‘rib turganimizdek, strategianing asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo‘g‘rilgan g‘oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo‘lmaganidek, davlatning maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o‘zlashtirib yoxud nusxa olib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo‘ladi. Aynan shu omillar ma’lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Strategiyani amalga oshirish eng mas’uliyatli jarayon. Agar u real vaziyatni to’liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo‘lsa, uning muvaffaqiyati ta’minlanadi. Mabodo teskari bo‘lsa, unda turg‘unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto‘g‘ri tahliliy ma’lumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir. Strategiyani baholash va nazorat qilish rejalshtirishni mantiqiy yakunlovchi omili bo‘lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanishini ta’minalash jarayonida strukturaviy bo‘g‘inlardagi bog‘lanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zaruratda rejalarни o‘zgartiradi.

Davlat rejalarini aniq va o‘zgarmas tamoyillarga bo‘ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo‘nalishini ta’minalashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o‘z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma’lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog‘i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog‘i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog‘liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo‘g‘inlarida harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo‘lim rejalarining kelishuvi bilan ta’minaladi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug‘diradi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur’atlariga, shaxsiy mas’uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini hamda tezkor yondashuvlar bilan o‘zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, yo‘nalishlarni belgilashning mavhum va noma’lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Istiqlol maqsadlarni qo‘ygan davlatlarning aksariyati milliy muvaffaqiyatlarni YAIMning o‘sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o‘tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko‘paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu

omillarni inkor etmagan holda bugun O‘zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning maqsadi fuqarolarning g‘oyaviy e’tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institatlarning mavjudligini ta’minlash asnosida amalga oshirish ko‘zda tutadi.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bezizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Harakatlar strategiyasining **birinchi ustuvor yo‘nalishi** bo‘lgan davlat va jamiyat qurilishida asosiy vazifalar etib quyidagilar belgilandi. Davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish, boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyat va javobgarligi kuchaytirish, mahalliy ijro va vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiyaning har qanday ko’rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylantirish, islohotlar samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat edi.

Davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirishda, bir-birini takrorlaydigan idoralar, funktsiyalar va byurokratik to‘silalar qisqartirildi. Davlat boshqaruvi xodimlari sonini o‘rtacha 15 % optimallashtirildi. Masofaviy xizmatlar ulushini 60% ga chiqarildi.

Islohotlar jarayonida parlamentning roli oshirildi. Amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va transformatsiya jarayonlarida parlament nazoratini kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyatning vakillik organlari oldidagi hisobdorligini ta’minlash bo‘yicha bir qator yangi tartiblar joriy etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati samaradorligini oshirishning ustuvor vazifalardan biri sifatida tanlab olindi. Samarali parlament nazoratining amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida Bosh vazir o‘rnbosarlari, vazirlar va davlat qo‘mitalari raislari

nomzodini Bosh vazir taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullash va Prezident tomonidan tasdiqlash tartibi belgilandi.

Ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ro‘li oshirildi. 2016-yilga qadar solishtirganda OAB lar soni 379 taga ko‘paydi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish uchun izchil ravishda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib 5 ta davlat dasturi qabul qilgani, ularni amalga oshirishga 114 trln. So‘m va qariyb 31 mlrd. AQSh dollari yo‘naltirilgan, O‘zbekistonni rivojlantirish uchun jami 118 ta g‘oya ilgari surilgani hamda o‘tgan davrda Harakatlar strategiyasini ro‘yobga chiqarish uchun 311 ta qonun 2000 ga yaqin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3000 dan ziyod Hukumat qarorlari qabul qilingan.

2018-yilda fuqarolarning huquqlari va tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (yoki harakatsizligi) ishlarini ko‘rib chiqish uchun ma’muriy sudlar tuzildi. Ma’muriy sudlar tomonidan 2017-yildan 2021-yilning sentyabriga qadar 68 mingta ariza ko‘rib chiqilib, 44,3 mingtasi qondirildi, xususan hokimlarning 5,3 mingta qarori noqonuniy deb topildi. 2017–2020-yillarda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 1,4 barobarga o‘sdi, inflyatsiya darajasi 18,8% dan 11,1% gacha pasaydi, oltin-valyuta rezervlari 26,4 mlrd. Dollardan 34,9 mlrd. Dollargacha oshdi.

O‘zbekiston barcha eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha bojxona bojlarini bekor qildi, eksport va litsenziyalash tartibi amallarini soddalashtirdi, 60% import qilinuvchi tovarlar uchun bojxona bojlarining “nol” stavkalarini belgiladi va import bojxona bojlari stavkalarini 6,45% gacha kamaytirdi. Islohotlar natijasida kichik biznes sektori sezilarli darajada o‘sdi: 2016-yilda respublikada 27 ming, 2020-yilda esa – 93 ming kichik tadbirkorlik subektlari ro‘yxatdan o‘tkazildi. 2017–2020-yillarda O‘zbekiston dori-darmonlar va tibbiy maqsadli buyumlar uchun 1618 mlrd. So‘m ajratdi (1991–2016-yillarda 227 mlrd. So‘m bo‘lgan). Ulardan 61,6 mlrd. So‘m qismi onkologik kasallikkarni davolash uchun dorilarga (1991–2016-yillarda 8,3 mlrd. So‘m), 217,4 mlrd. So‘m – gematologiya va onkogematologiya uchun dorilarga (1991–2016-yillarda 2,8 mlrd. So‘m) yo‘naltirilgan.

Xalq ta’limi tizimidagi islohotlar natijasida 2017–2020-yillarda 328 ta yangi maktab barpo etildi va 11 yillik majburiy maktab ta’limi tiklandi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ham o‘zgarishlar yuz berdi. 2016-yilda 5,2 ming bolalar bog‘chalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2020-yida ular 18,3 mingga yetdi (shu jumladan davlat bog‘chalari soni 5 mingdan 6,2 minggacha oshdi). Bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi darajasi 2020-yilda 61% ga yetdi, 2016-yilda esa 27,7% bo‘lgan edi. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda: kambag‘allik darajasi 2000-yildagi 28% dan 2020-yilda 11% gacha qisqardi.

O‘zbekiston birinchi marta diniy masalalar bo‘yicha “alohida xavotir uyg‘otuvchi” davlatlar ro‘yxatidan chiqarildi. Qo‘shni davlatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli aloqalar mustahkamlanib, chegaralar hamda suv-energetik resurslardan foydalanishga oid masalalar tartibga solindi.

2021-yilda O‘zbekistonda 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim amal qildi (2016-yilda u 9 ta davlat uchun amal qilar edi), shu bilan birga respublikamiz xalqaro reytinglarda bir nechta pozitsiyaga yuqoriroq ko‘tarildi.

O‘zbekistonning mudofaa salohiyati mustahkamlandi: kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning ulushi 68% gacha o‘sdi (2016-yilda 37%), qo‘shinlarning zamonaviy qurol-yarog‘ bilan jihozlanishi darajasi 5 barobarga ortdi. Shuningdek, xalqaro konferentsiya ishtirokchilari tomonidan Harakatlar strategiyasi globallashuv sharoitida jahonda tub o‘zgarishlar kechayotgan murakkab bir vaziyatda, O‘zbekiston uchun siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning eng muhim besh ustuvor yo‘nalishini amalga oshirishning yaqin istiqbolga mo‘ljallangan muhim milliy elektron hujjati ekanligi amalda to‘laqonli o‘z aksini topgan edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida bir qator ma’muriy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 110 ta samarasiz faoliyat ko‘rsatayotgan idoralararo organlar faoliyati tugatildi. 10 ta yangi vazirlik va idoralar tuzilib, 6 ta davlat funktsiyasi xususiy sektorga o‘tkazildi.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda Xalq qabulxonalarini va Prezidentning Virtual qabulxonalarini faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular aholi bilan bevosita muloqotni, tezkor javob berishni va joylarda muammolar hal etilishini ta’minlab kelmoqda. 2017-yildan 2020-yilgacha ular orqali 10,1 mln. murojaatlar o‘rganilib ijobiy hal etilgan.

Byurokratiyaga qarshi kurashish natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soni 2 barobarga (167 dan 79 gacha) qisqartirildi. 4 yil ichida “Yagona darcha” tamoyili asosida taqdim etiladigan xizmatlar soni 10 barobarga (16 dan 157 gacha) oshdi.

Harakatlar strategiyasining **ikkinchi ustuvor yo‘nalishi** bo‘lgan Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar fonida qonun ustuvorligini ta’minlash odil sudlovga erishish imkoniyatini lozim darajada ta’minlash eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta’minlash hamda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish bo‘yicha izchil ishlar olib borildi.

Xuquq ustuvorligi indeksi (The Rule of Law index) ko‘rsatkichlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2019 yilda 128 davlat ichidan 94-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020-yilda 92-o‘ringa yuqoriladi. Sudlar mustaqilligi ta’minlanishi natijasida fuqarolarga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi.

1991-2016-yillar mobaynida jami 138 ta oqlov hukmi chiqarilgan bo‘lsa, 2017-2020-yillarda 2770 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan.

2021-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston korrupsiya darajasi bo‘yicha reytingda 180 mamlakat orasida 140-o‘rinni egalladi. Bu haqda “Transparency International” xalqaro tashkilotining “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”ning yangilangan reytingida qayd etilgan. Propiska tizimi isloh qilindi.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishni ustuvor yo‘nalisharining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi. Kambag’allikni

qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etish; tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish; tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha yanada qulay sharoitlar yaratish. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish; iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish; makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir. Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish.

Valyuta bozorini liberallashtirilishi. Valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi. 2017-yil 5-sentyabrda milliy valyuta-so‘mni erkin ayirboshlashga ruxsat berilgani bu yo‘lda tashlangan ilk qadam bo‘ldi.

Mamlakatimizda biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlorni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta’minalash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minalash va yangi ish o‘rinlari tashkil etish borasida ishlar jadallashtirildi. O‘zbekistonda barqaror o‘sib borayotgan aholi bandligini ta’minalash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, aholining yillik o‘sish darajasi 600-700 mingni tashkil etmoqda. Bu borada ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish, xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish, sifatli va xolisona baholash ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlari, aholi

bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish, mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan mutahassislarni tayyorlash tizimini kengaytirish, ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi vazifalarni hal etishda bir qator ijobjiy tendensiyalar kuzatildi.

Beshinchı ustuvor yo'naliş Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasida, terrorizm xavfi darajasi buyicha Global Terrorism Index reytingida O'zbekiston 2018-yilga nisbatan o'z pozitsiyasini uch pog'onaga yaxshilab, 135-o'ringa ko'tarildi. Amerikaning "Gallups" jamoatchilik fikrini o'rganish instituti reytingi buyicha 2020-yilda O'zbekiston Norvegiya, Avstriya, Shveytsariya, BAA bilan bir qatorda dunyodagi eng xavfsiz mamlakatlar o'ntaligiga kirdi.

O'zbekiston armiyasi 2018-yilda Military Strength Ranking xalqaro reytingida 39-o'ringa ko'tarildi (2017-yilda 48-o'rin) hamda Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. 2017-2020-yillarda Qurolli kuchlarning professionallik darajasi 68% zamonaviy qurol bilan ta'minlanganligi 42% tashkil etadi.

2018-yilning yanvar-aprel oylarida respublika miqqosida bir nechta bosqichdan iborat Qur'oni karim tilovati bo'yicha qorilar ochiq, musobaqasi tashkil etilib, unda 5 ming nafardan ziyod hamyurtimiz qatnashdi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Alouddin Usmondiy, Saffar Buxoriy kabi islom olamidagi ulug' allomalar asarlarining aksariyati tarjima qilinib, 50 dan ziyod kitob nashr etildi.

Har qanday faoliyatning yakunida kutilgan natijalarni olish uni aniq strategiya asosida olib borishni taqozo etadi. Strategiya tushunchasi yunon tilidan στρατηγία – *sarkardaning san'ati* iborasidan olingan bo'lib, dastlab harbiy ibora sifatida keng qo'llanilgan. Keyinchalik esa, mazkur ibora turli maqsadlarni o'zida jamlagan va o'sha maqsadlarga erishish yo'lidagi umumiy hatti-harakatlar majmui o'laroq qayd etilgan. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari faoliyatiga e'tibor qaratadigan

bo‘lsak, strategiyaning turli nom va iboralar bilan atalganini ko‘rish mumkin. Masalan, taraqqiyot modeli, rivojlanish yo‘llari, dasturlari, milliy dasturlar va h.k. Dunyo tarixida, rivojlanishning “Yapon modeli”, “AQSH modeli”, “Shved modeli”, “Turk modeli” va boshqa o‘zining natijadorligi bilan alohida ajralib turuvchi modellarni ko‘rsatish mumkin.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergen bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar jamiyat taraqqiyotida o‘zining aniq natijalarini ko‘rsatgandan so‘ng, 2022-yildan boshlab yangi davr chaqiriqlaridan kelib chiqqan holda **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.**

Taraqqiyot strategiyasi 100 ta milliy maqsadlarni qamrab olgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat:

Birinchi yo‘nalish: **inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;**

Ikkinci yo‘nalish: **O‘zbekistondaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;**

Uchinchchi yo‘nalish: **milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;**

To‘rtinchi yo‘nalish: **adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;**

Beshinchi yo‘nalish: **ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;**

Oltinchi yo‘nalish: **milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;**

Yettinchi yo‘nalish: O‘zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, progrmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Harakatlar strategiyasidan farqli shundaki, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonni 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbirni o‘z ichiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan sa’y-harakatlar ham aniq. Ular, o‘z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etilmoqda. Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta’minlandi. Bunga, xususan faqatgina uchta asosiy elektron platformaga jamoatchilik muhokamalari yakuni bo‘yicha kelib tushgan 17 mingdan ziyod fikr-mulohazalar yaqqol dalil bo‘la oladi. Bunda, Harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan xalq bilan muloqot tizimi muhim rol o‘ynaganini alohida e’tirof etish joiz. Chunki, aynan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida davlat organlarining aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi, yildan-yilga shaffoflik ortib bordi. Bu esa o‘z-o‘zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini tubdan o‘zgartirdi, uning faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligini kuchaytirdi. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyatlari yanada kengaydi. Strategiyada yaqin va o‘rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo‘lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta’minlangani holda davom ettiriladi, to‘plangan tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat’iylik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsiyenti ortib, olib boriladigan

islohotlarning samaradorligi ortadi. Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo‘yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g“risida”gi farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo‘yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E’tiborli jihat shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas’ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan. Komissiya a’zolari Taraqqiyot strategiyasining bevosita amalga oshirilishi va tegishli mutassaddilar ustidan bu borada nazoratning ta’minlanishiga mas’ul etib belgilangan. Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e’tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalaru sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o‘z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo‘ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining xalq vakillari— deputatlar oldidagi hisobdorligi ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatimiz rivojining muhim fundamental asoslarini o‘zida qamrab olgan bo‘lib, faoliyatimizning ustuvor vazifalarini belgilab beradi. Xalq bilan muloqot mexanizmlari va ta’sirchan jamoatchilik nazoratining asoslarini takomillashtirishga, ta’lim tizimini yanada insonparvarlashtirishga, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga hamda xalqaro hamjamiyatdagi davlatimiz mavqe‘i va obro‘sini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat kelgusi 7 yilda O‘zbekistonning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi

muhim hujjat hisoblanib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Uning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari aholi tomonidan oson qabul qilinib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning barqaror va inkiyuziv rivojlanishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalardagi islohotlar, iqtisodiy o‘sish, ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashtirilishi, ekologik barqarorlikni ta’minlash va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Strategiya xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi o‘zida quyidagi asosiy g‘oyalarni aks ettirgan:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat:

- **har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish (44 ta maqsad);**
- **barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;**

- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish (17 ta maqsad);
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish (12 ta maqsad);
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish (16 ta maqsad).

Qarorga ko‘ra, 2024 yil 1 yanvardan (11 ta maqsad):

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo‘lga qo‘yiladi;
- Xorazm viloyatining Qo‘siko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim planshetlari bilan ta’milanib, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etiladi;
- banklarning nodavlat umumiyligi o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun qiymati 20 milliard so‘mgacha kreditlar bo‘yicha, foiz stavkasi asosiy stavkadan oshadigan, lekin uning 1,5 baravaridan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun kompensasiya taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.
- 2023/2024 o‘quv yildan umumiyligi o‘rta ta’lim muassasalari 10-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarlargaga o‘rgatish kurslari joriy etiladi. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiyligi o‘rta ta’lim muassasalari uchun “tayanch maktab” etib belgilanganadi.

Prezident farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangan.

Unga ko‘ra, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta’milanadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi O‘zbekistonda har bir yilga beriladigan nomlardan kelib chiqib qabul qilinadigan Davlat dasturlari asosida amalga oshirib boriladi. Strategiyani to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklangan.

Shuni alohida aytib o‘tish lozimki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yuqriddagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta’minlanadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ahamiyati. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi va davlatning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan muhim dasturiy hujjatdir. Bu strategiya Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va mamlakatning 2030-yilgacha bo‘lgan asosiy maqsadlarini, yo‘nalishlarini hamda natijalarini aniq belgilaydi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik: Strategiya ekologik muammolarni bartaraf etish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Uglerod emissiyalarini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va suv resurslarini samarali boshqarish asosiy vazifalardan biridir.

Iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlik: O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotini (YAIM) jadal sur’atlarda oshirish; eksport salohiyatini kuchaytirish va global bozor raqobatida faol ishtirok etish; innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish.

Texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Sun’iy intellekt, axborot

texnologiyalari va raqamli xizmatlarni keng joriy qilish orqali davlat boshqaruvi va iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiyadolat va farovonlik: Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish; aholi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish; jamiyatda ijtimoiy himoya tizimlarini yanada takomillashtirish.

Hududiy rivojlanish va infratuzilma modernizatsiyasi:

Strategiya barcha hududlarni izchil rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada: transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish; qishloq va shaharlar o‘rtasidagi farqlarni qisqartirish; zamonaviy shaharsozlik konsepsiyanlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Global integratsiya: O‘zbekistonni xalqaro savdo va investitsiyalarning faol ishtirokchisiga aylantirish; strategik sheriklikni kengaytirish va qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ahamiyati. Barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashuv: Strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekistonning global miqyosda barqaror rivojlanayotgan davlatlar qatorida o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Yangi iqtisodiy modelga o‘tish: Strategiya iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanishga asoslangan yangi iqtisodiy modelni yaratishni maqsad qilgan. Bu model xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Aholi farovonligini oshirish: Strategiya kambag‘allikni qisqartirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholini sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bu jamiyatning barcha qatlamlarida ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish: Strategiya davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish orqali davlat xizmatlarini yanada qulay va samarali qilishga qaratilgan.

Xalqaro obro‘ni oshirish: Strategiya O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlatga aylantirish va xalqaro hamjamiyatda davlatning iqtisodiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Kelajak uchun mustahkam poydevor yaratish: Ushbu strategiya O‘zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlarni belgilab, uzoq muddatli istiqbollarni amalga oshirishda poydevor vazifasini bajaradi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni jadal rivojlantirish uchun muhim dasturiy asos bo‘lib, uning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston yanada barqaror, farovon va raqobatbardosh davlatga aylanadi. Ushbu strategiya aholi farovonligini oshirish bilan birga, xalqaro miqyosda O‘zbekistonning obro‘sini oshirish va milliy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Mustaqillikka erishganidan so‘ng, O‘zbekiston oldida qanday dolzarb va mas’uliyatli vazifalar turgan edi?
2. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yangi jamiyat qurish uchun qaysi besh tamoyilni asoslab bergan edi?
3. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining asosiy mazmuni va tamoyillari nimalardan iborat?
4. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatning qaysi sohalarida rivojlanishni maqsad qilgan?
5. Strategiya, siyosat va taktikani ajratib beruvchi asosiy farq nima?
6. Davlatning strategik maqsadlari nima bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan?
7. Strategiyani amalga oshirish jarayonidagi asosiy xavflar nimalardan iborat?
8. Parlament nazoratini kuchaytirish uchun qaysi yangi tartiblar joriy etildi?

2-Mavzu: Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy rivojlanishi (nazariy 2 soat)

Reja:

1. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda jamiyatning ma’naviy asoslari.
2. “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiysi va uning mazmun-mohiyati.
3. Globallashuv va axborot asrida ma’naviyat, ma’rifat va axloq masalalari. “Tahdidbardosh jamiyat”ni shakllantirishning asosiy tamoyillari.
4. Qadriyatlar transformatsiyalashuvi sharoitida milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrash zarurati.

Azal azaldan ota bobolarimiz ilmu –ma’rifatni ulug’lab ta’lim va tarbiyaning avlodlar kamolotida asosiy poydevor ekanligini e’tirof etib kelganlar.Qaysiki davlatda yoki mamlakatda millat taqdiri ertasi va kelajagiga e’tibor qaratilar ekan o’sha mamlakat o’sha davlat shubhasiz gullab yashnaydi qudratli va buyuk yurt sifatida tan olinadi.

Prezidentimizning ko‘plab chiqishlarida va“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarlarida ma’naviyatni teran tahlil qilib ma’naviyatli yoshlar yurt kelajagi ekanligi ularni tarbiyalab kelajakda eng ishonchli qo’llarga topshirishimiz kerakligi haqida dildan qayg‘uradilar. O‘z ma’ruzalarida bot bot XX asr taraqqiyparvar o‘zbek jadidchilik harakatining namoyandalari faoliyatiga murojaat qilib, mana shunday yuksak amallar ya’ni yoshlar tarbiyasiga naqadar katta e’tibor berilganligiga e’tiboringizni qaratadilar.Bu bejiz emas jadidchilar xalqimizning ma’naviyatini ommaviy ravishda yuksaltirish bilangina ham iqtisodiy, ham ma’naviy taraqqiyotga erishmoq bilan o‘zbekning jahon miqyosida tegishli o‘z mavqeiga ega bo‘lishini istar edilar.

Yurtboshimiz ham 2021 yil 19 yanvardagi ma’naviy ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish,bu borada davlat va jamoat tashkilotlarini hamkorligini kuchaytirish masalariga bag‘ishlangan videoselektr yig‘ilishida «**Agar jamiyat**

hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat». degan edilar. Aynan bu borada Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 26 martida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora.-tadbirlari to‘g‘risida”qaror ham qabul qilindi.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari xech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan edi. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi bo‘lgani uchun,bugungi kunda mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari kuchayib borayotgani,odamlar ongi va qalbini egallash uchun kurash avjiga chiqayotganligi,hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari,aholining har bir qatlami,ayniqsa,yoshlar orasida ma’naviy -ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibotni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu boisdan ham ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari qanday dastur va yo‘nalish,qay sa’viyada ,kimlar tarafidan olib borilayotgani g‘oyat muhim masalaga aylandi,desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Avvalo ma’naviyat o‘zi nimadan boshlanadi degan savolga e’tibor bersak. Ma’naviyat eng avvalo xalqning o‘tmishi, ya’ni tarixini, hozirgi real hayotini bilishdan, uning kelajagini aniq tasavvur etishdan, ana shu asosda o‘zini va o‘zligini anglab yetishdan boshlanadi. «Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birgalikda singadi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqr bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».deb bejiz aytilmagan.

Mustaqillik yillarda o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, moddiy va ma’naviy boyliklari, jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan allomalarining ulkan merosiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ularning merosini qayta tiklash, tarixiy

shaxslar, buyuk allomalar, shaharlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini o'tkazish an'anaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ham yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va takomillashtirishning ma'naviy-madaniy asoslarini o'rganish va tahlil etish borasida zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu rivojlanish dasturida ma'naviy boyliklarni tiklash, millatning axloqiy namunasini takomillashtirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

"Bizning Taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit qizlarni tarbiyalash eng ustivor vazifalarimizdan biri sifatida belgilangan" deb yozgan edi Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida.

Darhaqiqat, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash – yangi rivojlanish bosqichida ustivor vazifa hisoblanadi. shu maqsadda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bir qismi yoshlarga qaratilgan. Davlatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan zarur -sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o'rni va faolligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda yigit-qizlarning huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi yuzlab qonun hujjatlari qabul qilindi. Kelajagimiz bunyodkorlariga e'tiborni kuchaytirish natijasida ularni ilm –fanga madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish ustivor vazifa sifatida belgilandi. Bugungi globallashuv va axborot kommunikatsiyalari jadal rivojlanib borayotgan, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan davrda yoshlarimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish eng dolzarb vazifaga aylandi. Ta'lim-tarbiya

va targ‘ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beruvchi muhim tizimdir.Sog‘lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o‘z o‘rniga ega.Shuningdek,Vatan,xalq manfaatlarini,do‘stlik va birodarlikni,o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni targ‘ib-tashviq etuvchi turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shaklidir.

Bugungi sharoitda yoshlarni o‘z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan,irodali,fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash mafkuraviy profilaktikaning birdan bir vositasidir.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni o‘rnatish ham mafkuraviy profilaktikaning muhim shartidir.Ijtimoiy adolat ta’milanishi uchun mamlakatda qonun ustivorligi,fuqarolarning qonun oldida tengligi va o‘z ish faoliyatlarini qonun doirasida amalga oshirishini bildiradi.

Yangi tahriddagi Konstitutsiyamizda ham **Yoshlar huquqlari himoyalanishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirish kafolatlanmoqda. Davlat tomonidan** yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – **davlatning konstitutsiyaviy majburiyati** sifatida kiritildi.Kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minalash, ularning orzu intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisi 2040 yilga borib, 50 mlnga yetadi. Ularning yarmidan ko‘pi yoshlar ekanini ham hisobga olish kerak. Ularga munosib sharoit qilib berish uchun, har yili 250 ming yangi o‘quvchi o‘rni, o‘nlab zamonaviy shifoxonalar, kamida 200 mingta yangi uy-joy, 128 1 mln doimiy ish o‘rni, 25 – 30 mlrd dollar investitsiya kerak. Qonunchiligidan muvofiq yoshlarga – 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar kiradi. O‘zbekistonda yoshlarning soni bugungi kunda 9,6 mlndan oshmoqda, ya’ni mamlakatimiz aholisining 30 foizga yaqinini tashkil etmoqda. 2016 yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, 2020 yilda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi hamda 30 iyun – “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi. Yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamiz 78 va 79-moddalari yoshlarga oid alohida normalar bilan to‘ldirildi. Ularga muvofiq: birinchidan, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi, degan norma kiritildi. Yoshlarga imtiyozli uylar berish, bepul tibbiy jihozlar, protez-ortopediya buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash, yetim bolalar uchun oliy ta’limda bepul o‘qish imkoniyati yaratildi. Davlatimiz yoshlar huquqlarini himoya qilish ,ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohada o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga barcha imkoniyatlarni yaratishni,jamiyatda o‘z o‘rnilarini topishi uchun barcha vositalarni ishga solishni o‘z zimmasiga olmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023 yil 22 dekabr kunida bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida ham yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlар ruhida tarbiyalashga e’tibor qaratilgan edi va bir qator vazifalar belgilab olingan edi.

Bugungi kunda ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalashda sportning ham o‘ziga xos o‘rni bor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi "Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6099-son Farmoniga asosan sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanish asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi, sport aholi salomatligini mustahkamlashda, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda, turli kasalliklar, yoshlar va aholi o‘rtasida zararli odatlarning oldini olishda, sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutishini bilamiz. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

“O‘zbekiston 2030” strategiyasining birinchi “**HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH**” yo‘nalishida “Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar” amalga oshirish belgilandi .Har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalg qilish; 400 ming nafar yoshlarning bandligini ta’minlash va muammolarini hal etishga erishish; Maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash; Yoshlarning ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish; IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta’minlash. Har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish; Sport bilan shug‘ullanishga jalg qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish; Kamida 5 ming ta mahallada sport maydonchalarini barpo etish; Ommaviy sport tadbiralarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish; Razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga yetkazish; Sport sohasida oliv ma’lumotli xodimlar ulishini 85 foizga yetkazish. Sport-ta’lim muassasalarida muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish; 2030 yil Dohada (Qatar) bo‘lib o‘tadigan navbatdagi Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarining umumiylamoja hisobida kuchli TOP-5 talik davlatlar qatoriga kirishiga erishish; Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi.Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish; 30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqrilimiyl tadqiq etish. Kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish; 40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish nazarda tutildi.Shuningdek yoshlarimizni nafaqat bilim olishi kasb hunar egallashiga shart –sharoit yaratib berish ham,iqtidorli yoshlarni qo‘llab –quvvatlash ,ularni xorijdagi nufuzli universitetlarda ta’lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratib berish ham ko‘zda tutildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlarning samarasi yoshlarimizning boy tariximizni anglashi,qalbi va ongida milliy g‘oyaga sadoqatining oshishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Bugungi shiddatli davrda, tahlikali vaziyatda yurtimiz yoshlarini mafkuraviy kurashlar girdobiga qolishga yo‘l qo‘ymasdan chinakam ma’naviyatli inson bo‘lishi uchun o‘z milliy qadriyatlarini e’zozlashi, milliy o‘zligini anglashi jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi, o‘z davlatini jahon hamjamiyatida munosib o‘rin olishi uchun fidoyi bo‘lishi kerakligini uqtirishimiz lozim. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda .turli xil saytlarda yoshlarimizni aldov yo‘li bilan katta imkoniyatlar va’da qilib o‘z yo‘l yo‘rig‘iga yurg‘izishga intilayotgan kuchlar ham yo‘q emas. Bunday kuchlarni to‘xtatib qolish ularga imkon bermaslik uchun ogohlilik davr talabidir. Atrofimizda bo‘layotgan voqealarga loqayd bo‘lmasligimiz kerak! Mintaqamizdagи voqealar yurtimiz yoshlariga ham zarba bermasligi uchun ularning mafkuraviy immunitetlarini kuchaytirishimiz Vatanlariga bo‘lgan muhabbatlarini ,ajdodlarimiz qadriyatlariga bo‘lgan hurmatlarini yanada yuksaklikga ko‘tarishimiz ,qolaversa ma’naviy poydevorlarini baquvvat qilishimiz lozim. Davlatimiz rahbarining iboralari bilan aytganda “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi,ma’naviyat yangi kuchga,yangi harakatga aylanishi kerak”.

Albatta bu bejiz emas respublikamiz aholisining katta qismini aynan yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham kelajak yosh avlod qo‘lida ekanligini unutmasligimiz zarur. O‘sib kelayotgan yosh avlodni irodali,iymon-e’tiqodli,mustaqlil va erkin fikrli,har qanday xurujlarga dadil qarshi bora oladigan qodir insonlar bo‘lib yetishishlarida ta’lim muassasalari ,oila,mahalla hamkorligi,milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yuksak turmush tarzining ahamiyati katta.

Yosh avlodning ma’naviy olamini asrash uchun hayotiy tajribadan kelib chiqib, har bir tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqr o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish kerak.

Ma’naviy nur-madaniyatli shaxs dilida haqiqat nuri aks etgan,o‘zligini anglagan,o‘zining borliqdagi o‘rnii va vazifalarini tushinib olgan,haqiqatan oldidagi o‘z maqomiga loyiq bo‘lish va burchini ijro etish ma’suliyatini zimmasiga ola biladigan insondir.

Hozirgi globallashuv davrida insoniyatga, ayniqsa yoshlarga ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'zida mujassamlashtirgan "ommaviy madaniyat" tahdid solmoqda. Ommaviy madaniyat G'arb dunyosida dastlab XIX asr oxiri - XX asr boshlarida paydo bo'lib, XX asr ikkinchi yarmida yanada rivojlandi. Uni G'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda "pop- kultura" ("ommaviy madaniyat") deb atashadi. Bu unsur "madaniyat" deb atalsada, tub mazmun - mohiyati, maqsadlariga ko'ra chinakam madaniyatning kushandasidir. Ya'ni "ommaviy madaniyat" tushunchasi aslida madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik va axloqsizlik tushunchalarining sinonimidir.

Ommaviy madaniyatning keng yoyilishining asosiy sabablaridan biri ommaviy axborot vositalarining nihoyat darajada rivojlanganligi va uning bosh maqsadi ko'proq daromad olish ekanligidir. Hozirgi davrda bu madaniyatning yo'nalishlaridan bo'lgan shou, triller, boevik, shlyager, komikslar keng ommalashganligining sababi uning oddiy kishilarga mo'ljallanganligi hamda ko'ngilocharligi bilan izohlanadi. Pul topish uchun axloq normalaridan chekiniladi. "Ommaviy madaniyat" g'arb madaniy hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, u xalqning o'zligi va madaniyatini yo'qotishga, uni xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslardan, ya'ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy va ruhiy an'analar, qadriyatlar hamda tamoyillardan begonalashtirishga qaratilgan xurujdir.

Yoshlarimizni turli vayronkor g'oyalardan ehtirot qilib, ko'proq mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi bilan oshno qilishimiz kerak.

Bunday madaniyatga qarshi kurashish yo'lida islom dinining insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalarini chuqur o'rganish, Imom Matrudiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Hakim Termiziyy, Abu-Lays Samarqandiy, Kafol Shoshiy, Abu-l-Muin Nasafiy, Makhul Nasafiy, Maxmud Zamaxshariy, Baxouddin Naqshband, Burxoniddin Marg'inoniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va Zaxiriddin Muhammad Bobur singari ulug' mutafakkirlarning ilmiy- ma'naviy merosini tadqiq etish bugungi kundagi manfaatparastlik botqog'iga g'arq bo'layotgan insonlarni jaxolat changalidan qutqarishda muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilishi shubhasiz .

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham shunday degan edilar: "Farg'ona nomini butun dunyoga taratgan Ahmad Farg'oniy bobomizning o'n ikkinchi asrdayoq lotin va yahudiy tiliga tarjima qilingan "Astronomiya asoslari" kitobini eslash kifoya. Ulug' allomaning loyihasi asosida nil daryosi suvining sathini o'lchaydigan o'ta noyob inshoot - "Miqyosi nil" Misrda hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Yoki yana bir ulug' ajdodimiz - Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari necha yuz yillardan buyon butun musulmon dunyosida islam huquqi bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib kelayotgani barchamizda g'urur va iftixor uyg'otadi. Ana shunday buyuk zotlarning qoldirgan bebafo merosini chuqur o'rghanish, ularning qadamjolarini obod qilish, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha birgalikda qilgan ishlarimiz barchamizga mammuniyat yetkazadi.

Albatta prezidentimiz ajdodlarimiz meroсидан na'muna keltirib, har bir davrda yoshlar tarbiyasi davlat e'tiborida ekanligini ta'kidlaganlar. Yoshlarni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash asosiy vazifamizdir deganlar.

Mavlono Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganlaridek, "Jaholat –zulmatdir" Johil odamga oddiy narsa qo'rqinchli bo'lib, yaxshi narsa foydasiz bo'lib ko'rindi. Bu illatning davosi esa ilmdir. Ilm haq bilan botilni farqlashning eng muhim vositalaridan biridir. bitmas-tuganmas xazinadir. Bejiz buyuk bobokalonlarimiz ilm-ma'rifat chirog'i ekanligini ta'kidlamayaptilar. Mamlakatimiz taraqqiyoti poydevori ilmli yoshlarga tayanadi, Uchinchi Renesans poydevorini qurishdek vazifa ilmli yoshlar zimmasidadir.

Prezidentimiz "Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy meroсiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa qiz bolalarning zamонавиј bilim va kasb hunarlarni, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz", deb ta'kidlagan edilar.

Yoshlarni yuksak axloqli qilib tarbiyalash, vatanparvarlik ruhida voyaga yetishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ham o'ziga xos o'rni bor. yoshlarni ona vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik,

fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida olib borilayotgan ushbu strategik islohotlar natijasida O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish -Uchinchi Renesans davrini yaratishda yoshlар asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz aytganlaridek: "Nafaqat yoshlар, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!".

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzlucksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak."

Xo‘p bu yoshlарimizning yutuqlari tahsinga loyiq. Lekin hamma yoshlарimiz ham shunday yutuqlarga erishayaptimi. Tobora kuchayib borayotgan tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzlucksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya yetarlimi?

Yoshlар jamiyatni faol harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi zarur bo‘lgan bir paytda navqiron avlodni buzg‘unchi g‘oyalar, ma’naviy tahdidlardan asrash dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Avvalambor, turli xil tahdidlardan yoshlарimiz hayotini asrash ma’naviy bo‘shliqga yo‘l qo‘ymasligimiz uchun ularni ezgu insoniy g‘oyalar bilan qurollantirishimiz o‘lmas asarlarimizga oshno qilishimiz shart. Bugungi kunda Prezidentimizning yoshlарimizning kitobga bo‘lgan munosabatlarini qo‘llab-quvvatlab rag‘batlantirmoqdalar. Respublikamizda «Yosh kitobxon» tanlovlari o‘tmoqda. Shuda ko‘p yoshlар bu tanlovda ishtirok etish uchun respublikamizning olis tumanlaridan ham ishtiyоq bilan kelmoqda. Mahallalarda yosh avlod uchun kutubxonalar tashkil etilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz 3 aprel kuni Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqlarida mamlakatimizda olib borilayotgan obodonchilik ishlari bilan bir qatorda yoshlарimiz uchun qurilayotgan inshootlar loyihasiga ham to‘xtalib o‘tdilar:- "Navbatdagi loyiha-O‘zbekiston Milliy kutubxonasi uchun yangi majmua. Bu yerda kutubxona fondida saqlanayotgan 10 milliondan ortiq adabiyotlarni munosib saqlash va bir paytning o‘zida 1 ming 420 nafar kitobxonga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun

barcha sharoitlar yaratiladi.Uning umumiy maydoni 30 ming metr kvadratni tashkil qiladi”deb ta’kidladilar.Yoshlarimiz ma’naviy olamini boyitish borasida «Yosh kitobxon» tanlovlarni o’tkazilishi, kitob do‘konlarining ko‘paytirilishi «Kitob bayramlarini» tashkil etilishi, Ijod jamoat fondi tomonidan har yili eng iste’dodli yoshlarning 20 ming tirajdan bepul nashr etilishi va o‘quv yurtlariga tarqatilishi hamda targ‘ib etilishi bu borada ezgu ishlarning yaqqol ko‘rinishidir .

Bugungi yoshlarga yaratilayotgan sharoitlarga e’tibor bersak 2024 yilning 8 chi apreliida yurtboshimiz Jizzax viloyatiga tashrif buyurib, u yerdagi amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishib,Jizzax shahrida barpo etilgan Kibersport arenasida yoshlar bilan uchrashdilar.Tashkil etilgan Kibersport arenasi 1 ming 200 tomoshabinga mo‘ljallangan zal ,12 ta o‘quv va mashg‘ulot xoanalari ,majlislar zali,35 o‘rinli yotoqxonadan iborat bo‘lib ,unda kafeteriy faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi,davlatimiz rahbarining 2022 –yil,16 noyabrdagi qaroriga muvofiq kibersport turlari ommalashtirilayotgani guvohi bo‘lasiz.Bu kibersport arenasi universal bo‘lib,boks,kurash,basketbol,stol tennisi,shaxmat,shashka bo‘yicha o‘tkazilish mumkin bo‘lgan xalqaro musobaqalarga mo‘ljallangan.Yurtboshimiz bu yerda o‘tkazilayotgan musobaqalarni kuzatdilar va yoshlar bilan muloqot qildilar.”Bugun Jizzaxning ko‘p joylarida bo‘ldik,yangi loyihalarni boshladik.Albatta viloyatning iqtisodiyoti , bunyodkorlik ko‘لامi avvalgidan ancha yuqori.Lekin eng muhim yutuq-yoshlarimizning harakati,niyati,o‘ziga ishonchi.Biz belgilab olgan Strategiyani,katta ma’rralarni shunday yoshlar bilan amalga oshiramiz,-dedi davlat rahbari. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday bunyodkorlik ishlari ,yoshlarimizga yaratilayotgan keng imkoniyatlar , ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinayotganligi, yoshlarimizni ham befarq qoldirmasdan bugungi kunda katta yutuq va marralarni egallahsga undaydi.

Bugun dunyoning umumiy manzarasi turfa xil xususiyatlarni taqdim etmoqda. Tabiiy va boshqa resurslar uchun kurash, gegemonlikka intilish, turli xalqlar, millatlar va davlatlarni tobe qilishga urinish va boshqa turli tahlikali hodisalarini taqdim etmoqda. Ilmiy manbalarda ushbu jarayon geosiyosiy raqobat nomi bilan

atalmoqda. Mazkur sharoitda dunyo turli qarashlar, g‘oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g‘oya va mafkuralariga ham birdek katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a’zolari munosabatlarining o‘zaro integratsiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o‘tishi bilan, uning faoliyat yo‘nalishi “traektoriya” si ham o‘zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl Yaspersning “har bir davr o‘zicha bir tahdiddir” degan so‘zлari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek go‘yo. Inson oliv mavjudot ammo bu-uni xatolardan holi ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti- harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o‘zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish-insonlarning o‘zлari tomonidan turli institutlar, ya’ni, tom ma’nodagi “tartibga solish qurilmalari” tashkil etilgan.

Yer sayyorasidagi turfa o‘zgarishlarning asosiy sababi sifatida “globallashuv jarayoni” e’tirof etilmoqda. Globalizm mohiyati haqidagi ayrim ilmiy maqolalarda asrimizning boshlarida insoniyat oldida eng muhim va dolzarb savollar: “Biz qaysi tomonga ketyapmiz? Oldinda bizni nimalar kutmoqda? Insoniyat yashab qolish imkoniyatlariga egami”? “Qaerga ketayapsan?” degan savollar yuzaga kela boshlaganligini tez-tez takrorlash odat sirasiga kirmoqda. Bunday tushunchalar global chaqiriqlar sifatida insoniyatni ogohlantirib, global taraqqiyotning achchiq haqiqatlarini ham talqin etmoqda. Haqiqatan ham yuqorida ta’kidlanganidek, bunday chaqiriqlar lokal muammolarning tez muddatda global muammolarga aylanishining shubhasizligini bildiradi. Demak, globalizm fenomen sifatida ijobiy va salbiy jarayonlarning rivojlanib borishini bildirar ekan, biz o‘z tadqiqotimizda globallashuvning ijobiy jihatlari rivojiga ta’sir etuvchi omillar, uning salbiy jihatlarini minimallashtirish, buning uchun milliy qadriyat va an’anaviy axloq normalarini ko‘proq targ‘ib etish lozimligini ta’kidlash joizdir. Chunki, globallashuvning shiddatli ta’siridan chetda qolgan biron-bir hudud mavjud emas.

Yuqorida ta’kidlangan jihatlarga javob izlash, kuchayib borayotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish hamda ijtimoiy-madaniy jihatdan globallashayotgan dunyoda mustaqil mamlakatimizning o‘rni va roli qanday bo‘lishini nazariy jihatdan asoslash uchun birinchi galda globallashuvning

mohiyatini, mazmunini va uning nafaqat dunyodagi siyosiy jarayonlarga ta'sirini, balki insoniyat faoliyatining barcha sohalariga kirib borayotganligi, bunda pozitiv globallashuv va negativ globallashuvning o'zaro munosabati, ijobjiy jarayonlarning rivoji insoniyatni har qanday tahdidli holatlardan olib chiqishi, salbiy jihatlarning o'zligini namoyon etishi insoniyat kelajagi uchun real xavf ekanligini ilmiy tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Darhaqiqat, har qanday davlat u qudratli, sanoatlashgan, jahonda o'zining munosib o'rnini egallagan davlat bo'ladimi, endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan rivojlanayotgan mamlakat bo'ladimi, o'zining xavfsizligini ta'minlashga, mamlakat fuqarolarini mafkuraviy tahidlardan himoyalashga jiddiy e'tibor qaratishga mas'ul. Bu holat davlatni turli axborot-psixologik tahidlardan himoyalashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, qator G'arb mamlakatlarida «axborot urushi», «psixologik urush» kabi atamalar qo'llaniladi. O'zbekistonda «mafkuraviy tahdid» deb ataluvchi hodisa hamda «axborot urushi», «psixologik urush» kabi atamalar mohiyatan bir-biriga ancha yaqin turadi. Yetakchi xorijiy mamlakatlar o'zlarini xuddi ana shu axborot-psixologik urushlardan himoyalashga katta e'tibor qaratayotgan ekan, mustaqil O'zbekiston ham mafkuraviy tahidlarning mavjudligi sharoitida milliy xavfsizlik masalalarini yetakchi o'ringa qo'yayotganligi – mamlakatimiz fuqarolari manfaatlari, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, demak insoniyatning tinchligi yo'lida qilinayotgan ijtimoiy-ma'naviy, mafkuraviy-siyosiy faoliyatdir.

Bugun dunyoning barcha mintaqalarida globallashuv jarayoni ijtimoiy-madaniy hodisalarga o'zining turlicha ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday ta'sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Olamda yuz berayotgan bu kabi shiddatli jarayonlarning avj olishi sharoitida milliy ma'naviyatga qaratilgan tahdidlar tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sababi ma'naviyatning millat ongi, dunyoqarashi va mentalitetini tashkil etish bilan bog'liqdir. Ularni turli xil zamonaviy usul va vositalar yordamida o'zgartirish orqali millatni, mamlakatni va uning barcha boyliklarini qo'lga kiritish mumkin bo'ladi. Ma'naviyatning inqirozga

yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo‘lishiga olib keladi.

Ma’naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimidir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma’naviyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ma’naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan kishilargina belgilaydi. Ma’naviyatga e’tibor bermagan mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy bo‘hronlar sodir bo‘ladi. Jamiyat hayotidagi barcha bo‘hronlarning tomiri ham kishilarning ma’naviy kamoloti darajasi va holatiga borib taqaladi. Xalqi ma’naviy jihatdan qashshoq bo‘lgan va u oqilona boshqarilmagan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo‘lsa ham, hech qachon buyuk davlat bo‘la olmaydi. Bu fikrlar to‘g‘riliği insoniyat jamiyat taraqqiyotining har qadamida to‘la isbotlanadi. Shu sababli ham hozirgi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar, mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tib olgan yosh davlatlar jamiyat a’zolarining ma’naviy kamoloti masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqdalar.

O‘z taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini ma’naviy boy, sermazmun qilish, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishidan manfaatdordir. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, ma’naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma’naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol,

ma'suliyatli, ona-Vatanga sadoqatli bo'lib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun g'oyat muhimdir.

Inson hayoti tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari o'z oldiga oliyjanob vazifalarni qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy zaminni talab qiladi. Ma'naviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanadi.

Ma'naviy kamolot o'tmishdan qolgan meros va qadriyatlarni o'rganish, rivojlantirish, yangi bosqichga ko'tarish orqali amalga oshadi. Bir davrga, millatga, dinga, mafkuraga xos bo'lган ma'naviyat mezonlarini mutlaqlashtirish, ularga ko'rko'rona e'tiqod qilish ham shaxs va jamiyat kamoloti imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Ma'naviy kamolot asosida adolatga tayanish yotadi. Adolatli jamiyatgina komil insonni tarbiyalashga imkon yaratadi. Komil insonlar esa jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omildir. Bu avvalo va asosan komil inson darajasiga ko'tarilishi lozim bo'lган yoshlarga taalluqlidir.

Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarning sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlarning barchasi birgalashib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan yoshlar kamolotini ma'naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasisiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi.

Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog'liq bo'lган sub'ektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi. Talaba-yoshlarimizning kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisini bo'lib yetishishlarida, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissalarini qo'shishlarida, birinchi navbatda, ularning ma'naviy kamoloti, har jihatdan mukammal insonlar bo'lib shakllanishlari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi umumjahon yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, ayni chog‘da esa barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilab, jamiyatdagi ilmiy-ma’rifiy va ma’naviy salohiyatni takomillashtirmoqda.

O‘zbekistonda ham bu o‘zgarishlar jarayonlari oqimida o‘zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy yangilanish dasturlari yaratilib, ularda inson manfaatlari ustuvorlikka ega bo‘lib, bu jamiyatdagi barkamol avlod, qolaversa, har bir farzandimizning ma’naviy-axloqiy yetukligiga bog‘liq.

Kelajakda huquqiy demokratik davlat barpo etish va xalqimiz uchun munosib turmush tarzini yaratish oliy maqsadimizdir. Bu maqsadlarga erishishimiz xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizga, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bevosita bog‘liq. Jamiyatimizni isloh qilish, milliy qadriyatlarimiz va haqiqiy tariximizni tiklash, milliy g‘oyamizga ega bo‘lish jarayonida yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan bo‘lib, u tarbiyaviy ishlar majmuida asosiy o‘rinni egallaydi.

So‘nggi yillarda yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Buni amaldagi hukumat tomonidan mazkur sohaga qaratilgan e’tiborning ortib borayotgani, qabul qilinayotgan qaror va boshqa huquqiy hujjatlardan ko‘rish mumkin. Shunday hujjatlardan biri – bu qabul qilinishi kutilayotgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiysi va uni amalga oshirish milliy dasturidir. Davlatimiz rahbari Sh Mirziyoev ishlab chiqiladigan konsepsiyanadan kutiladigan natijalar haqida to‘xtalib o‘tgan.

- Bu, avvalo, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma’rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.
- O‘z navbatida, bu jamiyat a’zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.
- Ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi.
- Ijodkor ziylolarga doimiy e’tibor qaratish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.
- Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
- Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligin ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli ishlarni tizimli asosda olib boriladi.
- Mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g‘oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo‘ladi.
- Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

Yaratilajak konsepsiya avvalo, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma’rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a’zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Tarbiyada uzilishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, odamlarning yoshi, kasbi, bilimi darajasi va ma’naviy qiyofasiga qarab ma’rifiy ishlarning samarali uslublarini joriy qilish lozimligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shu sababli targ‘ibot-tashviqot ishlarini ham ommaviy, ham muayyan ijtimoiy guruqlar, ham individual tarzda olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma’naviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ommaviy axborot vositalari katta ta’sir kuchiga ega. Ochig‘i, ularning bu imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalana olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda so‘nggi paytlarda kuzatilayotgan turli g‘oyaviy va mafkuraviy xurujlarga aks ta’sir ko‘rsatishning aniq tizimi shu paytgacha izchil yo‘lga qo‘yilmaganligi nihoyatda tashvishli hol. Ayniqsa, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizga mutlaqo yot urfatlar singdirilayotgani hech bir qolipga sig‘maydi. Ularning ko‘pchilik shakllari nikoh to‘ylarida joriy qilina boshlaganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Televiedenie va radio kanallardagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish lozimga o‘xshaydi. Telekanallar soni oshishi bilan birga ulardagi ko‘rsatuvlarning ma’naviy-ma’rifiy darajasini yuksaltirish muammoligicha qolmoqda. Xorijiy televiedenielardan andoza olgan holda turli xil shoular, tanlovlар, chet el teleserillari va ularning syujetlari asosidagi milliy seriallar, kliplar namoyish etilishi, ko‘p hollarda oilaviy mojarolar, xudbinlik mavzulari atrofida o‘ralashib qolinayotgani endi ulg‘ayib kelayotgan yoshlarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayotgani shubhasiz. Albatta, bu o‘rinda davr va zamon, inson va uning dunyoqarashidagi sifat o‘zgarishlarini hisobga olgan holda o‘z faoliyatini isloh qilib, yangicha sharoitda ham salmoqli miqdordagi mushtariylarga ega davriy matbuot nashrlari borligini e’tirof etish joiz. Lekin ular ham sanoqli. Odamlarning matbuot nashrlariga qiziqishini qayta tiklash muhim muammolardan biriga aylandi. Menimcha, ushbu masala yechimi uchun jiddiy ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazilishi, ular yakunlari tahlil va xulosalar asosida tahririyatlar faoliyati isloh qilinishi, matbuot nashrlarining ijtimoiy tarmoqlardagi ommabopligrini oshirish bo‘yicha tizimli choralar belgilanishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekistonni va unda ma’rifatli jamiyatni yaratish hammamizga va har birimizga ko‘p jihatdan bog‘liq. Avvalo, barchamiz - bunyod etilayotgan yangi jamiyatimizga munosib bo‘lish uchun boy tarixiy madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan mustahkamlangan salohiyatga ega bo‘lishimiz lozim. Shu sababli

ham keng miqyosdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda huquqiy-tashkiliy shaklidan qat’i nazar, jamiyatimizning ushbu sohaga mutasaddi sub’ektlarini o‘zaro uzviy va muvofiqlashgan faoliyati tizimli yo‘lga qo‘yilishini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Xususan, globallashuv sharoitida axborot omilining yetakchi o‘ringa chiqayotganligi bois bunday sharoitda yoshlarimizni turli global tahdidlardan himoya qilish, ularni g‘oyaviy tahdidlarga qaram bo‘lmaydigan ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlarini ta’minalash har qachongidan ham muhim. Chunki globallashuv ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarga ham ega bo‘lib, bular birinchi navbatda mafkuraviy tahidlarning hech qanday chegaralarsiz kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Shu o‘rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e’tibor qaratish zarur: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”.

XXI asr axborot almashinuvining xilma-xilligi, g‘oyaviy-mafkuraviy poligonlarning keskinlashuvi, bir so‘z bilan aytganda, inson ongiga hukmronlik uchun kurash kechayotgan davr sifatida tarixda qolmoqda. Bu davrda milliy xavfsizlik, madaniyat va ma’naviyatni saqlab qolish o‘z kelajagini o‘ylaydigan har bir xalq uchun bosh omil darajasida qaralishi shart. Shunday ekan, global axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta’minalash muammosi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib, milliy taraqqiyotning bosh omiliga aylanmoqda. Global axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta’minalashdagi muhim jihat - inson omilidir. Chunki, keyingi vaqtarda axborot xurujlarining tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabat o‘zgarganidan, hujum qurolining yangi global turi kashf

qilinganidan darak beradi. Bu qurol – global axborotlashuvning tajovuzli maqsadlarda qo'llanishidir. Ayrim g'arazli kuchlarning sa'yi-harakatlari tufayli axborot insonni mahv etuvchi vositaga, ommaviy axborot vositalari esa noplak maqsadlarga erishish yo'lida tajovuz quroliga aylantirilmoqda. Bunday qurol yordamida olib boriladigan axborot urushlarida insonning ongi va qalbi nishonga olinib, tafakkurga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga, o'z xalqi, madaniyati, milliy davlatchiligi manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak, axborot tarqatuvchi shaxs, guruh, siyosiy kuch yoki davlatga insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Ustiga-ustak, axborot urushini boshlaganlar nafaqat millat turmush tarzini, balki uning yaxshilik va yomonlik, oq va qora, savob va gunoh, rost va yolg'on haqidagi tasavvurlarini ham o'zgartirishga urinadi. Qisqasi, Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda.

Global axborotlashuv jarayonida g'arbona turmush tarzini milliy voqelikka tizishtirish, dunyo xalqlarini o'ziga xos tarzda g'arblashtirishga intilish faol kuzatilmoqda. Tabiiyki, bunday amerikalashtirish, yoki g'arblashtirish xalqlarning o'ziga xosligi, milliy xususiyatlari, qadriyatları, madaniy an'anaları, xullas milliy mentalitetiga putur yetkazmoqda.

Bu borada hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qator me'yoriy hujjatlar masalaning o'ta jiddiy va dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, 2018 yilning 14 avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Yoshlarni ma'naviy-axloqiy vajismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarori ham mazkur masalaga davlat darajasidagi e'tiborning yaqqol ko'rinishidir. Mazkur qarorda, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bugungi kunda yetarli darajada samara bermayapti deya ta'kidlanadi hamda masalaning yechimi sifatida aniq dastur ishlab chiqilishi, ushbu dasturning boshida yoshlarni yot g'oyalar

ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning bugungi kundagi zarurligi asoslab berilgan.

Global axborotlashuv yoshlarimizning dunyoqarashi, tafakkuriga, milliy-madaniy qadriyatlarga ham turli xil yo'llar bilan ta'sir ko'rsatishga intilayotganligi ijobiy mohiyat kasb etishi bilan birga, salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarish ehtimoli namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonning bunday ta'sirini yoshlar hayotidagi pozitiv o'zgarishlarga mos "me'yor" darajasi bilan taqqoslab olib borish, aksincha, uning buzilishi holatini farqlash va hisobga olish muhim. Ayniqsa, axborot ko'lami tez sur'atlar bilan ortib, mustaqillik tufayli yoshlarimizning yangi-yangi axborot maydonlariga kirish imkoniyatiga ega bo'layotgan bir davrda, muayyan millat yoki xalqqa xos bo'lgan fikrlar, qarashlar axborot tizimi orqali butun dunyoga tarqatilmoqda.

Axborotning ta'sir kuchini bugun yer kurrasining barcha mintaqasida sezish mumkin. Buni ayniqsa XXI asrning boshlarida juda ko'p mamlakatlar o'z tajribalaridan o'tkazib ko'rishdi. Axborotning salbiy ta'siri doirasiga tushib qolgan ayrim mamlakatlar esa o'z boshlaridan og'ir jarayonlarni o'tkazishdi. Asrimizning ilk yillarida rivojlanayotgan ayrim MDH mamlakatlari (Qirg'iziston, Gruziya, Ukraina) yoki Shimoliy Afrika mamlakatlari (Misr, Liviya, Tunis) kabi davlatlar tarixda "rangli inqiloblar" nomi bilan tarixda qolayotgan "aksiya"ning qurbaniga aylanishganini butun dunyo ko'rdi. Ushbu davlatlardagi sodir bo'lgan jarayonlarga baho berayotgan ekspertlar hokimiyat almashuvi ro'y berdi deyishadimi, yoki hukumat tepasida noqonuniy rahbar o'rniga legitim hukumat keldi deyishadimi farqi yo'q. Eng asosiysi mazkur hodisalar oqibatida mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa jihatlardan katta zarar ko'rgani shubhasiz. Yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarda amalga oshirilgan "rangli inqiloblar"ning katta ko'lamda avj olib ketishiga tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir asosiy sabab sifatida e'tirof etiladi. Bu ta'sirning asosiy kuchi yoshlarga qaratilganligi va axborot omiliga tayanishini e'tiborga olsak, undan himoyalanishning asosiy sharti sifatida zararli axborot muhitidan himoyalanish zarurligi ayon bo'ladi. Shubhasiz yaqin o'tmishda jahoda

sodir bo‘lgan voqealarni kuzatib, u “arab bahori” bo‘ladimi, turli rang nomlari bilan ataladigan “rangli inqiloblar” bo‘ladimi hammasining boshlanishi tashqaridan tiqishtirilgan axborot ta’sirida amalga oshirilgani ma’lum bo‘lmoqda. Bu esa o‘zining yorqin kelajagini ta’minalashga intilayotgan jamiyatlardan yanada hushyorroq bo‘lishni taqozo etadi.

Demak, dunyo miqyosida axborot xavfsizligi omili yetakchi mavqe egallab, milliy taraqqiyotning kelajagi ana shu omilning naqadar ta’minalanganligi darajasi bilan o‘lchanar ekan, davlat hokimiyati organlari ushbu masala yechimida muhim o‘rin tutishlari lozim.

Uchinchi ming yillik boshiga kelib jahon hamjamiyati taraqqiyoti axborotlashuvning faol rivojlanayotgan jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘sib bormoqda. Bugungi fan-texnika taraqqiyotining hosilasi sifatida axborot ko‘lamining kengayib borishi globallashuvning tarkibiy qismi sifatida globallashayotgan dunyoda tafakkur globallashuvini belgilab bermoqda. Ushbu jihat axborot omili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tabiiy ravishda ma’lumot almashinuvning globallashuvini ta’minalamoqda.

Ma’lumot almashinuv, ayrboshlash kabi axborot sohasidagi ustuvorlikni ta’minalaydigan bu omillar jamiyat a’zolari ongiga kuchli ta’sir o‘tkazish va uni boshqara olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, jahon media-xoldinglari egalari voqea-hodisalarini yoritishda muayyan guruh, siyosiy tashkilot yoki muayyan davlat mafaatlarini ta’minalash maqsadida urg‘ularni o‘zgartirish yo‘li bilan ham tomoshabin yoki eshituvchida ro‘y bergen voqelikka nisbatan o‘zлari istagan munosabatni shakllantirish qudratiga ega. Yoshlar ma’naviyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan g‘arb turmush tarzini targ‘ib etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ayrim tashkilot, ko‘rsatuv va eshittirishlar axborot tizimi vositasida kishilar ongiga istagan fikrlar, qadriyatlar, ko‘rsatmalarni singdirishga intiladi. Internet esa virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko‘rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Global axborotlashuv bois bugungi voqelikning shiddatli tus olayotganligi tabiiy ravishda har qanday davlat oldida axborot

xavfsizligini ta'minlash masalasini qo'ymoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dunyo miqyosida global jarayonlarning rivojlanib borayotganligi sharoitida o'zligi, milliyligi, davlatchilik an'analarini saqlab, rivojlantirib borishdan manfaatdor taraqqiyparvar mamlakatlar orasida qizg'in muhokama qilinayotgani ham beziz emas. Bunday muhokamalarda axborotning yoshlar ma'naviy taraqqiyotidagi ijobiy rolini ta'kidlash bilan birga uning jamiyat axloqiy barkamolligiga salbiy ta'siri kuzatilayotganligi ham ta'kidlanmoqda. Insoniyat uchun bunday tahdidli holatlar kuchayayotganligi sharoitda ziyorolar bilan birga qatorda davlat hokimiyati organlari oldida yoshlar ongi va qalbida milliy g'oyaga sodiqlik hislarini rivojlantirish talab etilib, ushbu jihatlar mustaqillikni mustahkamlash, milliy o'zlikni himoya qilish, madaniy o'ziga xoslikni asrash va axborot xurujlaridan himoyalanish vositasi sifatida ham muhim.

Global axborot makonida barqarorlikka erishish, yoshlar ma'naviyatini oshirish hamda turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan xoli bo'lgan "tahdidbardosh jamiyat"ni barpo etish jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyatga ega:

- milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan faoliyat rag'batlantirilib, xavfsizlikka tahdid sifatida namoyon bo'luvchi jihatlarning oldini olish;
- milliy manfaatlar yetakchi o'ringa chiqib, jamiyat a'zolari faoliyatini umumiy maqsad sari yo'naltirishning samarali yo'l va usullarini targ'ib etish;
- milliy birlik va fuqarolar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash maqsadida davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning madaniyati, urf-odat va an'analarining targ'ib etilishiga imkoniyat yaratish;
- mavjud milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlab, o'zaro do'stlik va tinchlik-totuvlikni targ'ib etish;
- mintaqaviy mojarolarning oldini olishga qaratilgan faoliyatlarni rag'batlantirib, mavjud muammolar yechimini targ'ib etish;
- milliy qadriyatlarga tayangan siyosat asosida milliylik, mintaqaviylik hamda umuminsoniylikning o'zaro mushtarak jihatlarini targ'ib etish;

- jamiyat a'zolari tafakkurida mavjud axborot xurujlariga qarshi kuchli immunitetni shakllantirib rivojlantirish;
- tahdid solishga intilayotgan ommaviy madaniyatga qarshi jamiyat axloqini rivojlantirishga e'tibor qaratish;
- milliy modellarga asoslangan demokratik davlat va qadriyatlarning ustuvorligiga tayangan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash.

Jamiyat a'zolarida demokratik tafakkurni rivojlantirish, milliy qadriyatlarga asoslangan targ'ibotni rag'batlantirish «sivilizatsiyaning uchinchi to'lqini» sharoitida millat sifatida qolishning asosiy yo'llaridan biridir.

Qadriyatga umumiy ta'rif beradigan bo'lsak, qadriyat-bu muayyan bir kishilar guruhi (oila, jamoa, jamiyat) orasida alohida e'tiborga sazovor bo'lgan va o'sha guruh a'zolari tomonidan e'zozlanib qadrlanib keluvchi ma'naviyat turi. Demak, qadriyat – bu oila, jamoa yoki jamiyatda alohida ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat turidir.

Qadriyatlar oilaviy, jamoa, milliy va umuminsoniy bo'lish mumkin. Bu qadriyatlar orasida o'zaro uzviylik bo'lsa ham ular bir - biridan farq qiladi. Undan tashqari ular nisbiydir. Masalan, bir oila uchun ma'lum bir ma'naviyat turi, chunonchi tug'ilgan kunni nishonlash juda e'tiborli narsa. Bu o'sha oila jamoasining qadriyati. Boshqa oila bu tantanani bilsa ham uni o'tkazsa ham e'tiborga sazovor tantana, deb bilmaydi.

Ular uchun u qadriyat emas har bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida, yo o'quv muassasasida ma'lum bir ijtimoiy hodisa (to'ylarni o'tkazish, jamoa bo'lib saylga chiqish va hakazo) urf bo'lgan. Ular o'sha an'analarni asrab –avaylaydilar. Ular uchun u qadrli. U o'sha jamoaning qadriyati hisoblanadi. Ma'lum bir xalqning qandaydir rasm-rusumni bajarishi, an'ana bo'lib qolgan. Uni o'sha halq intiqib kutadi, binobarin u uning uchun qadrli. Bu esa milliy qadriyatdir.

Bundan tashqari, irqidan, millatidan, jinsi, egallab turgan lavozimi, kasb-koridan qat'iy nazar, butun kishilik jamiyati uchun o'ta qadrli narsa va hodisalar borki, ular umuminsoniy qadriyatlar deyiladi.

Bularga yashash xohishi, bilim olish, tinchlik xotirjamlik ba’zi bayramlar va boshqa ijtimoiy hodisalar misol bo‘la oladi.

Endi nima uchun qadriyat odamlar uchun qadrli degan savolga kelsak, qadriyat shuning uchun ham odamlar orasida alohida ahamiyatga egaki u insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlari bilan barobar ruhiy ehtiyojlarini ham qondiradi. Masalan, hamma uchun qadriyat hisoblanadigan bironta bayramni jumladan, yangi yilni olaylik. Bu bayramda kishi xohlasa-xohlamasa o‘ziga-o‘zi yashab o‘tgan yilning hisobotini beradi va keyingi yilga , birovlarga aytmaydigan-dildagi rejalarini tuzadi. Odamlar ko‘p orzu va umidlarini yangi yil bilan bog‘laydilar. Bu ruh bilan uning ozuqasi bilan bog‘liqnarsadir. Yoki bilim olish jarayonini olylik. Bu jarayon kishi ma’naviyatining takomili, ruhini dam olishi va kishi ko‘nglining taskini bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham u inson zotiga mashhur, hamma uchun qadrli.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari, uning ma’naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariga mos kelmasa bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy. Shuning uchun ham Birinchi Prezident o‘z mamlakat istiqboli haqda fikr yuritar ekan «Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyathariga sodiqligidadir. Xalqimizadolat, tenglik, ahil qo‘snnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi, ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdir» degan edi. Bu fikrdan anglaniladiki birinchi Prezident mamlakat kuch-qudratini xalqning ma’naviy kamolida ko‘radi.

Shu damda bir nafasga tariximizga nazar soladigan bo‘lsak 80-yillar o‘rtalarida o‘zbek xalqi azaldan sevib ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar va bayramlar cheklab qo‘yildi, ba’zilarning o‘rniga boshqa bayram va marosimlar to‘qib chiqarildi. Natijada avvalari nishonlanadigan «Xosil bayrami», «Qovun sayli», «Gul

sayli» va boshqa xalq bayramlari unitilib qo‘yildi. «Navro‘z» bayrami esa avval ta’qiqlandi, so‘ng sun’iy tarzda «Navbahor» bayramiga aylantirildi. O‘ylanmay qilingan bo‘nojo‘ya harakatlar xalq dilini qattiq og‘ritdi.

Ana shunday bir paytda kishilarning ma’naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o‘zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an’analari va bayramlarini tiklashga katta e’tibor berildi. Bu o‘rinda xalqimizning azaliy qadriyati va sevimli bayrami hisoblangan «Navro‘z» bayramining xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqeа bo‘ldi.

1991 yil 21 martdan «Navro‘z» bayrami birinchi Prezident farmoniga ko‘ra umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi.

Har bir jamoada, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda qadimiylar an’analarga hurmat, mehnatga muxabbat hissini tarbiyalaydi ma’naviy hayotdagi yana bir talay, aniqrog‘i diniy bayramlar, hayit kunlarini respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlash uchun keng yo‘l ochilgani ham ma’naviy poklanishning muhim ko‘rinishidir.

Birinchi Prezidentimiz «Din odam zotini hech qachon yomon yo‘lga boshlamaydi. Bu dunyoning o‘tkinchi ekanini ta’kidlab, odam bolasini xushyor bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi degan edilar. Yana:

Hamma ahil, hamma pokiza bo‘lib yashasin. Kimning fazitlati qancha, kimning gunohi qancha ekanini Yaratganning o‘zi ajrim qilib beradi.

Musulmon hayotidagi qutlug‘ sanalar-Qurban va Ramazon hayitlarining birinchi kunlari doimiy sur’atda bayram qilish va dam olishi xalqni suyuntirdi.

Islom olamining zabardast allomalari-vatandoshlarimiz Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Maxmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi va Xo‘ja Axrор Valiyning 600 yilligi, Imom al Buxoriyning hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligi keng ko‘lamda nishonlanishi yurtimizda iymon, diny diyonat qaytadan yuksalganiga yorqin dalil bo‘ldi.

Shuningdek har bir viloyatda bittadan diniy madrasa, Toshkentda Toshkent Islom universiteti, Xalqaro islom tadqiqotlar markazi, Eshon Boboxon nomidagi

ayollar madrasasi, Abdulqosim va Ko‘kaldosh madrasalari ishlab turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1995 yil 19 maydagi qaroriga binoan Toshkent shahrida islom ta’limoti va falsafasini, o‘zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish maqsadida Xalqaro islom tadqimqot markazi tashkil etildi.

Davlat rahbari shunday degan edilar: ...din xalq ma’naviyatining, ma’rifatining yuksalishiga katta hissa qo‘sib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so‘z yuritganda, rejalar tuzganda, dinni eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e’tiborda tutishimiz kerak.

130 ga yaqin millat va elat istiqomat qilayotgan aholining ruhiy va ma’naviy ehtiyojlari rang barang bo‘lgan O‘zbekistonday mamlakatda tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, insonni ulug‘lash, davlat siyosatining bosh yo‘nalishidir. 1992 yilning 6 noyabr kuni Termezda o‘tkazilgan «Alpomish» dostonin yaratilganligining 1000 yilligini Yunesko ijroiya qo‘mitasining maxsus qaroriga binoan xalqaro miqyosda keng nishonlanishi milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar tiklanishining yana bir namunasidir.

Milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi xalqda zo‘r quvvat paydo qilib, bu ham millatning ijodiy imkoniyatlarni namoyish etishga asos bo‘ldi. Bu juda muhim omil. Millatning xoslanishi (individuallashish) jarayonida paydo bo‘lgan salohiyat xalqni jahoniy jarayonlar sari yetaklaydi. Davlat rahbari so‘zlari bilan aytganda «Bizning an'anaviy qadriyatlаримизни hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo‘shilishining garovidir».

Milliy xoslanish alal oqbatda yer yuzidagi barcha xalqlarni jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zolariga aylantiradi, har bir millatning o‘ziga xos fazilatlari kamol topishi uchun imkon yaratadi.. Hozir BMTga jahoning 193 davlati a’zo bo‘lib kirgan ekan, ularning har biri takrorlanmas, bir-biriga o‘xshamagan milliy jihatlar va qadriyatlarga ega. Umuminsoniy madaniyat, sivilizatsiya, yaxlit hodisa bo‘lgani kabi dunyo ham yagona jahondagi barcha sivilizatsiya-yagona insoniy ma’naviy boylikning uzviy qismlari. Shunday ekan milliy madaniyatlarning bariya

gona umuminsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Bu qadriyatlar markazida inson, uning erki, qadri, ma’naviy go‘zalligi, benazir aqli turadi. Bu qadriyatlarning asosiy ustunlari-demokratiya, insonparvarlik, ma’rifat, huquq, shaxs erkinligi, diniy murosa, adolat, ahloqiy me’yorlar inson va uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiy va siyosiy aloqalarining o‘sib borishi umumiylashish jarayonini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Biroq aynan umuminsoniy qadriyatlar bashariyatni ma’naviy- ruhiy birlikka chorlaydi, hamkorlikka, madaniy va moddiy ravnaqqa undaydi, millatni umumjahon jarayoniga aralashishga da’vat etadi. Shu tariqa davlat va xalqni o‘zining tor qobig‘iga, milliy mahdudlik va mahalliy tafakkur doirasiga o‘ralib qolishidan asraydi.

Umuminsoniy qadriyatlar keng ko‘lamli iqtisodiy taraqqiyot uchun juda kerak.

Zamonaviy texnologiya, molekular biologiya, yadro fizikasi, elektronika umuminsoniy tafakkur hosilasi sifatida rivojlanadi va aynan umuminsoniy kuchlarni birlashtirish asosidagi yangicha fikrning mahsuli hisoblanadi. Bugun xo‘jalik yuritish va kommunikatsiyaning mukammal tizimini shakllantirish uchun horijiy tillarni, kompyuterni bilish xalqaro «Internet» aloqa tizimidan boxabar bo‘lishi talab etiladi. Biroq bu tarzda umumiylashishga ko‘r-ko‘rona sig‘inish ham yaramaydi. Zero, hozirgi zamonda umumiylashish qobig‘i ostida millatga yot unsurlar kirib kelishi ham ko‘zga tashlanadi. Jahon axborot oqimi hozir ham shu qadar kuchliki keng xalq ommasi uni har doim tushunib, qabul qilish imkoniyatiga ega emas. Reklama, kino, televideniya soxta san’at asarlari orqali ko‘p hollarda kishilar ongiga zimdan siyosiy g‘oyalar singdiriliyapti. Shuning uchun umumiylashishning bir, ikki davlat rahnamoligi ostida yuz berishiga sira yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki unda bu davlatlar o‘z ma’naviy qadriyatlarni boshqa xalqlarga, ularning milliy ma’naviyati va o‘ziga xosligiga putur yetkazgan holda tifqishtiradi. Umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va uni hayotga tadbiq etish dialog tarzida, ya’ni ikki taraflama, tenglik asosida bo‘lishi kerak.

Madaniyat, san’at va adabiyot sohasidagi har qanday ijod millat dahosi bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Biroq har qanday milliylik, o‘zida umuminsoniy qadriyatlarni

aks ettirsagina ahamiyat kasb etadi va shu jihatiga ko‘ra jahonda tan olinadi. Deylik buyuk ilmiy texnikaviy kashfiyotlar milliy bo‘lsayu-bashariyat boyligiga aylanmasa utar yetarli darajada e’tibor topmaydi va jahon bo‘ylab qo‘llanmaydi.

Mavzuni tayyorlaganlar:

Islom Karimov nomidagi texnika universiteti professori Xalikova Raxbar Ergashevna va Toshkent davlat transport universiteti professori, siyosiy fanlar doktori, Rajabov Habibullo Ibodullaevich

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviyat va ma’rifatga oid qarashlari qaysi asarlarda va nutqlarda keng yoritilgan?
2. O‘zbek jadidchiligining ma’naviy yuksalishdagi roli qanday ahamiyat kasb etadi va bu mavzu Prezident tomonidan qanday talqin etilgan?
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha 2021 yil 26 martdagি qarorda qaysi chora-tadbirlar belgilangan?
4. Mamlakatimizda yoshlar huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qanday muhim qonunlar va dasturlar amalga oshirilgan?
5. “O‘zbekiston 2030” strategiyasining yoshlar va sport yo‘nalishidagi asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoxda?
7. Mutafakkirlarimizning ma’naviy merosi yoshlar tarbiyasida qanday rol o‘ynaydi?
8. “Yosh kitobxon” tanlovi va uning yoshlar ma’naviy olamini boyitishdagi ahamiyati haqida nima deya olasiz?
9. Televidenie va radio kanallaridagi badiiy kengashlar faoliyati qanday masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi?
10. Global axborotlashuv jarayonining salbiy ta’sirlari haqida qanday xavf-xatarlar mavjud va ular yoshlarimizga qanday ta’sir ko’rsatishi mumkin?

11.“Rangli inqiloblar”ni amalga oshirishda axborot omilining rolini qanday baholaysiz va bundan himoyalanish uchun qanday chora-tadbirlar kerak?

1-AMALIY MASHG‘ULOT

HUQUQIY DAVLAT VA QONUN USTUVORLIGI. SIYOSIY VA HUQUQIY ISLOHOTLAR. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ZAMONAVIY KONSTITUTSIONALIZMI.

1.Qonun ustuvorligini ta’minlash. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi.

“**Konstitutsiya**” tushunchasi lotincha so‘z bo‘lib, **tartib**, **qoida**, **tuzish** degan ma’nolarni anglatadi. Konstitutsiya iborasi 17 asrda paydo bo‘lgan bo‘lsada uning mazmunini ifodalovchi voqelik davlat paydo bo‘lganidan mavjud. Ilmiy publitsistik adabiyotlarda konstitutsiyani paydo bo‘lishi AQSH ning 1778 yilda qabul qilingan konstitutsiyasi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Ammo tarixiy haqiqat o‘rnida ta’kidlash joizki, dunyodagi mavjud konstitutsiyalar tarixi AQSH ning konstitutsiyasi bilan bog‘lash, tarixiy voqelikka mos kelmaydi. Birinchidan, Agar konstitutsiya jamiyatda o‘rnatilgan tartib, qoidalar majmuasini ifodalovchi tushuncha ekan, uni davlat tarixidan ajratib bo‘lmaydi. Konstitutsiya davlat paydo bo‘lgandan boshlab paydo bo‘lgan. Masalan, Rim huquqi, Dao, Logs, Avesto, Xamurappi qonunlari, Siyosatnoma, Temur tuzuklari, Shaybonynoma, Boburnoma, Hidoya va xokazolar o‘z o‘rnida konstitutsiya ya’ni asosiy qonun vazifasini bajargan. Demak, davlat paydo bo‘lishi bilan jamiyatda yashash tartib va qoidasini belgilovchi bosh qonunlar mavjud bo‘lgan. Konstitutsiyani paydo bo‘lishi davlatlar paydo bo‘lishidan boshlanadi.

Ikkinchidan, AQSH konstitutsiyasi qabul qilinishidan oldin Buyuk Britaniyada 1653 yilda “boshqaruv quroli” deb atalmish konstitutsiya qabul qilingan. Ana shu ikkita tarixiy haqiqat ilmiy publitsistik adabiyotlarda tarixiy haqiqat sifatida umume’tirof etilgan fikrni inkor etadi. Demak, dunyo konstitutsiyalar tarixi ikki yuz yilni emas, bir necha ming yillikni (5-3) tashkil etadi.

Mamlakat mustaqilligining asosiy shartlaridan biri uning bosh qonuni bo‘lgan Konstitutsiyasingning yaratilishi va amaliyatga joriy etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki davridan boshlab o‘zining asosiy qonunini ishlab chiqish va qabul qilishga strategik vazifa sifatida e’tibor qaratdi. Aslini olganda Konstitutsiya loyihasini yaratish «Mustaqillik deklaratsiyasi»ni qabul qilishdan keyinoq boshlangan edi. Chunki deklaratsiyada, «Ushbu deklaratsiya O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asosdir» deb qayd qilingan edi va shu sessiyada mamlakatning birinchi prezidenti I.Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya tuzildi. Bu tarkib Oliy Kengashning 10 sessiyasida qisman o‘zgartirildi. Komissiyaga sharaflı shu bilan birga mas’uliyatlı vazifa yuklandi. Sharafliligi shunda ediki bu birinchi bor mustaqil davlat Konstitutsiyasi loyihasi tayyorlayotgan edi. Mas’uliyati ham shundan kelib chiqib, birinchi marta hech kimdan ko‘chirmasdan, hech kimning aralashuvisz, barcha demokratik talablarga, jahon andozalariga mos keluvchi hujjat O‘zbekiston xalqi vakillari tomonidan ishlab chiqilishi kerak edi. Sir emas, avvalgi O‘zbekiston Konstitutsiyalari, Ittifoqda yaratilgan Konstitutsiyalarni aynan takrorlash asosida tayyorlanar edi. Endi mustaqil Konstitutsiya yaratish o‘z zimmamizga tushdi. Bu yerda shunday mas’uliyatlı vazifani bajara olamizmi yoki yo‘qmi degan savol paydo bo‘lib bu g‘ururimiz, or-nomusimizga ham bog‘liq edi.

Komissiya shu g‘oyat muhim vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun, uni to‘g‘ri yo‘naltirish, oldiga to‘g‘ri vazifalarni qo‘yish hal qiluvchi masala edi. Bu masalani Komissiya raisi, moxirona hal qildi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya a’zolarini birinchi yig‘ilishida 32 kishidan iborat ishchi guruhi tashkil etildi. Konstitutsiyada nazarda tutilayotgan turli bo‘limlarni tayyorlash uchun 6 ta kichik guruhlar tashkil etildi. Ularning tarkibiga 50 nafar mutaxassislar jalb etildi.

Shu yerda bir narsani aytib o‘tish kerakki, loyihani tayyorlashda oddiy yo‘ldan bormoqchi, yana boshqa davlatlarga xos xolatlarni loyihaga kiritmoqchi, boshqa davlatlardan aynan andoza olmoqchi bo‘lganlar ham bo‘ldi. Komissiya raisiga shu vaqtida «Argumenti i fakti» gazetasida e’lon qilingan Rossiya Konstitutsiyasi loyihasini O‘zbekiston Konstitutsiya loyihasi sifatida taqdim etish

xollari ham bo‘ldi. Lekin bunday ko‘zbo‘yamachilik, mas’uliyatsizlikni sezgan komissiya raisi, taqdim qilingan loyihani mutlaqo rad etib, O‘zbekistonga qanday Konstitutsiya kerakligini «yirik huquqshunos»ga ko‘rsatib berdi.

Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasini qabul qilish vazifasi o‘ta jiddiy masala bo‘lib, mamlakatning taraqqiyoti uchun, demokratik islohotlarni amalga oshirish, o‘zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borish uchun ham zarur edi. Konstitutsiyani qabul qilish borasida ham turli-xil nuqtai nazar tarafdlari ham oz emas edi. Xususan, ular iqtisodiyot nochor ahvolga tushib qolgan va islohotlar mushkul kechayotgan bir sharoitda Konstitutsiya, uning Konsepsiysi masalasini kun tartibiga qo‘yish bevaqt bo‘ladi va Konstitutsiya bilan bog‘liq bu baxs-janjallarning barchasi siyosiy o‘yindan, siyosiy ehtiroslar kurashidan boshqa narsa emas, hozirgi paytda bor kuch-g‘ayratni, zarur ishlarni bajarishga muhim muammolari asta-sekin hal qilishga qaratish kerak, deb Konstitutsiyani qabul qilishni “ikkinchi darajali”, “zarur bo‘lman bir hujjat” sifatida ko‘rish kayfiyatini uyg‘otishga urunishlar bo‘ldi. Bu o‘ta qaltis vaziyatda keng jamoatchilikning e’tiborini chalg‘itishdan boshqa narsa emas edi. Bu bilan ikkinchi bir nuqtai nazar ham yashirish ekanligini ta’kidlash lozim. U “eski, sovet davri Konstitutsiyasi” bilan yashashga bo‘lgan moyillik, uni zimdan saqlab qolishga bo‘lgan urunishlardan beri bo‘lganligini ham unutmaslik kerak. Yoki faqat tanqidga e’tiborni qaratish, bo‘lgan – bo‘lman holda “inkor etish” yo‘lini tutishda yaqqol ko‘rish mumkin bo‘lganligi bilan bog‘liq.

Har qanday mamlakatda Konstitutsiya xalq ongi, tafakkuri, ijodi maxsulidir. Uning ijodkori xalq. Uning loyihasini ham xalq vakillari ishlab chiqadi va qabul qiladi. Lekin ana shu xalq ijodkorligidan, uning ongidan, ruxiyatidan, qarashlaridan to‘g‘ri foydlanish hamma vaqt ham amalga oshavermaydi. Loyihani umumxalq muhokamasi davridagi vaziyat va muhokama jarayoni O‘zbekiston Konstitutsiyasini mukammal hujjat sifatida qabul qilishiga bevosita ta’sir qilgan desak xato bo‘lmaydi.

Birinchidan, aytish kerakki, O‘zbekiston Konstitutsiyasi loyihasi, boshqa mamlakatlardagi muhokamadan mutloqa farq qilib ikki bosqichda o‘tkazildi. Buni O‘zbekistonning jahon Konstitutsiyaviy qonunchiligi yaratilishi tajribasiga qo‘sghan hissasi ham desa bo‘ladi.

Komissiya qarori bilan loyiha 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi. Muhokama haqiqiy demokratik asosida o'tdi. Ommaviy axborot vositalarida muhokama uchun ko'plab vaqt va sahifalar ajratildi.

Konstitutsiya loyihasi muhokamasida ko'plab xolisona, har taraflama hujjatni takomillashtirishga qaratilgan asosli takliflar bilan birga, masalani chuqur mohiyatiga yetmasdan qilingan yuzaki, asossiz takliflar, xatto loyihadagi norma va qoidalarni faqat tanqid qilishdangina iborat chiqishlar ham bo'lgan. Masalan, bir fan arbobi Konstitutsiya loyihasidagi barcha tillarda e'tirof etilgan «prinsip», «suverenitet», «Ratifikatsiya va denonsatsiya» so'zlarini loyihadan chiqarib, o'rniga o'zbekcha atamalarni ishlatilishni taklif etgan.

Muhokama natijasida tushgan ko'plab mulohazalar etiborga olinib, loyihaning tuzatilgan va takomillashgan ko'rinishi 1992 yil 21 noyabrda yana muhokama uchun e'lon qilindi. E'lon qilingan loyihada ko'plab fikrlar, takliflar e'tiborga olinganligini ko'rgan, O'zbekiston aholisida o'z kuchiga, komissiyaga ishonch kuchaydi va loyihani muhokamasida yanada faolroq, qizg'inroq ishtirok etdi.

Komissiya muhokama natijasini e'tiborga olib, loyihani yanada takomillashtirdi va 1992 yil 8 dekabrda u Oliy Kengash deputatlari tomonidan qizg'in muhokama qilingach, qabul qilindi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning mukammal bo'lishini sababi, loyihani tayyorlashda komissiya raisi tomonidan aniq va to'g'ri vazifalarni qo'ya bilish, tushgan taklif va mulohazalardan xalqning istaklarini aniq bilib olish va muhokamada barchaga teng imkoniyatlar yaratib berilganlik bo'ldi desak xato bo'lmaydi.

Umuman insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, millatni, davlatni yagona qonun, tartib-qoidalar asosida boshqarishda uni tashkil etadigan tuzilmalar, tashkilotlar bo'lmasa, u holda bunday davlatni umri uzoqqa bormaydi, nari borsa jamoat tashkilotga aylanib qoladi, yoki boshqa bir kattaroq davlatning qaramiga, ayrim jinoiy guruhlarning qo'g'irchog'iga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlarga e'tibor bersak, avvalom bor faqat davlat idoralariga va ularni qonunlarga so'zsiz itoat etishiga, yoki qonun nomidan ish ko'rayotgan davlat organlariga, xizmatchilariga duch kelamiz. Davlat idoralarining ayniqsa qurolli

kuchlarning, huquq-tartibot organlarning xavfsizlik idoralarining qanchalik mavjud bo‘lishi va ular faoliyat yuritishi uchun zarur mablag‘lar, resurslar, kadrlar bilan ta’milanishi, ushbu idoralarni boshqarishning oqilona yo‘lga qo‘yilishi har qanday millatning kelajagini belgilab beradi.

Hayot bir joyda to‘xtab turmaydi. Bugungi globallashib borayotgan dunyo insoniyatga yangi chaqiriqlar, tahdidlar va o‘zgarishlarni taqdim etmoqda. Bunday vaziyatda davr ruhiga mos rivojlanish, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo‘silish, turli tahdidlar ortib borishi sharoitida milliy xususiyatlarni saqlab qolgan holda rivojlanishni ta’minalash kabi masalalardan kelib chiqib qonunchilikni zamon talablariga integratsiya qilish zarurati ortishi tayin. Shu jihatdan, asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyani modernizatsiya qilish ehtiyoji tug‘ildi. Ehtiyojdan kelib chiqib, yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.**

“Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi xalq bo‘lishi kerak”, degan g‘oya loyihami ishlab chiqishda asosiy mezon vazifasini o‘tadi. Natijada esa aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushdi va muhimi, ularning aksariyati qonun loyihasidan o‘rin egalladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyili mustahkamlanganligini alohida aytish zarur. Bosh qomusda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobarga ko‘paytirilib, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minalash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta’minalash hisobga olinishi, kafolatlangan tibbiy yordam, davlatning ta’limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilishi va o‘qituvchi maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Ma’lumki, davlatlarning doimiy do‘stlikka asoslangan munosabatini rivojlantirish hamda jahon va mintaqaga darajasida tinchlikni ta’minalash xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalaridan sanaladi. Shu ma’noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz 18-moddasida O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro

tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi qat’iy belgilanganligini ta’kidlash zarur.

Qayd etish joizki, tinchliksevar siyosat deganda, davlatlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari va ularning rivojlanish darajasidan qat’i nazar, erkinlik, tenglik, adolat va insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish, davlatlar va xalqlar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlash tushuniladi.

Bosh qonunimizning 21-moddasida “Hech kimga uning roziligesiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas”, degan normaning mustahkamlangani ham o‘ta muhim ahamiyatga ega. Mazkur norma jismoniy va yuridik shaxslar faqat Konstitutsiya va qonunchilik hujjalarda majburiy etib belgilanganidan tashqari, boshqa biror-bir majburiyatni bajarishga burchli emasligini, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari ham ularga qo‘srimcha majburiyatlarni yuklash vakolatiga ega emasligini anglatadi. Bu esa amaliyotda ayrim holatlarda uchrab turadigan biror-bir qonunda ko‘rsatilmagan majburiyatni yoki qandaydir vazifani (masalan, jamoat ishlariga jalb qilish, ish vaqtidan tashqari yoki dam olish kunlari ishlash) tashkilot rahbari tomonidan xodimga yuklash kabi salbiy holatlarga qat’iyan chek qo‘yadi.

Ta’kidlash lozimki, dunyodagi barcha o‘zbeklar o‘zaro madaniy aloqalarni saqlab qolish maqsadida chet elda taxminan 500 dan ortiq o‘zbek milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Shundan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 23-moddasida “Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”, degan norma belgilandi. Bu chet elda yashayotgan, ishlayotgan, ta’lim olayotgan yurtdoshlarimizning O‘zbekiston bilan doimiy aloqada bo‘lishiga, tili, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini saqlab qolish hamda rivojlantirishga, o‘zlarining tarixiy Vatani - O‘zbekiston obro‘sini yanada oshirishga o‘z hissasini qo‘sishlariga xizmat qiladi.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi bo‘lib, u mamlakatda o‘lim jazosini belgilash, tayinlash va ijro qilishni inkor etadi. O‘lim

jazosi eng og‘ir jinoiy jazo bo‘lib, u qo‘llaniladigan deyarli barcha davlatlarda o‘ta og‘ir, inson hayotiga qasd qiladigan jinoyatlar uchungina ko‘zda tutilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan norma mustahkamlangan. Shu o‘rinda aytish kerak, 1994 yili qabul qilingan Jinoyat kodeksidagi 33 ta modda bo‘yicha o‘lim jazosi tayinlanishi mumkin edi. Keyinchalik jinoiy jazolar liberallashtirilib, 2008 yilgacha qonunchilikka muvofiq ikki turdagи jinoyat, ya’ni javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o‘lim jazosi qoldirilgan. 2008 yil 1 yanvardan barcha jinoyatlar uchun o‘lim jazosi bekor qilingan. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartish nafaqat o‘lim jazosini bekor qilishni, balki qat’iy ravishda O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanishi va qayta tiklanmasligini ko‘zda tutadi. Konstitutsiyaga bu norma kiritilishi bilan O‘zbekiston insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini namoyon etadi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda o‘lim jazosini qaytarish bo‘yicha har qanday tashabbuslarga barham beradi. Pirovardida esa har bir insonning, hatto, u jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham, yashash huquqining kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Aytish lozimki, muayyan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruvchi, tergovchi tergov harakatlari, sud esa sud tergovi orqali dalillar to‘playdi. Ayrim holatlarda to‘plangan dalillarni baholashda ularga nisbatan shubha paydo bo‘lishi mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ushbu norma bunday vaziyatda aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning foydasiga hal qilinishini qat’iy mustahkamlab qo‘yildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasida “Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno”, degan norma ham kiritilganligi alohida e’tiborga sazovor.

Sir emaski, mamlakatimizning yaqin o‘tmishida erkin harakatlanish huquqini asossiz cheklovchi qonunosti hujjatlari mavjud edi. Masalan, ba’zida fuqarolarimiz poytaxtga kelish uchun yo‘llardagi nazorat postlaridan pasportsiz o‘ta olmas edi, ularning bilim olishi, davolanishi, ishlashi yoki qarindoshlarini ko‘rishi uchun

poytaxtga kelib turishida ham qiyinchiliklar mavjud edi. Fuqarolarimizning xorijga chiqishi uchun esa ruxsatnoma (stiker) rasmiylashtirish talab etildi. Bunday to'siqlarning aksariyati Harakatlar strategiyasi doirasida bartaraf etildi, xususan, yo'llarda nazorat postlari olib tashlandi, "propiska", xorijga chiqish uchun ruxsatnoma (stiker) rasmiylashtirish tartibi bekor qilindi. Bu esa O'zbekiston hududida bo'lib turgan har kim respublikaning xohlagan joyiga borish, sayohat qilish, bilim olish, ishslash, tadbirkorlik qilishi imkoniyatini beradi.

Huquqiy davlatning eng muhim vazifalaridan biri mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash hamda mulkdor huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish uchun zarur iqtisodiy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitutsianing 47-moddasida quyidagi normalar o'z aksini topdi: "Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyni qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiyamatda qoplanishi ta'minlanadi". Mazkur modda bilan uy-joy mulkdorlariga nisbatan ikki turdag'i muhim konstitutsiyaviy kafolat belgilandi: sud kafolati va uy-joy uchun kompensatsiya olish kafolati.

Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi. Bu kafolat uy-joyga nisbatan mulk huquqi mulkdorning erki-xohishidan qat'i nazar, majburiy tarzda bekor bo'layotganda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Bunda sud tomonidan mulk huquqining bekor bo'lishiga sabab bo'luvchi holatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida obyektiv tarzda ko'rib chiqiladi. Mazkur tartib mulkdor har qanday holatda ham asossiz ravishda uy-joyidan mahrum etilmasligini kafolatlaydi.

Ikkinci kafolat mulkdorning iqtisodiy manfaatlari himoyasiga yo'naltirilganligi bilan e'tiborlidir. Mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorning shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun teng qiyamatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi.

Bu normaning kiritilishi uy-joy mulkdori huquqlarini kafolatli ta'minlashga, uy-joylarni noqonuniy olib qo'yilishi bilan bog'liq nizoli holatlarning oldini olishga, sud himoyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi aniq belgilab qo'yildi.

Qayd etish lozimki, qabul qilingan qonunlarning asosiy maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish va himoya qilishdan iborat bo'lib, kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklamasligi kerak. Aksincha, qonunlar insonlar og'irini yengil qilib, turmush tarzi farovon kechishini ta'minlashi lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda sud tomonidan ularga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga mosligini tekshirish haqidagi shikoyatlarini ko'rib chiqish Konstitutsiyaviy sudning vakolati sifatida Konstitutsiyada aks ettirilishi lozim"ligini ta'kidlagan edi.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizning 133-moddasiga fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli ekanligiga oid maxsus norma kiritildi. Fuqarolar va yuridik shaxslarga Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi berilganligining ahamiyati shundaki, Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonunlar amaliyotda qo'llanilayotgan bo'lsa, ularning Konstitutsiyaga muvofiqligini vaqtida ta'minlashga, Konstitutsiyaga nomuvofiq qonunlar bilan kelgusida boshqa shaxslar huquqlari buzilishining oldini olishga, Bosh qomus ustunligini ta'minlashga, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda yangilangan Konstitutsiyada belgilangan asosiy o'zgarishlar haqida qisqacha ma'lumot berish ehtiyoji tug'iladi. Xalqimiz takliflari asosida Konstitutsiya

loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. YA’ni Asosiy Qonunimizning 65 foiz matni jamoatchilik takliflari asosida yangilandi. Agar yo‘nalishlar kesimida qaraydigan bo‘lsak, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3 baravar ko‘paydi. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari esa 3,5 baravardan ko‘proqqa, oilaga bag‘ishlangani esa 2 baravar ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

3 ta yangi bob (amaldagi Oila bobiga qo‘sishimcha bolalar va yoshlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobiga qo‘sishimcha madaniy va ekologik huquqlar, alohida advokatura bobi) qo‘sildi.

Konstitutsiyaning 15 ta normasida davlat shart-sharoitlar yaratishi, 16 ta normasida davlat kafolatlashi, 4 ta normada davlat qayg‘urishi alohida ko‘rsatib o‘tilayotganligining o‘ziyoq davlatning maqsadi inson huquqlarini ta’minalash ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Konstitutsiyada “inson” so‘zi amaldagi Konstitutsiyaga nisbatan 3 baravar ko‘p, “bolalar” so‘zi qariyb 3 baravar ko‘p, “yoshlar” so‘zi 6 baravar ortiq, “ayollar, xotin-qizlar” so‘zлari 2 baravar ko‘p, “nogironligi bor shaxs”, “aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari”, “intellektual mulk”, “inklyuziv ta’lim” degan so‘zlar esa birinchi marta qo‘llanildi.

Yangilangan Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri ilm-fanni, ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor berilgani bilan izohlanadi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb ikki baravar ko‘paydi.

“Ta’lim” degan so‘zning o‘zi 20 marta qo‘llanilyapti, avvalgi Konstitutsiyamizda faqat 2 martagina ishlatilgan edi holos. Davlat uzlucksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minalashi, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlandi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minalash demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda yurtimizda bo‘lib o‘tayotgan siyosiy jarayonlardagi faollik, xalqning yangi Konstitutsiya loyihasi bo‘yicha bergen takliflari, fikrlari, muhokamalar fuqarolarning o‘z kelajagiga befarq emasligini amalda namoyon qilmoqdaki, buni hech ikkilanmay quvonarli holat deb baholashimiz mumkin.

Yangilanayotgan Konstitutsiya Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi atrofida butun jamiyatimizni birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda jamiyatdagi barcha qatlamlarning – yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘qituvchilar, hatto jinoyat sodir etgan shaxslarning huquq va manfaatlari aks etganligi bilan amaliy ahamiyatga ega. Shu boisdan ham loyihani ishlab chiqishda keng jamoatchilik faol ishtirok etdi.

Natijada amaldagi Konstitutsiyaning aksariyat normalari, aniqrog‘i 91 ta normasi konseptual jihatdan yangilanmoqda. Shundan kelib chiqib, Konstitutsiyani yangi tahrirda bayon etishga qaror qilindi.

Taklif etilayotgan o‘zgartirishlarning yarmidan ziyodrog‘i insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, unda umumxalq muhokamalaridan kelib tushgan jami murojaatlarning to‘rtadan biri joy olgan, demak uni xalq Konstitutsiyasi deb baralla aytishimiz mumkin.

Shu o‘rinda haqli savollar tug‘iladi – Konstitutsiyani o‘zgartirish bizga nega kerak, Konstitutsiya davlat uchun eng muhim yuridik hujjat ekanligi sababli Konstitutsiyaning o‘zida uni o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi qoidalar mavjud bo‘lsa, unda referendum o‘tkazishga zarurat mavjudmi...?

Ma’lumki, amaldagi Konstitutsiyamizning 127-moddasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar tegishinchaligida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiyligi sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritilishi belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining referendumi

O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir deb belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, ushbu moddada Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasi ekanligi, referendumda qabul qilingan qarorlar oliv yuridik kuchga ega bo‘lishi, agar referendumda qabul qilingan qarorlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, referendumda qabul qilingan qarorlar faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkinligi, referendum O‘zbekiston Respublikasining butun hududida o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda amaldagi qonunchiligidan muvofiq parlamentning o‘zi ham Konstitutsiyaga o‘zgartish kiritish vakolatiga ega ekanligi, lekin kontitutsiyaviy islohot fuqarolarimizning fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida, referendum orqali amalga oshirilsa, bu tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Kontitutsiyasi bo‘ladi deb aytgan edi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamiz adolatli jamiyat qurish, inson qadrini ulug‘lash yo‘lidagi ulkan qadam hisoblanadi. Konstitutsianing qabul qilinishi bevosita xalqning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmoqda, ya’ni yangi loyiha referendumda ma’qullansa, qabul qilinadi.

Referendumda referendum o‘tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi ishtirok etish huquqiga egadir. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to‘la haqlidir.

Konstitutsiyani o‘zgartirishdan havotirga tushmaslik kerak, chunki jamiyat rivojlanadi, undagi ijtimoiy munosabatlar takomillashib boradi va bu albatta Konstitutsiya bilan tartibga solinishi lozim bo‘ladi. Qonunlar ham eskiradi, zamon talabiga javob bermay qoladi. Shu holatda ularga o‘zgartirishlar kiritilib, zamon talabiga muvofiqlashtiriladi. Qonunlar xalq, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishi

kerak, agar qonunda ushbu talablarga javob beradigan qoidalar mujassam bo‘lmas ekan, uning ahamiyati yo‘qoladi.

Ayni vaqtida mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, iqtisodiyotning rivojlanishi, inson huquq va manfaatlari, erkinliklarini ta’minlashning yangi bosqichga olib chiqilishi zaruratini yuzaga keltirdi.

Bizning amaldagi Konstitutsiyamiz 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, 30 yildan ortiq muddat ishladi. Bu yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi. Jahon tajribasiga qarasak, ko‘plab davlatlar o‘z Konstitutsiyalarini bir necha marotaba o‘zgartirganlar.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va har qanday davlatning rivojlanish yo‘lini belgilab beruvchi oliy qonun hujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilinadi.

Albatta, referendumda ishtirok etish bizning huquqimiz, majburiyatimiz emas. Biroq inson huquq-manfaatlari kengaytirish hamda ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash uchun, milliy birligimizni kuchaytirish hamda davlat suverenitetini, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish uchun, davlat boshqaruvining samaradorligini va barqarorligini mustahkamalash uchun, fuqarolarning o‘z taqdirlariga bevosita va bilvosita daxldor masalalarda qaror qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun imkoniyatdan foydalanishimiz shart.

Referendum arafasida turar ekanmiz, hozirda olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, siyosiy faollik jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishiga, har bir fuqaroda davlat oldida, qonun oldida, kelajak oldida mas’ullik hissini kuchaytirishiga ishonamiz. O‘z taqdiri, kelajagiga befarq bo‘lmagan har bir inson o‘zining siyosiy huquqidan albatti foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, yangilanayotgan Konstitutsiya hayotimizning barcha jabhalarining tartibga solib, yurtimiz rivojlanishi uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi¹.

¹ Закирова.П. Конституцияни ўзгартериш бизга нега керак? <https://www.xabar.uz/huquq/konstituciyan-ozgartirish-bizga-nega-kerak>

Yangilanayotgan Konstitutsiya taraqqiy etgan davlat – Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi atrofida butun jamiyatimizni jipslashtirishi, unda **barcha qatlam manfaatlari inobatga olinganligi**, loyihani ishlab chiqishda keng jamoatchilik, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, **ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari, ziyolilar faol ishtirok etganligi**, alohida ta’kidlash mumkin. Shu ma’noda yangilanayotgan Konstitutsiya tom ma’noda **xalq Konstitutsiyasi bo‘layotganligi e’tirof etish mumkin.**

Yangi Konstitutsiya loyihasi muhokamaga qo‘yilgandan keyingi vaqt davomida kechgan ijtimoiy-huquqiy jarayonlarni quyidagi raqam misollarda ko‘rish va xulosa qilish mumkin:

Umumxalq muhokamalarida **220 mingdan ziyod** takliflar kelib tushganligi, **takliflarning har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy olganligi qayd etildi;**

Shu ma’noda yangilanayotgan Konstitutsiya tom ma’noda **xalq Konstitutsiyasi bo‘layotganligi e’tirof etildi;**

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan **amaldagi Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilmoqda**, moddalar soni **128 tadan 155 taga oshdi**;

Konstitutsiyamizning amaldagi **275 ta normasi 434 taga ko‘paydi**, ya’ni amaldagi Konstitutsiyamiz **65 foizga yangiladi**;

Xususan, kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘sishmchalarning siyosiy-huquqiy ahamiyati, ko‘lami va hajmidan kelib chiqib, loyihani yangi tahrirda bayon etishga barcha asoslar borligi, shu bois Konstitutsiyaviy qonun loyihasi nomi “**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida**” deb o‘zgartirilgani bildirildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasining matni Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari, Oliy sud rahbariyati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuviga ham atroflicha muhokama etilib, qo’llab-quvvatlandi.

Yangilangan Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo‘nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo‘lida eng muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy qonun

loyihasiga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirishga, shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali tashkil qilinishiga yordam beradi. Aholidan kelib tushgan takliflarning qariyb²⁰ foizi, ya’ni 18 mingtasi aynan parlamentni isloh qilish bilan bog‘liqdir. Shundan kelib chiqib, xalq hokimiyatchiligin kuchaytirish, xalq vakillik organi bo‘lmish parlamentning rolini va o‘rnini, mas’uliyatini oshirish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, umuman mamlakatimizda parlamentarizm, xalq hokimiyatchiligin yanada kuchaytirishga qaratilgan bir qator normalar loyihaga kiritilgan.

Yangi Konstitutsiyada Parlament faoliyati bilan bog‘liq konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda Oliy Majlis palatalarining bиргаликдаги vakolatlari qayta ko‘rib chiqildi. Qonunchilik palatasi bilan Senatning bиргаликдаги vakolatlari hamda har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas’uliyat sohalari aniq belgilab berilmoqda. Ya’ni, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatniki esa 14 tadan 18 taga ko‘paytirilmoqda.

Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, hududiy manfaatlarni ifodalovchi organ sifatida **Senatning mahalliy vakillik organlari** faoliyatiga ko‘maklashish kabi muhim vakolat Bosh qomusimizda mustahkamlab qo‘yilmoqda. Bundan tashqari, Oliy Majlis palatalarining bиргаликдаги vakolatlari sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi milliy ma’ruzani eshitish belgilanmoqda. Bu ikkala palataning mazkur yo‘nalishdagi samarali hamkorligini ta’milagan holda, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ijobjiy o‘zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratadi. Yangilangan Konstitutsiya jamiyatni yanada taraqqiy ettirishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘laqonli ta’milanishiga xizmat qiladi².

2023 yil 1 mayda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va shu kundan e’tiboran yildan kuchga kirdi. Ushbu Konstitutsiyaviy qonun 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.

² <https://parliament.gov.uz/oz/news/yangilanayotgan-konstitutsiya-chinakam-xalq-konstitutsiyasi-boladi>

Qonunga asosan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#) o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi, uning [yangi tahriri](#) tasdiqlandi.

Konstitutsiya normalari tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat’i nazar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi.

Amaldagi chaqiriq O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati ushbu Konstitutsiyaviy Qonun kuchga kirgan paytdan e’tiboran o‘z faoliyatini yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan vakolatlarga muvofiq amalga oshiradi.

Konstitutsiyaning 92-moddasi uchinchi qismining Oliy Majlis Senatining saylanadigan (tayinlanadigan) a’zolari sonini belgilovchi qoidalari 2024 yilda navbatdagi chaqiriqdagi Senat shakllantirilishi boshlanganidan amalga kiritiladi.

Konstitutsiyaning 120-moddasi uchinchi qismi viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligini nazarda tutadi.

Mahalliy vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari faoliyatining izchilligi hamda uzlusizligini ta’minalash uchun ushbu norma:

- viloyatlar hamda Toshkent shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan – 2024 yilda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovlari yakunlari bo‘yicha;
- tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan – 2026 yil 1 yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi³.

Yangi Konstitutsiya loyihasidagi asosiy o‘zgarishlar haqida so‘z borganda unda mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatlar o‘z ifodasini topganini alohida ta’kidlash zarur. Shu ma’noda, yangi Konstitutsiyada “O‘zbekiston – huquqiy davlat” degan konstitutsiyaviy tamoyil kafolatlanmoqda.

Bu – barchaning qonun oldida tengligi va qonundan hech kim ustun emasligini ta’minalash, deganidir. Bu tamoyil sudlarning tom ma’noda mustaqil bo‘lishi hamda

³ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/yangi_tahrirdagi_konstituciya_kuchga_kirdi

adolatli qarorlar chiqarishi, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

Yangi Konstitutsiya matnida ilgari amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” deb o‘zgartirilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad inson manfaatini har narsadan ustun qo‘yishdir.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilanmoqda. Shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilmoqda.

Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Inson huquq va erkinliklari qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Bundan tashqari inson va davlat organlari o‘rtasida yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralar maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi belgilanmoqda. Bu normalar huquqni qo‘llash faoliyatida inson manfaatlari ustuvor bo‘lishini amalda ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhim yangiliklarga yana misol: har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga uning roziligesiz yuklatilishi, O‘zbekiston fuqarosi mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi mumkin emas.

Jinoyat protsessida inson huquqlari kafolati eng ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq, xususan, “Xabeas korpus” va “Miranda qoidalari” ins-titutlari negizida kuchaytirilmoqda. Jumladan, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi hamda shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi belgilanmoqda.

Ushbu huquqiy kafolatlar inson huquqlari muhofazasini kuchaytirish sohasidagi islohotlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Insonni davlat organlarining suiiste’molliklaridan ishonchli himoya qiladi, shaxsiy erkinlik daxlsizligi va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlaydi.

Eng asosiysi, agar shaxsning o‘z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Shaxsning sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi ham inson ozodligi, sha’ni va qadrini qat’iy himoya qilish yo‘lidagi muhim huquqiy qadam hisoblanadi.

Yangi Konstitutsiya matnida advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’milanishi belgilangani ham yangi Konstitutsiya loyihasining nechog‘lik xalqchil ruhda ishlab chiqilganidan dalolatdir.

2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Asosiy o‘zgarishlar:

Muqaddima Konstitutsiyaning mafkuraviy kirish qismidir. Konstitutsiyaning muqaddimasida xalqning orzu-intilishlari ifodalanishi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida aks ettiriladi. Muqaddimadagi qoida va g‘oyalar keyinchalik Konstitutsiya normalarida u yoki bu shaklda, ko‘rinishda o‘z o‘mini topadi. Muqaddima “*O‘zbekistonning yagona xalqi*” tushunchasi bilan boshlanib, bu orqali xalqimizning yagona va bo‘linmasligiga urg‘u berilgan. Har bir insonning sha’ni va qadr-qimmati, farovonligi hamda manfaatlari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan, insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish hamda mustahkamlash borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimiz ekanligi mustahkamlandi.

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “*O‘zbekiston – suveren demokratik respublika*” jumlesi quyidagicha o‘zgartirilmoqda:

• O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

Suveren davlat – o‘z hududida to‘la-to‘kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish demakdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta’minlanishini ko‘zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini **ijtimoiy davlat** deb e’lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqlanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e’tiqodidan qat’i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsianing 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo‘srimcha qo‘sildi:

- *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliv yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.*

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Inson huquqlariga oid normalar 3 barobarga, davlatning ijtimoiy majburiyatiga oid normalar 4 barobarga, ilm-fanga oid normalar 2 barobarga ko‘paydi. Davlat boshqaruviga oid normalar qayta ko‘rib chiqildi.

Davlat boshqaruvi sohasida o‘zgarishlar

YAngilanayotgan Konstitutsiya **xalqparvar davlat** qurish maqsadida **kuchli parlament, ixcham va mas’uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud** tizimini barpo etishga qaratilgan.

Parlament palatalarining vakolatlari qayta ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, Qonunchilik palatasi va Senatning **vakolatlari** sezilarli darajada kengaydi, ikki palata ishidagi **takrorlanishlar bartaraf etilib**, har birining **mas’uliyat sohasi aniq** belgilandi.

Xususan, **Qonunchilik palatasining** mutlaq vakolatlari amaldagi **5 tadan 12 taga, Senatda esa, 14 tadan 18 taga** ko‘paydi.

Hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat byudjeti ijrosiga oid masalalar **Qonunchilik palatasining** vakolatiga, **hududlar manfaati** va ularni rivojlantirish, yangi **vazirliliklar** tashkil qilish to‘g‘risidagi

farmonlarni tasdiqlash masalalari esa **Senat vakolatlari doirasiga** taalluqli ekanligi mustahkamlanishi shular jumlasidandir.

Senat oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni **ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga** aylantirish bo‘yicha normalar Konstitutsiyada ko‘zda tutildi. Xususan, senatorlar sonini hozirgi **100 nafardan 65 nafarga** tushirish, bunda **har bir hududdan teng ravishda 4 tadan** senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa **16 tadan 9 taga** kamaytirilishi belgilandi.

Parlamentning quyi palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda **60 kun** ichida **ko‘rib chiqilishi**, muddat o‘tib ketsa, ushbu qonun **ma’qullangan deb hisoblanishi** va imzolash uchun Prezidentga yuborish bo‘yicha norma kiritildi.

Parlamentning sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kuchaytirildi

Yangi Konstitutsiyada **Bosh prokuror, Hisob palatasi rahbarligiga** nomzodlar avval Senatda ko‘rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi, shuningdek, **Monopoliya qo‘mitasi** va **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** rahbarlari **Senat tomonidan saylanishi** amaliyotini joriy etish taklif etildi.

Maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzod Senat bilan maslahatlashuvlardan so‘ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanishi belgilandi.

Oliy Majlis palatalarining bиргаликдаги vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo‘lgan **parlament tekshiruvi** instituti Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo‘yildi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash maqsadida **Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini Senat tomonidan saylash tizimi** kiritildi.

Ayrim oliy mansabdor shaxslarning lavozimga saylanish yoki tayinlanish muddatlari bo‘yicha cheklovlar belgilanadi.

Senat Raisi va Qonunchilik palatasi Spikeri, Oliy sud va Sudyalar oliy kengashi raislari, ularning o‘rinbosarlari,

Bosh prokuror, Markaziy saylov komissiyasi raisi, hokimlarni lavozimga ikki muddatdan ortiq saylash yoki tayinlashga cheklov kiritildi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi institutini isloh qilindi, Konstitutsiyaga qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy etishni taklif qildi hamda “**Mazkur institut doirasida 100 ming kishidan kam bo‘Imagan miqdordagi fuqarolar o‘z qonunchilik takliflarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. SHu asosda endi xalq bevosita qonun ijodkori sifatida tashabbus ko‘rsatish huquqini qo‘lga kiritadi**” deb ta’kidlagan edi. SHu munosabat bilan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 98-moddasida saylov huquqiga ega bo‘lgan, yuz ming nafardan kam bo‘Imagan fuqarolarning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi mustahkamlandi. Fuqarolarning qonunchilik takliflari bilan parlamentga murojaat qilishi institutini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy prinsipiga qo‘yidagi ijobiy ta’sir qiladi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va funksiyalari, uning **javobgarligi** sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, **barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, qulay investitsiya muhitini yaratish, qashshoqlikni kamaytirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni saqlash** va boshqa sohalarda o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun mas’ulligi kengaytirildi. Bundan tashqari, Hukumat zimmasiga ijro etuvchi hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minalash, davlat xizmatlarining sifati va ochiqligini oshirish, aholini, shu jumladan, nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining samarali ishlashini ta’minalash, fuqarolik jamiyatni institutlarini qo’llab-quvvatlash vazifalari yuklatildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 118-moddasiga ko‘ra, **Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasida faoliyat yuritayotgan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish va ma’qullash uchun taqdim etiladi.**

Hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilish instituti bosqichma-bosqich bekor qilinadi

Mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo‘linishi mamlakatda butun davlat boshqaruvi tizimini chuqur isloh qilish uchun asos bo‘ladi. SHu asosda, mahalliy Kengash raisi bilan hokim lavozimini bir-biridan ajratish **amalga oshiriladi**.

Konstitutsiyamizning **120** va **121-moddalariga** quyidagi o‘zgartirishlar kiritildi: Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

- viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo‘yicha;
- tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi.

Barcha masalalar echimi chinakam xalq ovozi bo‘lgan mahalla darajasiga tushiriladi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyamizda mazkur kafolatning belgilanishi **mahallalarga o‘z hududini mustaqil boshqarish**, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, aholi farovonligini ta’minlashga muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi ta’minlash. Advokatura.

Konstitutsiyamizga kiritilgan 136-moddaga ko‘ra, “Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to‘xtatib turishga, boshqa lavozimga o‘tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas”.

Konstitutsiyaviy sud sudyalarini qayta saylanish huquqisiz **10 yilga saylash tartibi** belgilandi (*hozirda birinchi marta 5 yilga, keyin yana 10 yilga saylanadi*).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli ekanligiga oid maxsus norma qo‘shildi.

Konstitutsiyaga **advokatura institutiga** bag‘ishlangan va advokatlar faoliyatining kafolatlarini mustahkamlovchi **alohida bob** kiritildi. Advokat va uning kasbiy faoliyati **davlat himoyasida** ekanligi va advokatning kasbga oid huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati qonun bilan **qo‘riqlanishi mustahkamlandi**.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 141-moddasiga “**Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi**”, degan yangi norma kiritilmoqda.

Saylov tizimidagi yangi o‘zgarishlar: saylov huquqi

Konstitutsiyamizga kiritilgan 128-moddaga ko‘ra, “**Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi**”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har qanday muomalaga layoqatsiz shaxs emas, balki sudning muomalaga layoqatsiz deb topgan qarori asosida saylov huquqlaridan mahrum etilgan fuqarolar saylovda ishtirok etmasligi mustahakamlandi. YA’ni sud saylovda ongli qatnasha olish yoki olmasligiga shaxsning real holatidan kelib chiqib, baho beradi va mahrum qilishi mumkin.

Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylash bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlarni yanada kafolatlashga xizmat qiladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir qilgan shaxslar ham saylashda qatnasha olishi **YAngi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya** real hayotda amalga oshayotganini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatni institutlari yanada faol bo‘lishi uchun keng imkoniyat va kuchli himoya taqdim etildi

Xususan, **ommaviy axborot vositalari** faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq **javobgarlikka sabab bo‘lishi** belgilandi. Ushbu norma **jurnalistlarning erkin, turli ma’muriy bosimlardan qo‘rmasdan faoliyat yuritishini** ta’minlaydi hamda mamlakatimizda axborot erkinligini yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoraliq, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pirovardida, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga, kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yishga va so‘z erkinligini ta’minlashga erishiladi.

SHuningdek, Konstitutsiyada **ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi**, ularning **axborotni izlash, olish, undan foydalanish** va uni **tarqatishga bo‘lgan huquqlari** kafolatlandi.

Konstitutsiyamizga **ilk marotaba fuqarolik jamiyatni institutlariga** bag‘ishlangan alohida bob kiritilishi va ular faoliyati kafolatlarining belgilanishi **jamiyatda ochiqlik, oshkoraliq** va **qonuniylik muhitini**, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli **jamoatchilik nazoratini** yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ladi

Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar **ta’lim sohasiga oid** ko‘plab modda va normalarda ham o‘z ifodasini topdi. **Ta’lim** va **ilm-fanga** oid normalar qariyb **2 barobarga** oshdi.

Jumladan, fuqarolarning **oliy ta’lim muassasalarida davlat granti** hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi (51-modda).

Asosiy qonunda fuqarolarning **bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi** ham belgilandi.

Nogironligi bor bolajonlarimizga o‘z tengdoshlari bilan bir xil **ta’lim olishi uchun** barcha sharoitlarni yaratish ko‘zda tutildi. SHuning uchun, bunday imkoniyatlar **inklyuziv ta’lim sifatida** Konstitutsiyaga kiritildi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning **o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish**, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi **685 ming nafardan ortiq o‘qituvchilarning** professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro‘sini yanada oshirishga xizmat qiladi (52-modda).

Oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqi taqdim etildi (51-modda). Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonidagi mustaqilligini ta’minalashga xizmat qiladi. Jumladan, keyingi yillarda ko‘plab nodavlat oliy o‘quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlar filiallari soni ortdi, **41 ta davlat oliy o‘quv yurtiga** akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.

Inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da’volarini

tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiyga bo‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiyonoqlarga, zo‘ravonlikka, inson sha’nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saklash huquqi, o‘z sha’ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e’tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular b-n bog‘liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq insno huquqlari sirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida belgilanganidek: O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart. Konstitutsiyada imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo‘yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart, deb keltirilgan. Shuning bilan birga, unda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar.“Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas”, (19-modda) – deb, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Bu o‘z navbatida barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari tengligini, hech kimning jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeji jihatidan kamsitilishi mumkin emasligini, fuqarolar bilan davlat o‘rtasida o‘zaro bir-birlariga nisbatan huquq hamda burchlari mavjudligini, fuqarolarning Konstitutsiya va davlatning boshqa qonunlarida mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari

daxlsizligi, ularni sud qarorisiz hech kimning cheklashga haqli emasligini kafolatlaydi.

Konstitutsiyamizning 24-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir”, deyilgan. Buning ma’nosи shundan iboratki, yashash huquqi insonning tabiiy huquqi hisoblanadi. Insonning tabiiy huquqi (yashash huquqi) va uni o‘z navbatida himoyasini ta’minalash davlat hamda barcha jamoat tuzilmalari faol harakatlarining keng doirasini, har bir mavjud inson turmushining xavfsiz ijtimoiy va tabiiy muhitini, turmush sharoitini o‘zida mujassamlaydi.

Insonning yashash huquqi, u hayotda kim bo‘lishidan qat’i nazar, qonun tomonidan ta’minalanadi. Mazkur huquqiy norma 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan va o‘zining tarixiy 60 yilligi keng miqyosda nishonlanayotgan inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga ham to‘liq mos keladi. Jumladan, inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Asosiy Qonuning “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” bobi fuqarolarning mehnat qilish, mulkdor bo‘lish, merosxo‘r bo‘lish, bilim olish, ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi, ijtimoiy ta’milot olish huquqlarini kafolatlaydi. Xususan, 37-moddada, “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash,adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir”.

“Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi”, deb belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida O‘zbekistonda qonun tartibida va kundalik hayotda har bir insonga to‘liq erkin iqtisodiy faoliyat, o‘z mehnatini sarflaydigan sohani va shaklini erkin tanlash ta’minalanadi. Barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo‘lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadirlar.

Har bir shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash,adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqlari mustahkamlangan konstitutsiyaviy me’yorlarni rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun aniq mexanizmni yaratish maqsadida “Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risida”, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaligi

to‘g“risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g“risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Mehnat kodekslari va boshqa huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bizning oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan biri bu albatta, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini barcha fuqarolarimiz, ularni yoshidan qat’i nazar chuqur o‘rganishlaridir. Chunki, har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi. Qomusimiz o‘zining mazmun-mohiyati bilan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjatdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari b-n hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huqukulri bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimini de-mokratiyalashni qo‘llabquvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan. Davlatga qarashli, taxlil, maslahat, idoralararo va muvofiklashtirish organi hisoblanadi. Asosiy vazifalari: inson huquqlari bo‘yicha milliy harakat rejasini ishlab chiqish; shu soxaga oid milliy ma’ruzalar tayyorlash; tegishli o‘quv-uslubiy adabiyotlar nashr etish, tadqiqotlar o‘tkazish. Markaz huzuridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi va bolalar qabulxonasida bepul yuridik maslahatlar beriladi. Inson huquqlarini buzish hollari yuzasidan fuqarolarning ariza va shikoyatlari ko‘rib chiqilib, hal etiladi. Markaz BMT maxsus bo‘linma va tashkilotlari, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) Demokratik muassasalar va inson hukuklari bo‘yicha byurosi, AQSh, Angliya, Fransiya, Italiya, Hindiston kabi davlatlarning elchixonalari, Amerika yuristlar assotsiatsiyam, K. Adenauer fon-di, Soros fondi, F. Ebert fondi va sh. k. jamg‘armalar b-n yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. BMT Taraqqiyot dasturi (PROON) b-n birga ta’sis etilgan «Demokratlashtirish va inson huquqlari» ilmiy-ommabop jur. o‘zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladi. Markaz huzurida inson huquqlari bo‘yicha ommaviy kutubxona tashkil etilgan.

Shu ma’noda Konstitutsianing 20-moddasiga ko‘ra: O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi-deb belgilangan.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” Muqaddimasida “Insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik,adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e’tiborga olib; inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so‘z erkinligi va e’tiqod erkinligiga ega bo‘ladigan hamda qo‘rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e’lon qilinganligini e’tiborga olib; inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko‘tarishga majbur bo‘lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e’tiborga olib; xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligini e’tiborga olib; Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o‘z e’tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashishga ahd qilganliklarini e’tiborga olib; a’zo bo‘lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko‘maklashish majburiyatini olganligini e’tiborga olib; mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu

majburiyatlarning to‘liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishini e’tiborga olib;

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida e’lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma’rifat va ta’lim yo‘li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko‘maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiy parvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta’milanishiga, Tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar xalqlari o‘rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasi dagi hududlarda yashayotgan xalqlar o‘rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur” deb hisoblaydi. Jami 30 moddadan iborat bo‘lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining moddalarini o‘qiymiz. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi normalar bilan egizak. Masalan: “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasi. “Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”. Endi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 24-moddasini o‘qiymiz: “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.” Deklaratsiyaning 5-moddasi: “Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.” Bunga hamohang bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismini o‘qiymiz. “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.” Yoki, Deklaratsiyaning 9-moddasi, “Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg‘in qilinishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida 21-moddasida “Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligesiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy

axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin". Bu yerda haqiqatan, demokratik tamoyillarningng ustuvorligini va insonning erkinligi boshqa bir inson va shaxs erkinligiga putur yetkazmasligi nazarda tutilgan.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonzhli kafolat yaratadi.Bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur. Ya'ni, insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishi kerak.

O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan xalqparvar davlatni barpo etish yo'lidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalambor yangi konstitutsiyaviy makon kerakligini barchamiz tushunib turibmiz.Bosh Qomusimiz bugungi real voqelikka mos bo'lsagina, u shiddat bilan olib borilayotgan islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lib xizmat qila oladi.Bevosita xalqimizning takliflari asosida, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi tayyorlandi. Hozirda, O'zbekiston Respublikasi ahli, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiya qabul qiliganligini ta'kidlash joiz. Yana bir muhim jiati yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, ilgari amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyilini "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirilganligi, ya'ni eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo'yish maqsad qilingan.Yangi Konstitutsiyada, O'zbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilinmoqda. Davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravarga ortmoqda. Jumladan, fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari uy-joy

bilan ta'minlanishi, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonga munosib yashashini ta'minlashni hisobga olgan holda belgilanishi, fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqliligi va boshqalar belgilanmoqda.

Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari

Yangilangan Asosiy Qonunimizning 54-moddasida "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi". O'zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, fuqaro sifatida qonun oldida huquqan tengdir. Fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab yetishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab berish galdagi vazifalardan biridir. Bu jarayon fuqarolar uchun ma'naviy kamolot manbai bo'lishi bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham doimiy amaliy faoliyatdir.

Yangilangan Konstitutsiyaning 55-moddasi. "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlangan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarining, ular mansabdar shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kim buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi Qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdar shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega".

Asosiy Qonunning 56-moddasi. “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi.

Davlat inson huquqlarii bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb tahrir qilingan.

Bugungi dunyoda nogironligi borlarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash davlatning ijtimoiy yo‘naltirilganligi ko‘rsatkichidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasining Yangi Konstitutsiyada ham davlatning asosiy qadriyati inson ekanini ko‘rish mumkin. Xususan, 57-moddada “nogiron” degan so‘zni uchratamiz. Ya’ni ushbu moddada mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda davlat himoyasida ekani belgilab qo‘yildi.

3. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlar tuzilishi masalalari. Davlar hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari

Iqtisodiy islohotlarga mos soliq-byudjet siyosatini yuritish va byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash maqsadida yangi tahrirdagi Soliq va Byudjet kedekslari qabul qilindi. Davlat byudjeti qonun ko‘rinishida qabul qilinmoqda.yu qonunchilik darajasida tavakkalchilik va tashqi ta’sirlarni boshqarish uchun yetarlicha moslashuvchan shart-sharoitlarni ta’minlovchi yuridik normalar mahalliy qonunchiligidan singdirilmoqda, fiskal qoidalar takomillashtirilmoqda.

O‘tgan 6 yil davomida soliq, byudjet, pul-kredit siyosati va boshqa iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishning huquqiy asoslariga oid 14 ta yangi qonunlar qabul qilindi. 9 ta qonun o‘z kuchini yo‘qotgan deb topildi. Shuningdek, amaldagi 50 ta qonunlarga 273 ta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi⁴. Bularning barchasi keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

⁴ Nazarov Sh. Iqtisodiy islohotlar xalq ishonchini oqlashga qaratilgan // Xalq so‘zi, 2023 yil 8 iyun, №117 (8460).

Soliq stavkalarining pasaytirilishi bilan bir paytda soliq tizimini soddalashtirish tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratdi. So‘nggi 6 yildagi kapitalga investitsiyalar hajmi deyarli 4 marta ko‘payib, uning tarkibida markazlashmagan investitsiyalar miqdori muttasil oshib foizga yetib qoldi.

Soliq yukini kamaytirish tadbirkorlikni yangi tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga undamoqda. Natijada 2018-2022-yillar mobaynida mamlakatimizda 424 mingdan ortiq kichik kichik korxona va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Bugungi kunda iqtisodiy faol aholining 67,2 foizi (10 million kishi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgani ham tadbirkorlik iqtisodiyotning yetaklovchi kuchiga aylanganligining isbotidir.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirildi. Xorijiy investorlar aksiyalaridan oladigan devidentlar uch yil muddatga foyda solig‘idan ozod qilindi.

Yangi Konstitutsianing 148-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-tamoyillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi

83-modda. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

Tarixiy jarayonlar va jahon davlatlarining rivojlanish tajribasi, davlat va ma’muriy-hududiy tuzilish muammolari siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan juda dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, har qanday davlat muayyan hududga ega bo‘ladi. Uning fuqarolari ham xuddi shu hududda istiqomat qilishadi. Davlat o‘z oldida turgan asosiy vazifalarni, masalan, aholining iqtisodiy turmushini tashkil etish, uning xavfsizligini ta’minlash va boshqa funksiyalarni bajarish maqsadida turli xil faoliyatni amalga oshiradi. Davlatda aholining soni qancha ko‘p bo‘lsa, hududiy jihatdan katta bo‘lsa, bu sharoitlarda uni yuqoridan turib tartibga solish mushkullashadi.

Davlat tuzilishi yoki milliy davlat tuzilishi deganda, davlatning mohiyatidan kelib chiquvchi uning hududiy tuzilishi yoki milliy-hududiy tuzilishi, davlat bilan uning tarkibiga kiruvchi bo‘laklarni (kismlarni) davlat munosabati shakllari va huquqiy holatlari tushuniladi.

Fuqarolar soni va hudud ko‘lami muayyan chegaraga yetganda, mamlakat hududini okruglar, viloyatlar, o‘lkalar, shtatlar, kantonlar, guberniyalar, tumanlar singari hududlarga bo‘lish hamda shu hududiy tuzilmalarda hokimiyatning mahalliy (hududiy) organlarini tuzish zarurati tug‘iladi. Shu tariqa hokimiyat va boshqaruvning markaziy hamda mahalliy organlari o‘rtasida vakolatlarni bo‘lish ehtiyoji ham paydo bo‘ladi.

Davlatshunos olimlar tomonidan davlat tuzilishi tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan. Ularning qariyb barchasi davlat tuzilishi shakli deganda – davlat hokimiyatining ma’muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o‘rtasidagi, davlatning alohida qismlari o‘rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakterini tushunish kerak, deb hisoblashadi.

Tuzilish tarkibiga ko‘ra davlatlar oddiy – unitar hamda murakkab – federativ yoki konfederativ davlatlarga bo‘linadi. Davlatning tuzilish shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir muhim xususiyati – aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Unitar⁵ davlat – oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat hisoblanadi. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma’muriy-hududiy bo‘linishga ega, ya’ni tumanlar, viloyatlar, kantonlardan iborat bo‘ladi. Mazkur ma’muriy-hududiy bo‘linmalar davlat suvereniteti alomatiga ega emas. Unitar davlatlarda butun hudud bo‘yicha yagona oliy organlar tizimi va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo‘ladi. Unitar davlatlarning tuzilishi oddiyidir.

Unitar davlatdagi ma’muriy-hududiy bo‘linmalar faqat mahalliy masalalarni hal qilish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyati kuchi davlatning barcha

⁵ «Унитар» сўзи лотинча «unus» – «бир» сўзидан олинган бўлиб, «ягона» деган маънони англатади.

hududiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Unitar davlatlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi.

Davlat tuzilishi shaklining ikkinchisi – bu murakkab davlatlar. Murakkab davlatlarga – federatsiya, konfederatsiya va boshqa davlat tuzilmalari kiradi.

Federativ⁶ davlat – bu davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta’sis etishga asoslangan ittifoqdir. Demak, o‘zaro birlashishga intiluvchi bir qancha mustaqil davlatlar mavjud bo‘lgan joydagina federatsiya tashkil etilishi mumkin.

Federativ shakldagi davlat qonun chiqaruvchi organlarga, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo‘lgan bir necha davlatlar – sub’ektlar birlashmasidan, ittifoqidan tashkil topadi. Federativ davlatlarda sub’ektlar o‘ziga xos nomlar bilan – respublika, shtatlar, kantonlar, yerlar deb ataladi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa ko‘pgina davlatlar federativ davlatlar hisoblanadi.

Federativ davlat bir necha suveren davlatlarning ittifoqidan tashkil topgan suveren davlatdir. Federatsiyada umumfederativ davlatning hokimiyati va boshqaruvi organlari, konstitutsiyasi, byudjeti, davlat ramzlari bo‘lishi bilan birga unga kiruvchi davlatlarning ham o‘z hokimiyati va boshqaruvi organlari, konstitutsiyasi mavjud bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda davlatlarning rivojlanishi «sof holda»gi unitar va federativ davlat tuzilmasiga ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Unitar davlatlar ayrim huquqlarini ma’muriy-hududiy bo‘linmalariga bermoqda, federativ shakldagi davlatlarda esa ularning markaziy organlari hokimiyatlarini butun federatsiya hududida mustahkamlashga harakat qilmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning o‘rta va shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, shimoliy-sharqda Qirg‘iziston, shimol va shimoliy-g‘arbda Qozog‘iston respublikalari, janubiy-g‘arbda Turkmaniston, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh.

⁶ «Федератив» сўзи лотинча «feodus» сўзидан олинган бўлиб, «иттифок», «шартнома» маъноларини англатади.

O‘zbekiston Respublikasining maydoni – 447,4 ming kv. km.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishiga keladigan bo‘lsak, u tuzilishiga ko‘ra, unitar (oddiy) davlat hisoblanadi. Boshqa unitar davlatlardan farq qilgan holda, O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki uning tarkibiga mustaqil Koraqalpog‘iston Respublikasi ham kiritilgan.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi alohida huquqiy maqomga ega bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasidan, viloyatlardan hamda Toshkent shahridan tashkil topgan.

Viloyat – O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy birliklar tizimida eng yuqori bo‘g‘in bo‘lib, alohida o‘rin tutadi. Viloyat o‘z tarkibiga boshqa ma’muriy-hududiy bo‘laklarning hammasini oladi va shu tariqa muhim tashkiliy funksiyani bajaradi. Bu hududiy bo‘linma joylarni markaz bilan bog‘lab turadigan aloqa tuzilmasidir. Respublika miqyosidagi davlat organlari o‘z vazifalarini, joylardagi organlar bilan aloqalarini faqat viloyat va uning davlat boshqaruv organlari – viloyat hokimligi orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, viloyat o‘z tarkibiga kiruvchi quyi hokimiyat vakillik va ijroiya organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda ularni umumdavlat va mahalliy manfaatlardan kelib chiqib birlashtiradi.

Viloyat hududlari o‘z navbatida tumanlarga va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlarga bo‘linadi. Har bir viloyatda tumanlarning soni turlicha bo‘ladi.

Viloyat yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma sifatida barqaror bo‘lishi lozim. Uning tuzilishi, mustahkamlanishi, yiriklashishi yoki bo‘linishi iqtisodiy jihatdan asoslantirilishi lozim. Mazkur ma’muriy-hududiy birlik iktisodiyotning barcha sohalarini kompleks rivojlanishiga olib kelishi lozim.

84-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Viloyat va respublikaga (Qoraqalpog‘iston Respublikasiga) bo‘ysunuvchi shaharlar turkumiga kamida 30 ming aholisi, muhim sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan istiqbolli iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan shaharlar kiradi.

Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar toifasiga sanoat korxonalarini, kommunal xo‘jaligi, davlat uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalarini, savdo, umumi ovqatlanish, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini mavjud bo‘lgan hamda aholisi 7 ming kishidan kam bo‘lmagan va uning uchdan ikki qismini ishchi, xizmatchi hamda ularning oila a’zolari tashkil etgan shaharchalar va boshqa aholi manzillari kiritiladi. Bunda mazkur aholi punktining ma’muriy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari e’tiborga olinadi.

Shaharchalar ham ma’muriy-hududiy birlik bo‘lib, uning turkumiga sanoat korxonalarini, qurilishlar, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim ob’ektlar yaqinida joylashgan hamda kamida ikki ming aholisi bo‘lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin.

Qishloqlar – ma’muriy-hududiy bo‘linishning quyi bo‘g‘inlaridan biridir. Shahar hududlariga kirmaydigan, ma’lum aholi soniga ega bo‘lgan qishloq markazlari va ma’lum sanoat ob’ektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo‘lishi mumkin.

Ovullar esa qishloqlarga qaraganda kichikroq hajmdagi yashash va turar joylardan iborat aholi punktlaridir. Ovullarda, ko‘p hollarda, chorvador oilalar istiqomat qilib, ular, aso san, ko‘chib yuruvchi bir necha cho‘ponlar oilalaridan tashkil topadi.

XVII bob. Qoraqalpog‘iston Respublikasi

85-modda. Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linishi tizimida **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyili asosida qoraqalpoq millati O‘zbekiston hududida o‘z davlatini muxtor Respublika shaklida tashkil etgan edi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mustaqil-suveren deb e’lon qilindi. Ushbu maqom O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonunda va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi⁷da o‘z ifodasini topdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, 66-moddaga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng yirik ma’muriy-hududiy birlik – bu tuman hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining shimoliy-g‘arbida joylashgan. Maydoni 164,9 ming kv. km. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 15 ta tuman, 12 ta shahar, 16 ta shaharcha, 112 ovul bor.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxti Nukus shahridir.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishida **Toshkent shahri** alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri.

Poytaxt shahar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Unda davlat va jamoat tashkilotlarining markaziy idoralari, davlat boshlig‘ining qarorgohi, chet el diplomatik vakolatxonalarini joylashadi, davlatning asosiy siyosiy va iqtisodiy tadbirlari amalga oshiriladi

Toshkent shahri Toshkent viloyatining ma’muriy markazi bo‘lib, maydoni 256 kv. km.

Ma’muriy-hududiy bo‘linish – bu qonun asosida tuzilgan, ma’lum nomga, tegishli davlat-huquqiy maqomga ega bo‘lgan va boshqa ma’muriy-hududiy bo‘laklar

⁷ Корақалпоғистон Республикаси Конституцияси 1993 йил 9 апрелда қабул қилинган.

bilan, boshqaruv va bo‘ysunish munosabatlari bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi hududining tarkibiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududining ma’lum ma’muriy bo‘laklarga bo‘linishi, davlatning asosiy funksiya va vazifalarini amalga oshirishda zarur tadbir bo‘lib hisoblanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ma’muriy-hududiy bo‘lakda o‘z vazifalarini shu davlat hududiy bo‘laklari orqali amalga oshiradilar. Demak, ma’muriy-hududiy bo‘laklarga mos ravishda davlat apparatining tegishli bo‘g‘inlari ham takomillashtiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

«O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida»gi qonunning 4-6-moddalariga binoan esa Qoraqalpog‘iston Respublikasining chegarasi faqat uning roziligi bilan Jo‘qorg‘i Kenges qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.

Viloyatlar va tumanlarning chegaralarini o‘zgartirish tegishli viloyatlar, Toshkent shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlarning chegaralarini o‘zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar va ovullar chegarasini o‘zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat

Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko‘chirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlarning ma’muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar, qishloqlar, ovullarning ma’muriy markazlarini belgilash va ko‘chirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga binoan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan nomlarni berishga, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki ushbu viloyatda mavjud bo‘lgan nomlarni berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar, ovullar, shaharchalar, aholi punktlariga odamlarning nomini berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga qoida tariqasida yo‘l qo‘yilmaydi.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, chegaralarini o‘zgartirish, ma’muriy markazlarni boshqa joyga ko‘chirish, aholi yashaydigan punktlarni shaharchalar toifasiga ko‘chirish, ma’muriy-hududiy birliklarni nomlash, nomini o‘zgartirish masalasiga bag‘ishlangan qarorlar albatta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasida chop etilishi lozim.

86-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga ega. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, o‘z navbatida, Qoraqalpog‘istonning ham davlat suverenitetini qo‘lga kiritishiga olib keldi. Qoraqalpog‘iston davlat suverenitetining poydevorini yaratishda dastlabki asos sifatida, 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur hujjatda Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika, deb e’lon qilingan edi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istonning 1990 yil 14 dekabrda qabul

qilingan “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi”da ham uning suveren maqomi belgilab qo‘yilgan. Mazkur Deklaratsiyaning 9-bandida Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti uning Konstitutsiyasi bilan ta’minlanadi, O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi manfaatlarini uning Asosiy Qonuniga ko‘ra va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq himoya qiladi, deb qayd etilgan edi.

Binobarin, Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi huquqiy maqomini mustahkamlashda 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi Qonun muhim o‘rin tutadi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududiy yaxlitligi va suvereniteti tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasini Qoraqalpog‘iston Respublikasini o‘z tarkibiga olgan unitar davlat sifatida e’tirof etish bilan birga, mamlakatimiz davlat tuzilishida federalizmning ba’zi xususiyatlari ham mavjud ekanligini ta’kidlash joizdir.

87-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomini belgilab beruvchi muhim huquqiy hujjatlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyalarini e’tirof etish mumkin.

1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, davlat hokimiyatining tizimini va davlat, jamiyat, shaxs munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Ta’kidlash joizki, mazkur konstitutsiya o‘zida jahon konstitutsiyaviy tajribasini, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va tartibga solishning ilg‘or amaliyotini, jamiyatning demokratik asoslarini mujassamlashtirgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 ta bob va 119 ta moddadan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ustunligini so‘zsiz tan oladi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi 1-moddasida “Qoraqalpog‘iston – O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradigan suveren demokratik respublika... O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi”, – deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida (Qoraqalpog‘iston esa uning tarkibiy qismidir) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Ushbu modda demokratik huquqiy davlatning eng asosiy belgilaridan biri Konstitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyilidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi belgilab qo‘yilgan.

88-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralari uning rozilgisiz o‘zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

Davlat hokimiyatining ta’siri ma’lum hududga va tegishlicha aholiga joriy qilinishi har qanday davlatning muhim belgisidir.

Davlatning o‘z hududida Konstitutsiyasining va qonunlarining ustunligi suverenitet belgilarining biri hisoblanadi. Konstitutsyaning ushbu moddasida Qoraqalpog‘iston o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi, deb mustahkamlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobi Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 67-moddasida “Tumanlar, shaharlar tashkil qilish va ularni tugatish,

shuningdek, ularning chegaralarini o‘zgartirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi” deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston hududlarini ajratib turadigan chegaralarni o‘zgartirish zaruriyati tug‘ilsa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligini olish lozim bo‘ladi.

89-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqining umumiyligi referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Mazkur moddada bayon qilingan qoida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1- va 9-moddalarida hamda referendumga oid O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlarida yanada rivojlantirilgan.

Referendum o‘tkazish haqidagi qarorni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jo‘qorg‘i Kengesi qabul qiladi, ovoz berish sanasini ham uning o‘zi belgilaydi. Referendumda qabul qilingan qaror Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida oliy yuridik kuchga ega va faqat referendum yo‘li bilan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Mazkur konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog‘iston xalqining o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqini, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining suverenitetini O‘zbekiston tan olganligini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu qoida xalqaro huquq normalariga mos keladi. Xususan, 1966 yil 16 dekabrdagi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro Pakt”da barcha xalqlar o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga egadirlar, deb belgilangan.

Ushbu moddada, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston tarkibidan chiqish huquqini amalga oshirish mexanizmi mustahkamlangan bo‘lib, bunda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berishi (umumxalq referendum) bilan hal etilishi lozimligi to‘g‘risidagi demokratik talab o‘z ifodasini topgan.

90-modda. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

Sharhanayotgan moddada Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi huquqiy maqomi ikki tomon o‘rtasidagi munosabatlarda davlat suverenitetini o‘zaro hurmat qilish va tan olish zamirida, qonunlar ustuvorligiga tayanib va unga rioya etib ish yuritish asosida amalga oshirilishi huquqiy jihatdan mustaqkamlangan.

Ikkala davlat konstitutsiyalarining normalari bilan bir qatorda, bu munosabatlar ular tuzadigan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonning munosabatlarini shartnomalar va bitimlar ko‘rinishida huquqiy mustahkamlab qo‘yish, o‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining, boshqa ma’muriy-hududiy birliklardan farqli o‘laroq, alohida maqomga ega ekanligini anglatadi.

Ta’kidlash joizki, har qanday huquq sub’ektlarining o‘zaro munosabatlarida muayyan masalalar yuzasidan nizolar va ziddiyatlar yuzaga kelishiga tabiiy hol sifatida qarash kerak. Bunda yuzaga keladigan nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida, ya’ni nizoli masalaning mohiyatini jiddiy va chuqur o‘rganish hamda buning natijasida har ikkala tomonning manfaatini e’tiborga olgan holda murosali qarorga kelinadi.

Ushbu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining rivojlanish jarayonida uning ijtimoiy hayotiga oid bo‘lgan barcha masalalar va muammolar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi doirasida hal etib kelinmoqda.

O‘zbekiston bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy Vakolatxonasi tuzilgan. Ushbu vakolatxona Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Vazirlar Kengashining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari va boshqa tashkilotlari bilan xo‘jalik hamda madaniy qurilish masalalari bo‘yicha kundalik aloqalarini amalgalash oshiruvchi organ hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarning siyosiy-huquqiy ahamiyati, ko‘lami va hajmidan kelib chiqib, ushbu Konstitutsiyani Yangi tahrirdagi Konstitutsiya deb aytish uchun barcha asoslar yetarli.

**2-AMALIY MASHG‘ULOT: 2030 YILGACHA O‘ZBEKISTONNING
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKKA
ERISHISH STRATEGIYASI. “YASHIL” VA INKLYUZIV IQTISODIY
O‘SISH TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN YUQORI IQTISODIY O‘SISH
DASTURLARI VA AMALIYOTGA TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI**

**Biz 2025-yilga mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va
“yashil” iqtisodiyot yili”, deb nom berdik. Asosiy
maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan
tizim yaratishdir**

**Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Prezidenti**

**1. Yashil texnologiyalarni joriy etish – atrof muhitni asrashning muhim
omili**

**Biz mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi
doirasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqdamiz.**

**Shavkat Mirziyoyev
BMT BA 78-sessiyasidagi nutqidan.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”, deb e’lon qilindi. Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Hukumat davlat dasturini ishlab chiqishda “yashil texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatarini yumshatsh, chiqindilar muammosini hal etish, eng muhimi aholi

salomatligini mustahkamlash kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratilishi belgilandi.

Ushbu masalaning ahamiyatiga Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 30 may kuni Koreya Respublikasida o‘tkazilgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida ham e’tibor qaratib “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi.

Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil” taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham o‘q”, deb ta’kidlagan edi.

“Yashil tadbirkor” platformasi – bu tadbirkorlik subyektlarini “yashil tadbirkor” sifatida e’tirof etishni nazarda tutuvchi platforma bo‘lib, loyihada “yashil tadbirkor” maqomini olish talablari va buning natijasida unga nisbatan qo‘llab-quvvatlov rлари aks etmoqda

Tadbirkorlik subyekalri esa quyidagi belgilangan ko‘rsatkichlarni bajargan aqdirda mazkur maqomga ega bo‘lishi azarda tutilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari

birinchidan, ko‘kalamzorlashtirish, jumladan, korxonani “yashil belbog” bilan o‘rash, sug‘orish tizimlarini o‘rnatish, tomchilatish, yomg‘irlatish va konteynerli (qopli) sug‘orish tizimini joriy qilish;

- ikkinchidan, energiya tejamkorligi, jumladan, energiya tejovchi uskuna va texnologiyalarni joriy qilish;
- uchinchidan, korxonaning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqbazarlik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;
- to'rtinchidan, ishlab chiqarishga sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish (7R) tamoyilini tatbiq etish.

Tadbirkorlar sinfi shakllanib, jamiyatimizda haqiqiy kuchga, islohotlar drayveriga aylandi. Buning natijasi o'laroq so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi 2018-yildagi 52,9 milliard dollardan 2023-yilda 90,9 milliard dollarga yetdi. Aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi 2018 yildagiga nisbatan qariyb 1,6 marotaba oshib, bugungi kunda 375,1 dollarni tashkil etmoqda⁸.

Ko'rيلотган чора-тадбирлар түфайли мамлакатимиз аввалида келтирганимиздек, 2021-2023-йillarda мамлакатимизда камбаг'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga pasayib, 1,6 millionga yaqin fuqarolar kambag'allikdan chiqdi. Bunday natijalarga erishishda aholini zamonaviy kasb-hunarlargaga o'qitish, ularga munosib ish o'rinnari yaratish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli va uzoqni ko'zlagan siyosat hal qiluvchi omil bo'lmoqda⁹.

Bugungi kunda bashariyat duch kelayotgan iqlim o'zgarishi, Orol dengizi halokati va boshqa ekologik inqirozlar oqibatlarini yengib o'tish, "yashil" iqtisodiyot va "yashil taraqqiyot", ayniqsa, "yashil" energiya sohalarini jadal rivojlantirish, "yashil" tiklanish va uglerod neytralligini ta'minlash, "yashil" energiya, ichimlik

⁸ Хидиров К. "Яшил тадбиркор" платформаси тадбиркорларга янги имкониятлар беради // "Янги Ўзбекистон", 2025 йил 10 январь №6(1332).

⁹ Рафиқов К. Шавкат Мирзиёев: "Мен умримни шу халққа тикканман" // "Халқ сўзи", 2024 йил 22 май, №99(8722).

suvi, yo‘l-transport infratuzilmasini takomillashtirish kabi masalalarni samarali hal etish bilan bevosita bog‘liq.

Hozirda O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya sohasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 600 million yevro mablag‘lari ishtirokida yirik loyihalar boshlangan. Ayniqsa, “ACWA Power”, “Masdar”, “Total Eren” kabi jahonning eng nufuzli kompaniyalari mamlakatimizda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirmoqda. 2023-yilda 2 ming megavattdan ziyod, 2024-yilda 8 ming megavatli quvvatlar ishga tushirildi¹⁰.

Bir paytning o‘zida “yashil taraqqiyotga erishish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uni rivojlantirishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Shu maqsadda ham Shavkat Mirziyoyev 2023-yil saylovoldi dasturida quyidagi dolzarb vazifalar belgilab berilgan edi:

Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilgi saylovoldi dasturi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish yo‘llari

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatga, ularning ulushini 14 foizdan 40 foizga yetkazish
- 2024-yildan boshlab sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini yaratish
- Avtobuslarni to‘liq ekologik toza elektr yoki gaz yoqilg‘isiga o‘tkazish
- Barcha yangi uylar va asbob-uskunalarga energiya tejash bo‘yicha talablarni joriy etish

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. Барқарор иқтисодий ўсиш – аҳоли фаровонлигини таъминлашнинг муҳим омили // “Халқ сўзи”, 2023 йил 14 июнь, №121(8464).



Natijada iqtisodiyotda energiya samaradorligi 2 karra oshib, 2030-yilga borib 50 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Yangi stansiyalar ishga tushishi bilan 10 ming kilometr magistral va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo etiladi.

Iqtisodiyot sohasida ham tub burilishlarni amalga oshiramiz. “Yashil iqtisodiyot”, “yashil energiya” tamoyillarini yanada keng joriy etamiz. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini bir necha barobar oshiramiz. Biz 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra oldik. Bunga erishish albatta oson bo‘lmaydi. Lekin bu yo‘lda aniq hisob-kitoblarimiz, real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslarimiz, intellektual va ma’naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli¹¹.

Erishilgan yutuqlar

- Murakkab geosiyosiy sharoitga qaramay 2024-yilda iqtisodiyotimiz 6,3 foizga oshib, 111 milliard dollardan ko‘paydi;
- Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kirdi, eksport 26 milliard dollardan oshdi;
- 2025-yilda yalpi ichki mahsulotni 120 milliard dollarga, eksportni 30 milliardga yetkazish, investitsiyalar hajmini 42 milliardan oshirish rejalashtirilmoqda;
- Qo‘sni mamlakatlarga chegaradan o‘tish bilan bog‘liq qator masalalar bo‘yicha yechim topildi. 13 yil yopiq bo‘lgan Andijonning “Xonobod”, “Mingtepa” va “Qorasuv” hamda 8 yil ishlamagan “Uchqo‘rg‘on” chegara postlari tiklandi.

¹¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг тадбиркорлар билан учрашувдаги нутки // “Халқ сўзи”, 2025 йил 1 январь, №1(8896); “Янги Ўзбекистон”, 2024 йил 21 декабрь, №259(1220).

Samarqand viloyatida energiya resurslariga tushayotgan bosimni yengillatish, qulay choralar ko‘rish uchun ko‘pgina muassasalar muqobil energiya resurslariga o‘tmoqda. Jumladan, 2024-yil dekabriga qadar viloyatdagi 1013 ta ijtimoiy obyekt va davlat idorasi “yashil” energiyaga o‘tkazildi. Qurilish sohasida qoidalar o‘zgarmoqda va sohaga energiya resuslarini tejovchi texnologiyalar jadal kirib kelmoqda. Bunday binolarni qurishda qish davrida issiqlik energiyasidan kamroq foydalanib, uyda issiqliknki ko‘proq saqlash imkonini beradigan, yozda esa salqinlikni ta’minlaydigan energiya tejamkor qurilish materiallari va texnologiyalaridan foydalanilmoqda.

Bu sa’y-harakatlarga hamohang yurtimizda elektr bilan harakatlanuvchi transportlar tobora ommalashmoqda. Ularning yurish xarajati oddiy avtomobilnikiga nisbatan 10 barobar, tabitga zarari esa 3 barobar kam. Shu bois, hozir Samarqand shahrida 36 ta elektrobus yo‘nalishlarga chiqarilgan¹².

Odam bir daqiqada 5-6 litr havo olib, chiqaradi. Bu jarayon orqali biz kislородни qabul qilamiz va korbonat angidridni chiqaramiz. Bir kishining kislородга bir kunlik ehtiyojini qoplash uchun 22 ta daraxt kerak. Sanoat inqilobi tufayli insoniyat tabiatga muttasil daxl qilishi va daraxtlar kesilishi natijasida biz qisqa yoki uzoq muddatli xavf-xatarga duchor bo‘lishimiz, hech ish qilmaslik, sayyoramiz “o‘pka”siz qolib ketishi mumkin ekan. Unday holatlarda jonimizga oro kiradigan – daraxtlar. Ularning har biri yiliga deyarli 22 kilogramm korbonat angidrid yutadi va yil davomida 120 kilogram kislород ajratadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummiliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi. Ekologik vaziyatni yaxshilashda noyob yechim sifatida xalqaro hamjamiyat e’tirofiga sazovor bo‘layotgan ushbu tashabbus natijasida oxirgi 3 yilda mamlakatimiz bo‘yicha jami 646 million tup ko‘chat va buta ekilgan. Orolbo‘yidagi yashil qoplama maydoni esa 2 million gektardan oshadi.

Muhtojlarga yordam berish, qiyngalganning qo‘lidan tutish kabi ezgu fazilatlar xalqiqmizning qonida bor. Odamlarimiz savobli amallardan hech qachon o‘zini

¹² Нормуродов Ш. Қуёш, шамол ва сув экологик тоза энергия манбаларидан оқилона фойдаланайлик // “Янги Ўзбекистон”, 25024 йил 19 декабрь, №257 (1218).

tortmagan. Ota-bobolarimiz ehtiyojmandlarga yelka tutib, xotirjamlik va qadlb osoyishtaligi bilan baxt yaratgan.

Davlatimiz rahbari raisligida o'tgan ijtimoiy himoya sohadagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda bildirilgan fikrlar barchamizni bu haqda chuqur o'ylashga, shunga qarab rejalar tuzishga undadi¹³.

Har qanday davlatda ham, har qaysi zamonda ham yordamga muhtoj, kam ta'minlangan, ko'p bolali, nogironligi bor yoki yolg'iz qariyalar uchraydi. Adolatli jamiyat esa ularni tashlab qo'ymaydi, himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Bugun yangi O'zbekistonning erkin bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ijtimoiyadolat va ijtimoiy barqarorlikka asoslangan xalqparvar siyosati xalqaro manbalarda e'tirof etilayotgani kishiga mammuniyat bag'ishlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda bu yo'lda tarixiy qadamlar tashlandi. Kuchli ijtimoiy siyosat aholi turmush darajasini yuksaltirish, daromad va yashash tarzida keskin tafovutlar, tengsizlikning oldini olish, har bir inson davlatning e'tibori va g'amxo'rlikdan chetda qolmasligini kafolatlash maqsadlarini izchil ro'yobga chiqarmoqda. Ijtimoiy himoya masalasiga jamiyatda barqarorlik va adolatli ta'minlashning muhim asosi deb qaralmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan ijtimoiy davlat tamoyili hayotda ro'yobga chiqmoqda.

Ijtimoiy himoya bo'yicha erishilayotgan natijalar buni tasdiqlaydi. Qiyoslasak, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o'zgarishlar, yangilanishlar nafaqat qarorlar va dasturlarda, balki oillar trmushida aks etayotganga ami bo'lamiz.

Yig'ilishda qayd etilganidek, mahalladagi ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, 2024-yil reyestrda bo'limgan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko'rsatdi. Bir necha uy minglab yurtdoshimizga nogironlik belgilangani, protez berilgani, nogironligi bor bolalarning bog'cha, maktabga joylashtirilgani – bu raqamlar oddiy raqamlar emas, ular ortida qanchadan-qancha hamyurtlarimiz roziligi masalasi bor.

¹³ Иноятов У. Ижтимоий давлат – инклузив жамият // “Янги Ўзбекистон”, 2024 йил 18 декабр, №2556 (1317).

Eng muhim, bu raqamlar belgilangan yangi vazifalar ijtimoiy davlat tamoyillarini mustahkamlab, yurtimizning inklyuziv jamiyatga aylanishiga mustahkam asos yaratmoqda.

Uch oy oldin viloyat va tumanlardagi 14 ming rahbar 75 ming kambag‘al oilaga biriktirilib, ular bilan individual ishslash yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2024-yil dekabriga qadar kambag‘al oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomorqa orqali 14 ming kishining daromadi oshirildi, 30 ming bola bog‘cha, to‘garak va kasbga o‘qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj fuqaroga tibbiy yordam ko‘rsatildi.

Mamlakatimizda kambag‘allik darajasini qisqartirish chora-tadbirlari ko‘rildi. Respublikamizda barqaror va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’ati ta’milanishi kambag‘allik darajasini 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqartirishga imkon yaratdi. 2025-yil yakuni bilan kambag‘allikni 6 foizga kamaytirish maqsad qilindi.

Suv resurslaridan foydalanish borasidagi mavjud muammolarni izchil hal etishni ta’minalash maqsadida, 2020-2030 yillarda suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiysi va Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish strategiyasi hamda “Suv kodeksi”ni ishlab chiqish ayni bugungi davr talabidir.

**Shavkat Mirziyoyev
Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 167-bet**

2. Suv bebafo boylik, uni tejash, ifloslantirmaslik va avaylab asrash – strategik vazifa

Iqlim bilan bog‘liq yana bir nechta tashvishli holat bor. Mamlakatimizda havo harorati yil sayin ko‘tarilib bormoqda. Oqibatda daryolar suvi kamayib, ichimlik suvi ta’mnoti dunyo xalqlariga jiddiy xavf solayotgani ham sir bo‘lmay qoldi. Bunday sharoitda nima qilshish kerak? Prezidentimiz mana shu masalalar yechimiga ham

e'tibor qaratdi. “Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari” mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdomiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Shundan so'ng mamlakatimizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilayotgani, bunday sheriklik manfaatlarimizga birdek mos bo'lib, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgani, bu borada “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni joriy etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish, uning asosiy mazmuni 2024-yil sentabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro iqlim forumida muhokama qilindi¹⁴.

**Suvdan foydalanish – suv zahiralaridan uni suv
manbalaridan ayrib olmasdan foydalanish
(gidroenergetika, suv transporti, baliq xo'jaligi va
boshqalar)**

Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi tasdiqlandi. Manzilli chora-tadbirkarning amalga oshirilishi natijasida birgina 2022-2023-yilning birgina chorasida 1,6 million aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlandi, 3,4 million aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilandi.

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish hamda ekin maydonlarida qo'shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, “Aqli suv”, suvni “onlayn” nazorat qilish, “Drayver” raqamli qurilmalar o'rnatish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratildi. Sohaga xorijiy

¹⁴ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Президенти БМТ Бош Ассамблейсининг 78-сессиясидаги нутки // “Халқ сўзи”, 2023 йил 20 сентябрь, №197 (8540).

investitsiyalarni jalg qilish natijasida 295 km. Uzunlikdagi kanallar va ulardagi 817 ta gidrotexnik inshoat rekonstruksiya qilindi¹⁵.

2019-2022-yillarda paxta maydonlarida suvni tejashga yo‘naltirilgan tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilgan 5 mingdan ortiq fermerlarga 138953 hektar maydonda ushbu texnologiyalarni joriy etgani uchun davlat tomonidan 1 trillion 44 millard so‘mdan ortiq subsidiya mablag‘lari ajratib berildi.

Yaxshi ma’lumki, mintaqamizning asosiy suv arteriyalari bir necha mamlakatlardan kesib o‘tgan bo‘lib, transchegaraviy suv serusralaridan foydalanish qo‘shni davlatlar bilan bahamjihat, kelishuvda ishlashni talab qiladi.

Ushbu muhim jihatni e’tiborga olib Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan mintaqaning transchegaraviy suv resurslarini birlgilikda boshqarishning o‘zaro maqbul mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Cheklangan resurs hisoblanmish suvdan samarali foydalanish maqsadida Prezidentimiz o‘z dasturida suvg‘orishda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish ishlarini yanada jadallashtirishni taklif etdi. ushbu takliflar (1.1.1-rasm).

Prezident Shavkat Mirziyoyevning suvdan samarali foydalanishda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish yo‘llari

- 1. 2030-yilga qadar ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish;
- 2. Dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni fermer va klasterlar boshqaruviga berish, suv yetkazish tizimiga rivojlangan davlatlar tajribasini keng joriy qilish;
- 3. Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlarni yanada rag‘batlantirish va bunga 10 foizli kredit ajratish, o‘z hisobidan joriy qilganlarga esa xarajatning 50 foizini qoplab berish tartibini joriy etish kabi takliflar o‘rin olgan.

¹⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги ўзбекистон – инсон қадри улуғланган мамлакат // “Халқ сўзи”, 2023 йил 21 июнь.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo‘yini ekologik innovatsilar va texnologiyalar hududi sifatida e’lon qilish bo‘yicha rezolyutsiyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyasi, BMTning Orolbo‘yi trast jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha tarixiy qarori qabul qilindi.

1,8 million gektar maydonda cho‘l o‘simliklarining urug‘i va ko‘chatidan “yashil qoplamlar” himoya o‘rmonzorlari barpo etildi. Buning uchun ishchi xodimlar va aholi tomonidan saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklarining urug‘lari jamharildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida oxirgi uch yilda jami 500 million donadan ziyod manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekildi. Bunda suvsizlik va qurg‘oqchilikka mos daraxt turlariga alohida e’tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning dasturida 2030 yilgacha quyidagi chora-tadbirlar va rejalar amalga oshirildi.

1. “Yashil makon” umummiliy loyihasini yanada kengaytirish.
2. Yashil maydonlarni ko‘paytirish uchun yiliga 400 millard so‘m ajratib borish orqali aholi maskanlari, umuman, mahallalarda ekologik muhitni yaxshilashga erishish.
3. Davlat idoralari, korxonalar, oliygohlarda ham o‘zining yashil bog‘larini tashkil etish.
4. Yangi uy-joy qurishda pudratchilarga yashil hudud va avtorurargoh barpo etishni majburiy talab qilib qo‘yish.
5. 2030-yilgacha respublikada ko‘kalamzorlashtirish darajasini 18 foizdan 30 foizga yetkazish.
6. Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni kelgusi 7 yilda 2,3 million gektarga yetkazish.
7. Toshkent shahrida amal qilayotgan boshqaruv kompaniyalari faoliyatini boshqa hududlarda ham joriy etish.
8. Barcha qishloq va shaharlarni qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish, ularni qayta ishlashni esa kamida 65 foizga yetkazish.
9. Muayyan hududga yangi hokim tayinlanganda, o‘sha yerda ekologik audit o‘tkazish, natijalarini jamoatchilikka e’lon qilib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, buning evaziga hudud aholisi hokim oldiga suv va havo tozaligi, ko‘kalamzorlashtirish darjasasi bo‘yicha aniq masala qo‘ya oladigan tizimni yaratish.

“Suvning hisobini ochiq oshkora yuritish tizimi joriy etiladi va kelgusi uch yilda 13 mingga yaqin suv xo‘jaligi obyekti raqamlashtiriladi. Shu bilan birga, 16 ta yirik nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilinadi va muqobil energiya o‘tkaziladi.

Bularga qo‘srimcha ravishda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarning bir qismi tumanlarda sug‘orish xizmatlarini rivojlantirish, ariq va kanallarni betonlashga yo‘naltiriladi.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdar yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suv bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof muhitni toza tutish kelgusi (2023) yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanish kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobjiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash loyihasi doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz¹⁶.

Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarimiz band bo‘lib, daromad olayapti.

Suvning ifloslanish darajasi

- 87 foiz odam toza ichimlik suviga ega
- 13 foizda toza ichimlik suvi yo‘q yoki ifloslangan suv manbaiga ega

- Ifloslangan suvning zararli ko‘rsatkichlari – ifloslangan suvning insonga tokсин (sanitar-toksikologik) ta’sirini, suvning orgonoleptik xususiyatlari va suv havzalari o‘z-o‘zini tozalash jarayoni (umumsanitariya)ning yomonlashuvini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar. Ifloslantiruvchi moddalarining umuman suv uchun salbiy ta’siri chegarasidagi konsentratsiyasi (STCHK), asosan, ifloslangan suvning zararlilik ko‘rsatkichlaridagi limitlashtiruvchi ko‘rsatkich asosida belgilanadi.

- Artezian suv (Fransiyadagi Artua viloyati nomidan kelib chiqqan) – suv bardosh qatlamlar o‘rtasida joylashgan va suv bosimi baland bo‘lgan yer osti suv havzalarini hosil qiluvchi suvlar. Suv bosimi ortib ketganda o‘z-o‘zidan yer yuziga ko‘tarilishi yoki favvora kabi otilib chiqishi mumkin.

- Drenaj suvlari (ingl. Drain - quritish) drenaj orqali yig‘iladigan yer usti yoki yer osti suvlar.

- Cho‘llanish – cho‘llar (sahro)ning qo‘shni hududlari hisobiga kengayishi. Cho‘llanish ham tabiiy sabablarga ko‘ra, ham tabiatga bo‘lgan atropogen ta’siri oqibatida sodir bo‘ladi.

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Янги Ўзбекистон”, 2022 йил 21 декабрь, №259(781).

3. Ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirishning o‘ziga xos xususiyatlari

**“Fuqarolar atrof tabiiy muhitga
ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga
majburdirlar”.**

Prezidentimizning 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishi Yangi O‘zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta’minalashga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo‘ldi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi esa xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri – bo‘sh yerga ko‘chat ekish, bog‘rog‘ barpo etish an’anasini tikladi. Har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chati ekilib, katta-katta bog‘lar barpo etilmoqda. Yurtimiz tuprog‘i shunday mo‘jizakor: yepga bir cho‘p suqilsa ham, barg yozib, novda chiqaradi. Bundan zavqlangan har bir kishining bog‘ yaratgisi keladi. Bu borada Samarqand viloyatida 2024-yilda 11 million 609 ming tup daraxt va buta ko‘chati ekildi. Jumladan, 7,2 gektarda “yashil bog‘lar” hamda 3,2 gektarda “yashil belbog‘lar”, shuningdek, 10,5 gektar yerda “Hokimlik bog‘lari” barpo etildi. Ko‘chatlarni parvarish qilish va sug‘orish maqsadida 60 kilometrli sug‘orish tarmog‘i tortilib, 36 ta yer osti suv qudug‘i ishga tushirildi. Bundan tashqari, suv yetib borishi qiyin bo‘lgan manzillarga sug‘orish uchun mo‘ljallangan 40 ta maxsus texnika jalb etildi.

Yashil zona – shahar yaqinida belgilangan tartibda ajratilgan, yashil o‘simliklar bilan qoplangan va shahar uchun alohida muhitni himoya qiladigan, sanitar – gigiyenik, rekreatsion va xo‘jalik ahamiyatiga molik hudud.

2025-yil hududlarda atmosfera, yer va suv resurslarini muhofaza etish va turizm sohasini rivojlantirishga ham aloqida e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlarga e'tibor qaratsak. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimizda 2024-yilda jami 224 mln. tup ko'chat ekildi. Yirik sanoat korxonalarini hududlari va atrofida 5,3 mln. tup daraxt ko'chatini ekish orqali "yashil belbog"lar tashkil qilindi¹⁷.

138 ta sanoat korxonasida samaradorlik darajasini yuqori bo'lgan chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatildi. Natijada atmosfera havosiga 6,5 ming tonnadan ortiq zararli mamlakatlarning olindi. Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi 19573 ta obyekt davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilib, 688 ta korxonada ekologik monitoring amalga oshirildi.

"Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonot obyektlariga yetkazilgan zararni undirish summalarini 10 baravarga, o'simliklar va daraxtlarni noqonuniy kesganlik uchun jarimalar 5 baravarga oshirildi.

"Qizil kitob" – noyob va yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi organizmlarning ro'yxati. Xalqaro, milliy va mahalliy "Qizil kitob"lar hamda alohida o'simlik, hayvonot olami va boshqalar sistematik guruhlarning "Qizil kitob"lari mavjud.

Fauna (lot. Fauna – qadimgi Rim mifologiyasida dala va o'rmonlar hukmdori, chorvalar homisi) – muayyan hududda yashayotgan (yoki yashagan) barcha hayvon turlarining evolyutsiya jarayonida tarixan shakllangan muammosi. Hayvonot olami iborasi bilan bir xil ma'noni anglatadi.

Ekologik vaziyatni yaxshilash uchun "GREEN CITY INDEX" uslubiyoti asosida 13 ta hududning ma'muriy markazi va Toshkent shahrining ekologik pasportlari va ekologik reytingi shakllantirildi. Xalqimizni shaharlar ekologik barqarorligining joriy reytingi to'g'risida habardor qilish, shuningdek fuqarolarga

¹⁷ Бобоназарова Ж. Огоҳлик қўнғирогига бепарво бўлмаслигимиз керак // "Халқ сўзи", 2025 йил 4 январь, №2 (8897).

shaharlarda atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha ishlab chiqilgan hujjatlardan foydalanish platformasi ham ishga tushirildi.

Markaziy Osiyoda dastlabki ekologik muammolarga ilmiy yechim topishga qaratilgan ilmiy dargoh – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti faoliyati tashkil etildi.

Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 222 ming hektar maydonda o'rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirdari amalga oshirildi. Jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi hududlarida qum ko'chish hamda atmosfera havosiga tuz-chang ko'tarilishini bartaraf etish maqsadida 215 ming hektar maydonda "yashil qoplamlar" barpo qilinib. Ularning maydoni 1,9 mln. hektarga yetkazildi.

Cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida cho'llanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish maqsadida 1 ming hektar maydonda himoya o'rmonzorlari yaratildi. O'rmon barpo etish hamda ko'kalamzorlashtirish tadbirdari uchun daraxt va butalarning 1039 tonna urug'lari jamg'arilib, 127 mln. tup manzarali va mevali nihol va ko'chatlar yetishtirilmoqda. Niholxona va ko'chatxonalar maydoni 1,1 ming hektarni tashkil etadi.

Bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishda boshqaruvi organlari va hududiy mahalliy tuzilmalar faoliyatini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq. Zero, atrof-muhitni asrash sayru sayohat va dam olish uchun xavfsiz imijni rivojlantirish hamda turizm brendi asosida tur mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqishda alohida o'rin egallaydi.

"Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ham barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz" .

Bioxilmaxillikni saqlash uchun muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ro'yxatdan o'tmagan 61,2 ming hektar yerlari to'liq davlat ro'yxatidan o'tkazilib, 97 ta o'simlik turi, 106 ta hayvon turi va 46 ta obyektning geoaxborot ma'lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga kiritildi. Sun'iy yo'ldosh suratlari orqali 254,1 mln. tup daraxtning koordinatlari aniqlanib, raqamli xaritasi yaratildi, shuningdek, 600 mingdan ortiq daraxtlarning pasporti shakllantirilib, to'liq parametrlari bo'yicha ma'lumotlar elektron platformaga kiritildi .

O‘zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda iqlim bo‘yicha Parij bitimiga qo‘shilgani mamlakatimizning “yashil” taraqqiyot talablarini bajarish majburiyatlarini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda “yashil” o‘sishning drayveri bo‘la oladigan ekologiya, energetika, ilm-fan va innovatsiyalar, turizm kabi sohalarga doir qonunlardagi ba’zi nomuvofiqliklar, bir-birini inkor etuvchi jihatlarni bartaraf qilish zarur. Zero, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va shu asnoda Yangi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, yangi bozor subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib borishga erishiladi.

Orol bo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘ramiz.

Shavkat Mirziyoyev

4. Орол фожиасининг оқибатларини юмшатиш – глобал муаммоларининг долзарб жихатлари

2023-yil 19-sentabrdagi Prezident Shavkat Mirziyoyev Nyu-York shahridagi BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan o‘rin olgan 10 ta aspekt bugun har birimizni jiddiy o‘ylantirmog‘i, dunyoga, hayotga va jamiyatga yangicha nazar bilan qarash, shaxsiy, umummilliy, umummintaqaviy munosabatlarimizda anjumand birdamlik ruhini shakllantirmog‘i shart va zarur.

Sakkizinchasi aspekt uchta inqirozni o‘z ichiga oldi. Bular: iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xilllik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Orol dengiing bugungi holatiga alohida to‘xtaldi. Murakkab sharoitda Orol dengi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganiga urg‘u berildi. Ammo biz bu global inqiroz oldida aslo tomoshabin emasmiz. Nega deganda, bugun Orolning qurigan bag‘rida yashil hududlar yaratishga

jiddiy kirishganmiz. Keyingi yillarda bu hududda 1,7 million hektar maydonda qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar ekdis.

BMTning keng makonida bu boradagi sa'y-harakatlarimizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi ham juda muhimligi aytisi. Chunki Orol faqat bizning muammo emas, u mintaqasi davlatlari osha dunyo iqlimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgani shundan ham ma’lum.

Orol dengizining qurigan tubidan qo‘sishimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiyligi hajmini 2,5 million hektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 80-maqсад.

Bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hozirga kelib, chin ma’noda xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlar, jumladan, Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Qo‘sni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli a’zosi sifatida ekologiya sohasida o‘nlab xalqaro konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan. BMT tomonidan qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiya tashabbuskori bo‘ldi.

Shu bilan birga, qator muhim majburiyatlarni bajarish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasi amalga oshirilmoqda. Ushbu majburiyatlar fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta’minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirishda iqlim o‘zgarishlarining ta’sirini yumshatishga qaratilgan.

Yer sharida aholi soni ortishi, atmosferada zararli gazlar miqdori ko‘payishi bir qancha ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning ustiga yangidan-yangi ekologik tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Dunyoning bir burchagida issiq ob-havodon odamlar jabr chekayotgan bo‘lsa, yana bir joyda suv toshqini kuzatilmoqda. Qaysi bir issiq mintaqalarda qor, do‘l, yomg‘ir yog‘ib, katta-katta hududlarni suv bosmoqda.

Xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq global muammolar, o'z navbatida, barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib, iqlim o'zgarishi sababli 216 milliondan ortiq odam o'z mamlakatini tark etishi mumkin. Xususan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda 5 million iqlim migranti paydo bo'lishi taxmin qilinmoqda . Shu boisdan ham iqlim o'zgarishining oqibatlarini yumshatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda "yashil" energetika iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylantirilmoqda. Davlatimiz rahbari barcha yirik xalqaro anjumanlarda dunyo jamoatchiligi e'tiborini bu muammolarga qaratib kelmoqda. Xususan, 2024-yil noyabrida Ozarbayjonda bo'lib o'tgan Iqlim summitidagi nutqida beshta muhim taklif va tashabbusni ilgari surdi.

**Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil noyabrda
Ozarbayjonda bo'lib o'tgan Iqlim summiti nutqidagi 5 ta muhim
taklif va tashabbuslar.**

1. Rivojlangan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko'magini kengaytirish. "Bu borada iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markazi ta'sis etishni taklif qilamiz", dedi davlatimiz rahbari.

2. Transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xillikni saqlashda yagona yondashuvlar zarurligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari "Mintaqamiz misoldida aytib o'tmoqchimanki, bir avlod ko'z o'ngida Orol dengizining butunlay yo'qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiaga aylandi. Shu o'rinda biz BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdomiz", dedi.

3. Ko'p tomonlama yetakchi tuzilmalar ishtirokida o'simliklarning iqlim o'zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirish reja qilingani bildirildi. Bu haqda gapirar ekan, "Dengizga chiqish imkonni bo'lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMT innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz", dedi davlatimiz rahbari.

4. Iqlim o'zgarishidan zarur ko'rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo'yicha ilg'or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari Iyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o'tkazish taklif qilindi.

5. Prezidentimiz "Kelgusi yili (2025) 15-may – Xalqaro iqlim kunida Orolbo'yi mintaqasida o'tkaziladigan Raqamli "yashil" tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlarimiz vakillarini kutib olamiz", deya g'oyat muhim tashabbuslarni bildirdi.

Shuningdek, Parij bitimi doirasida mintaqada havo haroratining jadal o‘ishia yo‘l qo‘yilmaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolish, bu borada O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy davom ettirayotgani qayd etildi .

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim o‘zgarishlari bugun asosiy global tahdidiga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta’minalash, ichimlik suv va resurslaridan foydalanish muammolariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

2030-yilgacha havoga issiqxona gazi chiqarilishini 35 foiz kamaytirish, bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirish, shuningdek, “yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va “yashil” vadorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablari yaratilayotgani bu muammoning oqilona yechimidir.

So‘nggi yillarda Orolning qurigan tubida 2 million gektarga yaqin yerda ekilgan o‘simliklarning dastlabkilari ko‘karib, dengiz tubini yashil qoplamaga aylantirmoqda. Bu esa dengizning ochilib qolgan hududidan zararli qum atmosferaga ko‘tarilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Global iqlim o‘zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoat rivojanishi va aholi soni ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga ehtiyojini keskin oshirmoqda. Shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Konstitutsiyamizning 66-mddasida “Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mo-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak”, deb qat’iy mustahkamlangan. Ushbu normaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, ikkinchidan, mulk egalarining har qanday ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, “yashil” iqtisodiyot tizimini shakllantirishning muhim omilidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan Konstitutsiyamizning 68-moddasida "Yer, yer osti bo'shliqlari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" , deb mustahkamlanishi davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasini bildiradi. Xususan, ushbu norma, birinchidan, har bir davlatning suvereniteti, avvalo, uning hududidagi tabiiy resurs va boyliklarga mustaqil egalik qilish huquqi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarga nisbatan mulk masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqimizning umummilliy boyligi, ya'ni davlatimizning mulki sifatida konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlanmoqda.

2024-yil 17-dekabrdan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi va Global ekologik fondning qo'shma "Orol dengizi xavzasini landshaftining tanazzul yerlarida barqaror hayotni ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydigan asos sifatida ko'llar, suvbotqoq va qirg'oqbo'yi hududlarini saqlash hamda boshqarish" (Aral wetlands) hamkorlikdagi loyihasini amalga oshirish doirasida O'zbekiston NNTlar milliy assotsiatsiyasi Qoqaqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'limi a'zolari bilan axborot uchrashuvi bo'lib o'tdi¹⁸.

Loyihaning asosiy maqsadi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, asosiy biologik xilma-xillik hududlari va asosiy ornitologik hududlar atrofidagi samarali landshaftlarining yer va suv resurslarini kompleks boshqarish bilan birgalikda tuproq degradatsiyasining oldini olish orqali quyi Amudaryo va Orol dengizi xavzalarida va hayot uchun vositalarning barqarorligini yaxshilash hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etishda, maqsadlari atrof-muhitni muhofaza qilish hisoblangan, jamoat ekologik tashkilotlari muhim rol o'ynashlari mumkin va zarurdir. Orolbo'yi mintaqasida turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha 30 ga yaqin ekologik jamoat tashkilotlari mavjud bo'lib, ular muvaffaqiyatli faoliyat

¹⁸ Аироф-муҳит муҳофазасида жамоат экологик ташкилотларининг ўрни // "Жамият", 2024 йил 26 декабрь, №52 (921).

ko‘rsatmoqda. Shakllari turli xil bo‘lishiga qaramay, barcha jamoat ekologik tashkilotlarining maqsadlari umumiyyidir:

Ekologik bilimlar va tarbiya

- Jamiyat oldida turgan ekologik muammolarni hal qilishda ko‘mak berish;
- Ekologik ahamiyatga ega axborotni tarqatish (bukletlar, broshyuralar, jurnallar chiqarish, ekologik saytlar yaratish va boshqalar) orqali ekologik bilimlarni targ‘ib qilish
- Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish (seminarlar, ommaviy ma’ruzalar va suhbatlar, ommaviy ekologik kutubxonalar, tabiatni muhofaza qilish kunlariga bag‘ishlangan tadbirlar va tanlovlardan hokazo);
- Jamoatchilik atrof-muhitni ekologik monitoringgi, ekologik nazorat (jamoat nazorati, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazish, fuqarolarning ekologik huquqlarini sud orqali himoya qilish).

5. Chiqindilar muammosini hal qilish va aholi salomatligini mustahkamlashning ustuvor vazifalari

Chiqindilar – muayyan joylarda ma’lum qoidalarga asosan joylashtiriladigan va keyinchalik ishlatiladigan, qayta ishlov beriladigan yoki yo‘q qilinadigan, ko‘miladigan hom ashyo, materiallar qoldiqlari, talabga javob bermaydigan asosiy va qo‘srimcha mahsulotlar, ishlatiladigan va o‘zining oldingi sifatini yo‘qotgan tayyor mahsulotlar.

Prezidentimiz tomonidan Sayxunobod, Uychi. Zarbdor va G‘ijduvon tajribalarini keng tatbiq etish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar asosida oshirilayotgan chora-tadbirlar bu mahallada ham qator muammolarni hal etish imkonini berdi.

Ushbu tajribalar asosida tuman hokimligi, mahalla yettiligi tadbirkorlar bilan hamkorlikda hududda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida amalga oshirishga mo‘ljallangan drayver yo‘nalish – mikrosanoat va xizmat ko‘rsatish markazini barpo etish loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha mahalla ahlining doimiy “bosh og‘rig‘i” bo‘lib kelayotgan sobiq chiqindi poligoniga joylashtirildi. Ham noqonuniy chiqindixona tugatilib, ozodalik, osoyishtalik ta’minlandi, ham mikrosanoat va xizmat ko‘rsatish markazi qulay hududga joylashdi. Bu ishlar oson kechmadi, albatta. Avvalo, markaz joylashadigan hududdagi chiqindilarni chiqarib tashlash, poligoni zararsizlantirish va obodonlashtirish uchun katta hajmdagi ishlar bajarildi. Mahalliy budget hisobidan 0,5 kilometr elektr uzatish tarmog‘i, quvvati 160 KVt hajmda 630 KVt bo‘lgan 5 ta transformator nimstansiyasi, 2 kilometr masofada yo‘l, 0,5 kilometr ichimlik suvi uzatish, 0,3 kilometr tabiiy gaz uzatish tarmog‘i tortildi¹⁹.

Tadbirkor sarmoyasini qulay joyga tikadi. Bu – biznesni rivojlanadirishning asosiy qoidasi. Sanoatchilar mahallasida yaratilgan infratuzilma ham tadbirkorlarni jalg etdi. Bundan tashqari, yangi markazda ish boshlagan tadbirkorlar uchun bank kreditlari ajratilishi qiziqishni yanada oshirdi.

Ushbu mikromarkazdagi “Lola chinnilari” mas’uliyati cheklangan jamiyatida chinni buyumlari, “Do’stlik innovatsion textil” MCHJda hal xil turdag'i sumkalar va maxsus kiyimlar, “Manas apas Cluster” MCHJ gazli va gazlanmagan ichimlik suvlari ishlab chiqarish kabi loyihamalar ishga tushdi. Tikuvchilik majmuasida ishlab chiqarilayotgan kiyim-kechaklar Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinmoqda, - deydi Do’stlik tumani Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Olimjon Qahhorov. Rossiyalik hamkorlar bilan 5 million AQSH dollari miqdoridagi mahsulotga shartnoma imzolangan. Chunki buyumlar esa Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport qilinmoqda.

Jahonda sanoatning juda tez rivojlanishi oqibatida atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilarning umumiyligi hajmi bir necha barobar ortdi. Har yili atmosferaga 90

¹⁹ Исмоилов М. Чиқиндиҳона ўрнида микросаноат ва хизмат кўрсатиш маркази // “Ishonch” газетаси, 2025 йил 7 январь, №4-5 (5069).

million tonnadan ortiq zaharli gazlar – karbonat angidrid, azon oksidi, uglevodorod, benzatiren, qo‘rg‘oshin chiqariladi. Hozirgi vaqtida faqat havo emas, suv, tuproq ham ifloslanib bormoqda. Tashlangan chiqindilarning ayrimlari tez parchalanib ketsa, ayrimlari uchun bu jarayonga yuz ming, millionlab yillar talab qilinadi. Masalan, shisha bir million yilda parchalanib zararsizlanadi, polietilen xaltalar parchalanishi uchun 400 yil kerak, rezina 50-80-yilda, neylon mahsulotlari esa 30-40-yilda parchalanadi.

Mamlakatimizda tabiatdan oqilona foydalanish, uning boyliklarini muhofaza qilish, tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlarni tartibg asolish borasida tegishli qonunlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga katta e’tibor berilmuoqda. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir (68-modda)”, deyiladi.

Bosh qomusimizda qayd etilgan mazkur moddalar davlat va jamiyatning, xususan, fuqarolarning tabiat oldidagi burchi, mas’uliyati, majburiyati va tabiat boyliklaridan foydalanish huquqini yaqqol namoyon etadi.

1992-yil Rio-da-Jeneyro shahrida o‘tkazilgan BMTning Atrof-muhit masalalariga bag‘ishlangan konferensiyasi atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishidagi muhim voqealardan biri bo‘ldi. Shundan so‘ng yurtimizda “Alovida muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida” (1993), “Yer osti boyliklari to‘g‘risida” (1994), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” (1996), “O‘simplik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida” (1997), “O‘rmon to‘g‘risida” (1999)gi qonunlar qabul qilindi²⁰.

O‘zbekiston BMT tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlagan holda, mazkur tashkilotning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasi, Ozon qatlamini

²⁰ Мухторалиев С. Экологик назоратнинг жамоатчи инспектори учун услубий қўлланма. –Т.: “Chinor ENK” Экологик-ноширлик компанияси, 2016.-5-6 б.

himoya qilish bo‘yicha Vena konvensiyasi va unga kiritilgan tuzatishlarga qo‘shilgan, Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyaga qo‘srimcha tarzda qabul qilingan Kioto protokolini imzolagan.

Og‘riqli nuqtalardan biri – noqonuniy chiqindixonalar faoliyatidir. Yashab turgan joyimizni turli chiqindilar bilan ifloslantirish, avvalo, o‘zimiz, qolaversa keljak avlodlarimiz sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tibbiyot xodimlari muntazam ta’kidlab kelishadi. Ming afsuski, ba’zi fuqarolarimiz, xatto ayrim mansabdor shahslar ham bu masalaga panja orasidan qarashadi. Nahotki ular “duch kelgan joy – chiqindixona emas”ligini anglashni istamasalar.

Ekologik muammolar boshqa barcha muammolar singari insonning ichki olami, uning ma’naviy dunyosi qay darajada ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, inson ichki dunyosining tashqi dunyodagi aksi sifatida qaralishi kerak. Hozirda yuzaga kelgan ekologik holatni, agar ta’bir joiz bo‘lsa, inson ruhidagi ma’naviy kemtiklikning, zamondoshimiz dunyoqarashi va ongidagi muayyan bo‘shliqning natijasi, deya qayd etish mumkin.

2002-yildagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunda emissiya va havo va suv ifloslanishidan tashqari, chiqindini chiqarish vayta ishlash masalalari ko‘rib chiqiladi, inspeksiya o‘tkazish. Muvofiglashtirish, chiqindini qayta ishlashga ruxsat etiladigan joylarga nisbatan ekologik ekspertiza o‘tkazish belgilandi. Qonunda fuqarolarning xavfsiz va sog‘lom atrof-muhitga, loyihamar muhokamasida qatnashishga, hayoti, sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zarar qoplanishiga haqlari borligi ta’kidlandi²¹.

Maishiy chiqindilarni yig‘ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

**2022-2026-yillarga mo‘ljallangan
Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot
strategiyasi, 80-maqсад.**

²¹ Ҳакимов Н. Ҳ. Инсон экологияси. Монография. –Т.: “IQTISODIYOT”, 2021.-28 бет.

Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida 2025 yil 7 apreldan boshlab chiqindilar utilizatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil” tariflarni joriy qilish taklif etilyapti. Bu “yashil” energiyadan foydalanayotgan xalqimiz uchun ham, tadbirkorlarimiz uchun ham katta imkoniyat va yengillikdir.

Turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro meyoriy va standartlarni joriy etish belgilab olindi.

**Shavkat Mirziyoyev
Yangi O‘zbekiston taraqqiyot
Strategiyasi, 179-bet.**

6. Turizm – iqtisodiy barqarorlik va farovonlik manbai

Sayyoqlik jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Boisi, bu soha aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirishda muhim o‘rin tutadi. U orqali topilgan daromadning 30 foizi odamlarga ish haqi sifatida beriladi. Holbuki sanoat va boshqa tarmoqlarda bu ko‘rsatkich 10 foizdan oshmaydi. Demak, turizmni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka xizmat qiladi.

O‘zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi, mehmondo‘st xalqi hamda go‘zal tabiat bilan sayyoqlik sohasida katta imkoniyatga ega. Mamlakatimizda 800 dan ziyod madaniy obyekti mavjud. Ularning bir qismi YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabx va Termiz shaharlari jahonga mashhurligi bilan ajralib turadi.

Jahon iqtisodiy forumi e’lon qilingan “Sayohat va turizm rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Bu e’tirof mamlakatimizdagi xalqaro sayyoohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e’tibor kuchayib borayotganini bildiradi.

Oktabrda (2024) London shahri mezbonlik qilgan marosimda O‘zbekiston nufuzli “Wanderlust Reader Travel Awards 2024” mukofotining “Engi yaxshi rivojlanayotgan yo‘nalish” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi. Rossiyaning “Russian traveler” jurnalni o‘tkazgan milliy turizm mukofoti tanlovi natijasiga ko‘ra, 2024-yilda “O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi sayohat yo‘nalishi” deb topildi²².

Sayyoqlik tarmog‘i o‘sib bormoqda. Xususan, 2024-yilning 11-yida 9,4 milliondan ziyod sayyoq kelgan. Vaholanki, 2016-yilda bu raqam 1,3 million, 2022-yilda esa 5,2 millionni tashkil etgan.

2024-yilda jami 9,4 million nafar turizm va boshqa maqsadlarda xorijiy sayyoqlar tashrif buyurdi, ularga ko‘rsatilgan turizm xizmatlari eksporti 3,1 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga o‘sdi. Yevropa, olis hamda qo‘shni mamlakatlardan keluvchi sayyoqlarning o‘rtacha harakatlari 2022-yilga nisbatan 2024-yilda 1,5 barobarga oshgan.

Qo‘shni va MDH mamlakatlaridan sayyoqlar soni 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga, uzoq xorijdan 2,5 barobarga oshdi. Xitoydan 1,3, Italiyadan 4,3, Hindistondan 3,8, Germaniyadan 2,1, Turkiyadan 1,4 va Janubiy Koreyadan 2 barobar ko‘p sayyoqlar tashrif buyurdi. Indoneziyadan ziyorat turizmi maqsadida tashrif buyurgan sayyoqlar soni 14,6 va Malayziyadan 6,1 barobarga oshdi . 25-26-aprel kunlari “Shahrisabz – Iqtisodiy hamorlik tashkilotining turizm poytaxti” xalqaro forumi va “Xiva – 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” shiori ostida 2024-yil 31-may – 2-iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlari turizm vazirlari XII yig‘ilishi tadbirlari yuqori saviyada o‘tkazildi.

Shu nuqtai nazardan, 2025-yil amalga oshiriladigan chora-tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Bundan ko‘zlangan maqsad atrof-muhitga, hudud va mintaqaga tabiat, hayvonot olami, bioxilma-xillikka zarar yetkazilishinig oldini olishdir.

²² Шодиев У. Сайёхлик ривожи бўйича энг фаол мамлакат. Ўзбекистон кисқа муддатда бу мақомга қандай эриши? // “Янги Ўзбекистон”, 2025 йил 10 январь, №6 (1332).

Ilk marta mart, avgust va sentabr oylarida barcha hududlarda “Ichki turizm yarmarkalari” tashkil qilindi. Ushbu yarmarkalarda ichki turizm yo‘nalishidagi 1700 ga yaqin tadbirdorlik subyektlari, jami 18,0 mingdan ortiq ishtirokchilar tashrif buyurdi. Yarmarka doirasida ichki sayohatlarni tashkil etish bilan bog‘liq qiymati 20,0 mlrd. so‘mga yaqin 1300 dan ortiq shartnoma va bitimlar imzolandi.

“BMT Turizm” (Butunjhon turizm tashkiloti) ma’lumotlariga asosan O‘zbekiston turizm xizmatlaridan tushgan tushumlar (eksport) bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatildi, tushumlar 2019-yilga nisbatan ikki baravardan ko‘proq (+ 133%) ga oshgan. O‘zbekiston turizm eksporti oshganligi bo‘yicha Yevropa destinatsiyalari o‘rtasida eng yaxshi ko‘rsatkichga erishdi.

Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan e’lon qilingan “Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra O‘zbekiston 2024-yilda “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Bu e’tirof mamlakatda xalqaro sayyoohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e’tibor kuchayib borayotganini bildiradi. Londonda bo‘lib o‘tgan marosimda O‘zbekiston nufuzli “Wanderlust Reader Travel Awards 2024” mukofotining “Eng yaxshi rivojlanayotgan yo‘nalish” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi. Rossiyaning “Russian traveler” jurnali tomonidan o‘tkazilgan milliy turizm mukofotining tanlovi natijasiga ko‘ra 2024-yilda “O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi sayohat yo‘nalishi” deb topildi.

O‘zbekiston turistlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator choralar ko‘rilgan. Hozirgi kunda mamlakatda turizm sektori tez rivojlanib bormoqda va turli sohalardagi xizmatlar o‘zgarib, yaxshilanmoqda. Turistlar uchun yaratilgan asosiy imkoniyatlar va qulayliklar haqida quyidagilarni aytib o‘tish mumkin²³:

²³ Эсанмуродов У. Мамлакатнинг “ташриф қофози” // “Жамият”, 2024 йил 26 декабрь, №52 (921).

Turistlar uchun yaratilgan qulayliklar

- Vizit tizimi:** O‘zbekistonda turistlar uchun vizasiz rejim kengaytirilgan. 90 dan ortiq davlatning fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz kirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, elektron viza tizimi joriy qilingan, bu esa turistlarga viza olish jarayonini osonlashtiradi.
- Transport tizimi:** O‘zbekistonda ichki transport infratuzilmasi ham tez rivojlanmoqda. Turistlar uchun aviareyslar, temir yo‘l hamda avtobus xizmatlari yaxshilangan. Bundan tashqari, taksi va kartering xizmatlari ham mavjud, bu esa turistlar uchun harakatlanishni ancha oson va qulay qiladi.
- Turistik infratuzilma:** O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar, kurortlar va turizm markazlari ochildi. Mehmonxonalar zamonaviy xizmatlar, sport zallari, restoranlar va suv havzalari bilan ta’milangan. Shuningdek, mahalliy xalqning mehmondo’sligi ham turistlar uchun yana bir katta qulaylikdir.
- Turistik yo‘nalishlar:** O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yo‘nalishlar boy, shu bilan birga tabiat mazaralari va o‘ziga xos arxeologik yodgorliklarga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi obidalar, madaniy tadbirlar turistlar uchun jozibali bo‘lgan asosiy yo‘nalishlardir.
- Ishlab chiqari va savdo:** Turistlar uchun suvenirlar va mahalliy mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlari ham ko‘paytirilgan hududlarda turli markazlar va suvenir do‘konlari, shuningdek, mahalliy qoliqlar va an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlari keng tarqalgan.

Turizm sohasi ekologik barqarorligini ta’minlash va “yashil turizm”ni rivojlantirish orqali mamlakatning turistik jozibadorligini oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-iyuldagagi “Toshkent shahridagi mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholi uchun qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi qaroriga muvofiq, Toshkent shahri tumanidagi 24/7 rejimda faoliyat ko‘rsatuvchi 18,9 km.ni tashkil etadigan “Gastronomik va turizm ko‘chalari”ni tashkil qilish belgilangan.

Umuman, 2019-2025-yillarda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dan olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini

mustahkamlashga qaratilgan yagona milliy turizm brendini yaratish bo'yicha ham chora-tadbirlar belgilab olingan.

Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili uchun ishlab chiqilgan dastur mamlakatimizda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yangi bosqichni boshlab beradi. Ushbu hujjat nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki iqtisodiy yuksalish, ijtimoiyadolat va salomatlikni yaxshilash orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Uning samarali amalga oshirilishi esa O'zbekistonni mintaqadagi "yashil" iqtisodiyot va ekologik rivojlanishning namunasiga aylantiradi.

3-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: IJTIMOIY RIVOJLANISH VA INSON KAPITALI, YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASH. (2 soat).

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Strategik islohotlar jarayonida O'zbekiston o'z oldiga ulkan maqsad va rejalarini qo'ygan.

Ularni hayotga tatbiq etish uchun O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos yetuk kadrlar, mutaxassislar zarur.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Mamlakatda tarixan qisqa muddatda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlili asosida quyidagi ijobiy tendentsiyalarni ko'rsatmoqda.

Birinchidan, ta'lim sohasiga yondashuv tubdan o'zgardi. Xususan, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" shiori asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi. Maktablarda ish yuklamasi maqbullashtirilib, o'qituvchilarni majburiy mehnatga jalb qilish amaliyoti bekor

qilindi. Bu borada an'anaviy yondashuvlardan voz kechilib, zamonaviy texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajriba faol joriy etila boshlandi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimidagi islohotlarning asosini – jamiyatda o'qituvchining maqomini oshirish, ularga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish tashkil etdi. Bu borada o'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, olis hududlarda ishlayotgan pedagoglar uchun ustamalar joriy etish belgilandi.

Uchinchidan, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga va ta'lim sohasidagi zamonaviy tendentsiyalarga mutanosib huquqiy makon yaratildi. Jumladan, pedagog-o'qituvchilarning huquqiy maqomi birinchi marotaba mamlakatning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida qat'iy belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'nnaviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" (52 modda). Shuningdek, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Bundan tashqari, Asosiy Qonunimizda ta'lim sohasida davlatning alohida majburiyatları sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlar nazarda tutilgan. Jumladan, Konstitutsianing 50 moddasida ta'lim muassasalarida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lган bolalar uchun inklyuziv ta'lim ta'minlanishi to'g'risida ijtimoiy norma kiritildi.

To'rtinchidan, tizimda mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida keng qamrovli strategik islohotlar amalga oshirildi. Sohaga oid dolzarb vazifalar kontseptual va strategik hujjatlarda o'z aksini topmoqda.

Xususan, 2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, «Raqamli

O'zbekiston – 2030» strategiyasi, “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”, “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”, “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” shular jumlasidandir.

Ahamiyatlisi, ularning asosini yoshlar salohiyatini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lif-tarbiyasi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish tashkil etmoqda. Zero, ulug' ma'rifatparvar, atoqli adib va pedagog Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», degan so'zlari barcha davr uchun dolzarbdir.

Beshinchidan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda O'zbekiston aholisi 37 mln. nafarni tashkil etmoqda. Demograflarning prognozlariga ko'ra, 2030 yilga borib mamlakat aholisi 40 mln. kishidan oshadi. Ayni paytda, mutaxassislar aholi o'sishi dinamikasini, jumladan undan yoshlar ulushining o'sib borishi “demografik dividend” davri deya baholashmoqda va ularning fikricha, bundan oqilona foydalanish kelgusida mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida “inson qadri” ta'minlash, pirovard natija sifatida esa inson kapitalini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu davr talabidir. Zero, har qanday islohotning natijadorligi sifatli va zamonaviy ta'lif olgan, yuksak salohiyatli mutaxassislarga bog'liqdir. Boshqacha aytganda, inson kapitali – har qanday modernizatsiya va iqtisodiy muvaffaqiyatning eng muhim poydevoridir.

Ta'lif sohasidagi davlat siyosatining yana bir muhim yo'nalishi – bu yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishdir. Uzoq yillardan buyon maktab bitiruvchilarining 50%i mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri edi.

Mazkur masalani hal etish maqsadida 2023-yildan boshlab yangi dastur amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lif standartlari joriy etildi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi.

Oltinchidan, sifatli ta'lif — mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi eng samarali va qisqa yo'ldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida "Ta'lif sifatini oshirish – Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning yagona to'g'ri yo'li" deya ta'kidlab, 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deb e'lon qilgan edi.

Yettinchidan, so'nggi yillarda davlat byudjetidan ta'lif sohasiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori ortib borish tendentsiyaga ega bo'lmoqda. Jumladan, 2021-yilda oliy va o'rta ta'lif tizimiga 2,9 trln. so'm, xalq ta'lifimiga 22,1 trln. so'm ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 4,1 trln. va 25,8 trln. so'mni tashkil qilgan.

Umumiy hisobda ta'lif shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Xususan, ushbu islohotlar uchun davlat byudjetidan xarajatlar so'nggi 6 yilda 4,3 baravarga oshirildi.

Shu bilan birga, xalq ta'lifi tizimini isloh qilish jarayonida o'rta maktab o'qituvchilarining ish haqi 3 baravarga oshirilib, maktablarga malakali mutaxassislarni jalb qilishga erishildi. Buning natijasida 2016-2017-o'quv yilida oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ulushi 81,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020/2021 o'quv yilida ushbu ko'rsatkich 87,8% ga yetdi.

Bundan tashqari, mamlakatning olis tumanlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularga har oyda 50% miqdorida qo'shimcha ustama haq to'lash bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Shuningdek, maktab o'qituvchilariga uy-joy, avtotransport, maishiy texnika vositalari va boshqalar uchun imtiyozli kreditlar berish amaliyoti joriy etildi.

Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar ajratilmoqda. O'zbekiston Rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda.

Sakkizinchidan, sohadagi islohotlar qisqa muddatda o'zining ijobiy natijasini bera boshladi. Jumladan, agarda 2017-yilda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bilan atigi 27% bolalar qamrab olingan bo'lsa, so'nggi yetti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 74% yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari soni 210 taga (taqqoslash uchun: 2016-yilda – 77 ta), qamrovi esa 42% ga yetdi. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda 30 dan ortiq xorijiy davlatlarning (AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Finlyandiya, Koreya, Hindiston, Singapur Rossiya va h.k.) nufuzli oliy o'quv yurtlarining filiallari ochildi.

Umuman olganda, islohotlar natijasida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar soni 2,2 baravarga oshdi. Xususan, 2016-yilda 268,3 ming talaba tahsil olgan bo'lsa, 2023-yilda ularning soni 1,03 mln. nafarga yetdi.

To'qqizinchidan, ushbu sohadagi boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning o'xshash va o'zaro bir-birini takrorlovchi funktsiyalarini muvofiqlashtirish hamda ularning faoliyatini samarali ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi negizida – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha ta'lim va Xalq ta'limi vazirligi birlashtirilib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi.

O'ninchidan, ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida 44 ming nafardan ortiq erkak o'qituvchi xalq ta'limi tizimiga qaytdi.

Shuningdek, iqtidorli yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Jumladan, yuqori malakali mutaxassislarini xorijda tayyorlash, iqtidorli va istiqbolli davlat xizmatchilarini izlab topish, tanlash va rag'batlantirish, yangi avlod kadrlarini shakllantirish va ularni davlat xizmatiga jalb etishga ko'maklashish maqsadida «El-yurt umidi» jamg'armasi tashkil etildi.

Bugungi kunda 504 nafardan ortiq jamg'armasi stipendiatlari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Kanada, Yaponiya, Ispaniya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning eng nufuzli ta'lim va tadqiqot, innovatsiya va amaliyot maskanlarida ta'lim olmoqdalar.

Bundan tashqari, iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalar, uslublar va xorij tajribasini keng joriy etish, ularni o'qitish va tarbiyalashda yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida davlatimiz Rahbarining 2019-yil 20-fevralda “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatning barcha hududlarida Prezident maktablari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Misol sifatida 2024-yilda Toshkentdagি Prezident maktabi o'quvchisi Abdulaziz Sobirov dunyo reytingida Top 5 talikka kiruvchi Garvard universitetiga 354 ming dollar miqdoridagi grant bilan o'qishga qabul qilinganini ko'rsatish mumkin.

Bu boradagi ishlarning mantiqiy davoim sifatida 2024-yilda Prezident maktablari ta'lim dasturi yana mingta maktabda boshlanishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, mamlakatda Ijod maktablari, Abu Ali Ibn Sino,M. Ulug'bek, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Mamlakat ta’lim tizimi sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan eng so’nggi islohotlardan biri O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi qarori qabul qilingani bo’ldi (02.02.2024-y.PQ-54-son).

Loyiha ofisining asosiy faoliyat yo’nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ta’lim sohasini isloh qilish bo’yicha chora-tadbirlar va istiqbolli tashabbuslarni ishlab chiqish;
- xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, konsalting kompaniyalari va mutaxassislarning tavsiyalarini tahlil qilish va umumlashtirish, maqbul tashabbuslarning samarali implementatsiya qilinishini ta’minlash;
- yetakchi ekspertlar, konsultantlar, maslahatchilar va jamoatchilikni keng jalb qilgan holda ta’lim standartlari, o’quv rejalarini va dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish bo’yicha takliflar tayyorlash;
- ta’lim turlari va darajalari o’rtasida uzviylikni va uzlucksizlikni ta’minlash, davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlarini ishlab chiqishda vazirlik va idoralarning o’zaro hamjihatlikdagi faoliyatini yo’lga qo’yish;
- ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati madaniyatini shakllantirish, o’quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazishda vazirlik va idoralarga har tomonlama ko’maklashish;
- maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo’yicha o’quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash;
- o’quvchilar bilimi, tahliliy, tanqidiy va kreativ fikrashi, muammolarga yechim topib, amaliyotda qo’llay olish ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o’quv metodikalarini ishlab chiqish.
- tan olingan xorijiy dasturlar (A-level, IB kabi), o’quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etish;-

ta’lim sifatini nazorat qilish yo’nalishida xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijiy va xalqaro baholash tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Ta’kidlash kerakki, bugun O’zbekistonda islohotlar ortga qaytmas tus olgan bo’lib, ta’lim tizimidagi o’zgarishlar ularning asosini tashkil etadi. Ahamiyatlisi, sohadagi islohotlar strategik xarakterga ega bo’lib, davlat muntazam tarzda ularni zamonaviy tendentsiyalar asosida takomillashtirib borish maqsadida yaqin istiqbolda o’z oldiga katta vazifalarni qo’ygan.

Xususan:

- mактабгача та’лим тизимини янги босқичга олиб чиқиш hamda bolalarning to’liq qamrovini ta’minlash.
- umumiy o’rta ta’lim tizimida «Ta’lim uchun qulay muhit» dasturini amalgaloshirish. Uning doirasida olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo’lga qo’yish rejalashtirilmoqda.
- umumiy o’rta ta’lim tizimini янги босқичга олиб чиқиш. Xususan, 700 ga yaqin nomdagi янги дарсликлар, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo’llanmalar va mobil ilovalar yaratish.
- barcha umumiy o’rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlargacha o’rgatish kurslarini joriy etish. Jumladan, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta’lim metodikasini barcha umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quv jarayonlariga joriy etiladi.
- umumiy o’rta ta’limni rivojlantirish jarayoniga xususiy sektorni faol jalg qilish jumladan nodavlat umumiy o’rta ta’lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish.
- kelgusi besh yilda nodavlat umumiy o’rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo’lga qo’yish uchun 1 trln. so’m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish. 2024-yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiy o’rta ta’lim muassasalari qurilishi bo’yicha shartnomalar tuzish.

– nodavlat umumiy o’rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o’quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish. Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalg qilinadigan mablag’lar hisobidan 2 mlrd. dollarlik umumiy o’rta ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish va boshqalar. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi bog’chalarni qurish uchun 2030 yilga qadar maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 80,8% gaetkazish maqsad qilingan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatda ta’lim sohasidagi islohotlar, yoshlarni ta’lim tizimi bilan qamrab olish borasida amalga oshirilgan dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, World Population Review tomonidan 2021-yilda eng savodli mamlakatlar reytingini tuzish uchun 154 mamlakatdagi holatni tahlil qilgan. Reytingga ko’ra O’zbekiston savodxonligi 100 foizni tashkil qilgan 4 ta mamlakatlardan biridir.

Shuni ta’kidlash lozimki, inson kapitali iqtisodiy o’sishni ta’minlaydigan muhim omildir. Shu nuqtai nazardan, sifatli ta’lim shubasiz, mamlakat taraqqiyotini ta’minalashga xizmat qiladigan eng samarali va qisqa yo’ldir. To’la ishonch bilan aytish mumkinki, so’nggi yillarda O’zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar ijobjiy dinamikaga ega bo’lmoqda va ular o’rta va uzoq istiqbolda o’z samarasini beradi.

Bundan tashqari bugungi kunda jahonda inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bankining tadqiqot natijalariga ko’ra, o’tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda o’sishning 64 foizi inson kapitalining sifatiga bog’liqligi qayd etilgan, AQShda bu ko’rsatkich 76 foizni, Yevropa davlatlarida esa 74,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda, inson kapitali rivoji uchun sarflangan har bir dollar kelgusida mamlakatga 3-6 dollar foyda keltirishi ta’kidlab o’tilgan.

Shu nuqtai nazardan, O’zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ayniqsa so’ngi 6 yilda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi

hisoblanmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida O'zbekistonda inson kapitalini yuksaltirish, jumladan ta'lif va ilm-fanni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish va salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma'rifiy ongini yuksaltirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilidi. Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjetidan sarf etiladigan xarajatlar 4,3 baravarga oshirildi. Ta'lif sohasi davlatning kelgusidagi rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilishini inobatga olib ta'lif-tarbiyaga katta e'tibor qaratildi. Rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lif tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lif-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida maktabgacha ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik (Maktabgacha ta'lif vazirligi) tashkil etildi. Bunda, maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni 5211 tadan 19316 taga, maktablar soni 9719 tadan 10289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, shuningdek ta'lif sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash tizimi joriy etildi, OTM soni 70 tadan 154 taga yetkazildi, oliy ta'lifdan keyingi ta'lifning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta'lif va fan sohalariga investitsiya kiritish, bu – buyuk kelajak uchun sarmoya degani. Ana shu g'oya ortidan va izchil islohotlar natijasida maktabgacha ta'lif bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrov darajasi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi va Global innovatsion indeksi reytingi bo'yicha O'zbekiston 122 o'rindan 86 o'ringa ko'tarildi.

Shuningdek, sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'lifda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rmini yaratish, malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari

ekvivalentiga yetkazish, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish, iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish belgilab olindi.

Mamlakatda aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani bezizga emas, albatta. Zero, xalq salomatligi, millat genofondining mustahkamligi shu davlatning katta boyligi sanaladi.

Aholi uchun sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Shu boisdan ham, Harakatlar strategiyasi doirasida birlamchi tibbiy sanitariya yordami, shoshilinch tibbiy yordam va aholining zaif qatlamlariga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida sohada tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan umumiyl amaliyot shifokori oilaviy shifokor, qishloq vrachlik punkti oilaviy shifokor punkti, qishloq va shahar oilaviy poliklinikasi oilaviy poliklinika deb qayta nomlandi va faoliyati yangi bosqichga ko'tariladi. Undan tashqari, hamshiralik ishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritildi, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash jarayoniga xususiy sektor faol jalb qilindi. O'z navbatida, sog'liqni saqlash sohasiga yetuk malakali kadrlarni yetishtirib beradigan oliy ta'lim muassasalari soni 7 tadan 9 taga yetkazildi va tibbiyot ta'lim muassasalari kvotalari bakalavriatda 72 foiz va magistraturada 92 foizga ko'paytirildi. Respublikadagi tibbiyot kollejlarining 47 tasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlariga aylantirildi, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 3,3 barobarga oshirilib, ularning majburiy mehnatga jalb etilishiga chek qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, aholiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam xizmatining sifatini yaxshilash maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Shuningdek, tez tibbiy yordam tizimida bitta chaqiriqqa dori-darmon uchun ajratiladigan mablag' Yu so'mdan 7700

so'mgacha, tez yordam shoxobchalari soni 818 tadan 1 666 taga, tez tibbiy yordam brigadalari soni 1 648 tadan 2 685 taga, reanimobil transport vositalari 24 tadan 435 taga yetkazildi.

Sohadagi islohotlar hamda zamonaviy tibbiy texnologiyalar yordamida xizmatning tezkorligi oshirish natijasida tez yordamning chaqiriqlarga yetib borish vaqtি o'rtacha 25-30 daqiqadan 8-12 daqiqaga, xizmat ko'rsatish radiusi 15-20 km.dan 9-12 km.ga tez tibbiy yordamning chaqiriqlarga yetib borishdagi kechikishlari 10-12 foizdan 1-2 foizga qisqartirildi.

Aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi belgilangan ustuvor vazifalarni Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirish maqsadida keyingi 5 yilda Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, elektron retsept tizimini keng joriy etish, dori vositalari va tibbiy buyumlarga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni 3 barobarga oshirish, dori-darmon va tibbiyot vositalar ishlab chiqarish ulushini 80 foizga, tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish, hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini «bir qadam» tamoyili asosida tashkil etish, malakali shifokorlar oyligini 1 000 dollarga ekvivalentiga yetkazish maqsad qilindi.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Zero, sport turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlar tarqalishining oldini olib, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan ham, so'nggi yillarda aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filiali, Belarus davlat jismoniy tarbiya universiteti bilan hamkorlikdagi qo'shma jismoniy tarbiya, sport va turizm fakul'teti, P.F. Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti bilan hamkorlikda qo'shma jismoniy tarbiya, sport va salomatlik fakul'teti faoliyati yo'lga qo'yildi. Olimpiya o'yinlari g'oliblari, jahon va Osiyo championlari bo'lgan 204

nafar sportchi tuman (shahar)larga biriktirildi, 92 nafari sport maktablarining rahbarlik lavozimiga tayinlandi, respublika tuman (shahar)lari 203 ta ustuvor, 206 ta istiqbolli va 199 ta rivojlanayotgan sport turlariga, 112 ta oliy ta'lim muassasalari 293 ta olimpiya, 17 ta milliy va 25 ta boshqa sport turlariga ixtisoslashtirildi.

Natijada sport bilan shug'ullanadigan aholining ulushi 27,6 foizni tashkil etdi.

Quvonarli tomoni shundaki, Tokio shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida 17 ta sport turida 71 nafar O'zbekiston milliy terma jamoasi sportchilari ishtirot etib, ular tomonidan 3 ta oltin va 2 ta bronza medali qo'lga kiritildi hamda ikkita sportchimiz Olimpiya rekordini o'rnatdi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi pog'onaga olib chiqish maqsadida Taraqqiyot strategiyasi doirasida sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi ulushini xozirgi 27,6 foizdan 33 foizga yetkazish, milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish, oliy ma'lumotli trenerlar ulushini 85 foizga oshirish, qishki Olimpiya o'yinlariga kamida 10 ta va 2030-yildagi Olimpiya o'yinlariga kamida 20 ta litsenziyani qo'lga kiritish nazarda tutilgan.

So'nggi 5 yil davomida barcha sohalar qatori madaniyat va san'at rivojiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekistonda madaniyat sohasidagi barcha huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi «Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Ilhom» jamoat fondi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoneyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali, «O'zbekiston tarixi» telekanali tashkil etildi, mamlakat mustaqilligining mazmun-mohiyati va tarixiy ahamiyatini aks ettiruvchi «Istiqlol» yodgorlik kompozitsiyasi majmuasi barpo etildi. 2021-yildan boshlab, har yili sentyabr-oktyabr oylarida «Ochiq eshiklar kuni»da aholi muzey ashyolari va muzey kollektivalarini kirib ko'rish uchun davlat muzeylariga bepul kirish imkoniga ega bo'ldi.

O'z navbatida, o'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan «Xorazm lazgisi» YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritildi va O'zbekistonda muntazam ravishda o'tkaziladigan

Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, «Buyuk ipak yo'li» xalqaro folklor san'ati hamda «Raqs sehri» xalqaro festivallari doirasida madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, kelgusi 5 yilda jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummiliy harakatga aylantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish, buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini chuqr o'rganish va targ'ib etish, O'zbekiston tarixini rivojlantirish va milliy kino san'atini rivojlantirish maqsad qilindi.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan bunday sa'y-harakatlar va bu borada keyingi 5 yilda belgilab olingan vazifalar, albatta o'z samarasini berishi shubhasiz. Zero, bularning barchasi yaqin kelajakda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, aholi farovonligini oshirish va O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun ko'zlangan maqsadlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.
2. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.
3. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 13 iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash – barcha ezgu malisadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma’ruzasidan http://uza.uz/oz/politics/qonun_va_adolat-ustuvorligini_taminlash-barcha-ezgu-malisadlar-13-06-2017?phrase_id=2579526.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil, 20 dekabr.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018 y.

III. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)

VII. NAZORAT SAVOLLARI

1	2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qaysi tamoyilga asoslanib ishlab chiqilgan?
2	Davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma’muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish qaysi loyiha asosida amalga oshirish belgilangan?
3	“Xalqparvar davlat” milliy dasturi amalga tatbiq etish qaysi g’oya asosida ishlab chiqilgan?
4	“Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta’minlash” maqsadi bo'yicha qanday konsepsiyanı ishlab chiqilishi belgilangan?
5	“Legal Tech” platformasi nma?
6	Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” nomli 3-yo’nalishi nechta maqsadni o’z ichiga oladi?
7	Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligini ta’minlash bo'yicha hududlarda birlamchi tibbiy xizmati qanday tamoyil asosida yo‘lga qo‘yish belgilangan
8	Har bir tuman budgetining necha foizini “Fuqarolar budgeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish belgilangan?
9	Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan nechtaPreizdent qarori qabul qilindi?
10	Taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra davlat qarzini boshqarishda yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori yiliga qancha bo‘lishi belgilangan?
11	Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish qaysi shaharda

	amalga oshiriladi?
12	Taraqqiyot strategiyasining 6-yo'nalishi qanday nomlanadi?
13	Ta'lism-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash orqali qaysi ta'lim muassasasini ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish nazarda tutilgan?
14	Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish bu?
15	Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar qanday reyting qatoriga kirish rejalahtirilgan?
16	Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish qaysi ustuvor yo'nalish maqsadlarida belgilangan?
17	Inson kapitali nima?
18	"Yashil iqtisodiyot" bu?
19	Ijtimoiy sheriklik bu?
20	2023 yil 11 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Strategiyada nechta ustuvor yo'nalish bor?
21	Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
22	2023 moliya yilidan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar qanday tartibda shakllantirilishi belgilangan?
23	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
24	Qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat asosida Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta'lim muassasasi etib belgilangan?

25	Yoshlar bilan ishslashning "mahalla-sektor-tuman (shahar)-hudud-respublika" tizimi qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatga asosan joriy etildi?
26	"2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-qaroriga ko'ra Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qanday dastur amalga oshirilmoqda?
27	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
28	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan davrda ustuvor yo'nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab bergen normativ-huquqiy hujjat qanday nomlanadi?
29	Strategiya tushunchasi ma'nosi
30	Ma'naviyat bu
31	Konstitutsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
32	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqilanadi" normasi belgilangan?
33	Jamoat birlashmalariga nimalar kiradi?
34	Jamoat birlashmasi deb nimaga aytildi?
35	Fuqarolik jamiyatni ta'rifni to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating
36	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot qaysi prinsip asosida rivojlanadi?
37	Turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadigan fuqarolik jamiyatni instituti qaysi?
38	O'zbekiston xalqi nomidan faqat kim ish olib borishi mumkin?
39	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini kredit-modul

	tizimiga asoslangan uzlucksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha yangi tizim qaysi viloyatlarda tajriba va sinovdan o'tkazildi?
40	Jamoatchilik nazorati subektlari bu
41	"Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish "O'zbekiston — 2030" Strategiyasining nechinchi ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan?
42	"Miranda qoidasi" bu
43	"Habeas corpus nima?
44	"Shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-modda. Ushbu qoida xalqaro huquqda qanday ataladi?
45	Yoshlarning bandligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan yo`nalish -